

076.2

338
O'zbekiston Respublikasi

M-93
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

Muminov N.G.
Egamberdiyev F.T.
Azizov R.K.



MAKROIQTISODIYOT

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy
universitetining
100 yilligiga
bag'ishlanadi!

N.G.Muminov, F.T.Egamberdiyev, R.K.Azizov

MAKROIQTISODIYOT

*Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2012-yil 14-martdagi 107-sonli buyrug'iga asosan
5230100-iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
yo'nalishining talabalari (o'quvchilari) uchun
tavsiya etilgan.*

Toshkent
«Tsentr innovatsionnix texnologiy»
2017

UDK 330.101.541

BBK 65.012.2

M-86

Muminov Nozim Gaffarovich

Makroiqtisodiyot: [matn] / N.G.Muminov, F.T.Egamberdiyev, R.K.Azizov – Toshkent "Tsentr innovatsionnix texnologiy" nashriyoti, 2017 yil – 200 bet.

ISBN 978-9943-4943-1-2

UDK 330.101.541

BBK 65.012.2я73

MUALLIFLAR:

Muminov N.G. (II bob, III bob, V bob, VI bob, IX bob, X bob)

Egamberdiyev F.T. (I bob, IV bob, VII bob, VIII bob, XIII bob)

Azizov R.K. (XI bob, XII bob)

TAQRIZCHILAR:

A.A.Qayumov – O'zbekiston Milliy universiteti
"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrası
professori, g.f.d.

A.F.Rasulev – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası
professori, i.f.d.

ISBN 978-9943-4943-1-2

© O'zbekiston Milliy universiteti

© N.G.Muminov, F.T.Egamberdiyev, R.K.Azizov

© "Tsentr innovatsionnix texnologiy" nashriyoti

Mazkur o'quv qo'llanmada bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari, ishsizlik va inflatsiya, iqtisodiy o'sish, makroko'lamda pul bozori, davlat budjeti va soliq siyosati masalalari yoritilgan.

O'quv qo'llanmada iqtisodiyot muvozanati va uni barqarorlashtirish usullarini, tovar va xizmatlar bozorida-gi muvozanatni yoritib berish alohida o'rin tutgan.

O'quv qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi aspirant va izlanuvchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun mo'ljallangan.

В данном учебном пособии рассматриваются экономические функции государства в рыночных условиях, вопросы безработицы и инфляции, экономический рост, денежный рынок на макроуровне, государственный бюджет и налоговая политика.

В учебном пособии особое внимание уделено экономическому равновесию и ее стабилизации, равновесию на товарном рынке и рынке услуг.

Учебное пособие предназначено для студентов, обучающихся на направлении «Экономика», исследователей и соискателей, занимающихся научно-исследовательской деятельностью, слушателям курсов повышения квалификации.

This manual considers economic functions of a state in the conditions of market relations, issues of unemployment and inflation, economic growth, money market on macrolevel, state budget and tax policy.

Particular attention in the manual was given to cover issues of economic equilibrium and its stabilization, balance on goods and service market.

The manual is aimed at students majoring in economics, post-graduates and researchers, advanced training students.

KIRISH	9
--------------	---

I BOB. "MAKROIQTISODIYOT" FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. Makroiqtisodiyot fanining predmeti va metodi.....	13
1.2. Makroiqtisodiyotning asosiy agentlari va ular orasidagi munosabatlar	16
1.3. Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi.....	17
1.4. Makroiqtisodiyotning fundamental muammolari	19

II BOB. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBLASH

2.1. YaMM va uni hisoblash usullari	21
2.2. Real va nominal YaMM. YaMM deflatori	25
2.3. Makroiqtisodiyotning boshqa ko'rsatkichlari.....	27
2.4. Iqtisodiyotni tartibga solish jarayonida balans hisob-kitoblarining roli	30
2.5. Xalq xo'jaligi balansining (XXB) umumiy tavsifi.....	32
2.6. Xalq xo'jaligi balansining asosiy kamchiliklari	34
2.7. Milliy schotlar tizimining (MST) asosiy mohiyati.....	35
2.8. MST va XXB o'rtasidagi asosiy farqlar.....	38

**III BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING DAVRIY RIVOJLANISHI.
ISHSIZLIK**

3.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning o'lchanishi.....	43
3.2. Iqtisodiy davrlarning xususiyati va ko'rinishi.....	44
3.3. Mehnat bozori va undagi raqobat.....	45
3.4. Ishsizlik va uning kelib chiqishi.....	49
3.5. Ouken qonuni.....	56
3.6. O'zbekistonda mehnat bozorini tashkil etish va tartibga solish.....	58

IV BOB. INFLYATSIYA VA ANTIINFLYATSIYA SIYOSATI

4.1. Inflatsiya va uning mohiyati.....	61
4.2. Inflatsiyani aniqlash.....	62
4.3. Inflatsiyaning kelib chiqish sabablari va uning nazariy asoslari.....	63
4.4. Inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik. Fillips egri chizig'i.....	67

V BOB. YALPI TALAB - YALPI TAKLIF MODELII

5.1. Yalpi talab va yalpi taklif tushunchasi.....	69
5.2. Yalpi talab egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar.....	71
5.3. Yalpi talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillari.....	73

5.4. Yalpi taklif egri chizig'i	76
5.5. Yalpi taklif egri chizig'ini siljitib turuvchi omillar	78
5.6. Narxlarning muvozanatli darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmiga yalpi talab o'zgarishining ta'siri	80
5.7. Narxlarning muvozanatli darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatli real hajmiga yalpi taklif o'zgarishining ta'siri	82

VI BOB. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIYA FUNKSIYALARI

6.1. Iste'mol funksiyasi	85
6.2. Jamg'arish funksiyasi	88
6.3. Investitsiya funksiyasi	96

VII BOB. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODEL

7.1. Tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanat	101
7.2. Budjet-soliq siyosatining muvozanatli holatga intilishga ta'siri	103
7.3. Makroko'lamda investitsiya va jamg'armalar hamda ularning muvozanati (IS egri chizig'i)	104

VIII BOB. PUL BOZORIDA MUVOZANAT

8.1. Pulning mohiyati, vazifalari va turlari	111
8.2. Pul-kredit tizimi va pul multiplikatori	115

IX BOB. DAVLAT BUDJETI VA SOLIQ SIYOSATI

9.1. Moliya tizimi va Davlat budjeti.....	119
9.2. Mahalliy budjet va uning ahamiyati	123
9.3. Soliqlar va ularning turlari. Soliq imtiyozlari.....	125
9.4. Davlat zayomlari. Emissiya. Budjetdan tashqari moliya fondlari.....	129

X BOB. IS VA LM MODEL

10.1. Pul bozori va uni tartibga solish.....	131
10.2. Pulning talab va taklifi (LM egri chizig'i). IS va LM egri chiziqlarining muvozanati.....	135

**XI BOB. IQTISODIY O'SISH. IQTISODIYOTNING SIKLIK
TEBRANISHI**

11.1. Iqtisodiy o'sishning ahamiyati	137
11.2. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar.....	138
11.3. Davlatning iqtisodiy o'sishga ta'sir etish imkoniyatlari..	140
11.4. Iqtisodiy o'sish va aholi farovonligi.....	141
11.5. Iqtisodiy sikl. Iqtisodiyotning siklik rivojlanishi.....	142
11.6. Iqtisodiy sikl fazalari.....	145
11.7. Sanoat va yirik sikllar konyunkturasi. Kondratyev-Forrestorlarning yirik iqtisodiy sikllari	146

XII BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYALARI

12.1. Tashqi iqtisodiy munosabatlar strategiyasi.....	151
12.2. Tashqi savdo nazariyalari.....	157
12.3. Jahon bozori va tashqi savdoning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar.....	163
12.4. Xalqaro kapital migratsiyasi va xorijiy investitsiyalar.....	166

XIII BOB. TO'LOV BALANSI VA VALUTA KURSI

13.1. To'lov balansi.....	171
13.2. Jahon valuta tizimining mohiyati va zarurati.....	175
13.3. Valuta konvertirlashuvi.....	177
13.4. Valuta kursi.....	178
ATAMALAR IZOHI.....	181
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	187

1 Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari sifatida tan olinadigan fanlar qatorida "Makroiqtisodiyot" fani alohida o'rin tutadi.

2 Ushbu o'quv qo'llanmada, birinchidan, makroiqtisodiyotning predmeti va uning iqtisodiyot nazariyasining alohida bo'limi sifatidagi xususiyatlari, ikkinchidan, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, uchinchidan, yagona bozor elementlari bo'lgan yalpi talab va yalpi taklif, shuningdek, ularning o'zaro munosabatini ifodalovchi model tahlil etilgan.

Makroiqtisodiyot predmeti – umumiy iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etish bo'lib, unda uy xo'jaliklari va firmalardan tashqari davlat ham faol ishtirokchi hisoblanadi. Iqtisodiyot nazariyasining birinchi qismi – mikroiqtisodiyotda diqqat markazida alohida iqtisodiy subyektlar va ularning konkret tovarlar (avtomobil, sut, bolalar o'yinchoqlari va boshq.) bozorlaridagi o'zaro munosabatlari turadi. Iqtisodiyot nazariyasining ushbu ikki qismi predmetlari o'rtasidagi farq shundaki, makroiqtisodiyot iqtisodiy hodisalarni kompleks o'rganadi. Makroiqtisodiyotni fan sifatidagi yana bir xususiyati – bir-biriga raqib maktablarning mavjudligi bo'lib, ular bir necha o'n yilliklar davomida muhim makroiqtisodiy muammolar (davlat budjeti taqchilligi, pul-kredit siyosati, narxlar erkinligi va inflatsiya, xo'jalik subyektlarining ratsionalligi) to'g'risida bahslar olib borishmoqda. Ba'zi maktablar vakillari iqtisodiyotni boshqarishda hukumat faolligini oshirish zarurligini ta'kidlasalar, boshqa maktab vakillari: "Hukumat "tungi qorovul" vazifasini bajarsa kifoya qiladi", – degan fikrdalar. Shu sababdan Bernard Shouning quyidagi fikriga qo'shilish mumkin: "Agar barcha iqtisodchilarni bitta zanjirga kishanlab qo'ysa ham, ular baribir murosaga kelishmaydi".

Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, bir-biriga mos kelayotgan makroiqtisodiy nazariyalar to'g'ri makroiqtisodiy siyosatni tanlashda qiyinchilik tug'diradi. Shu sababdan makroiqtisodiyot – bu hayotning barcha holatlari bo'yicha tayyor yo'riqnoma beradigan emas, balki u yoki bu mamlakatlarda o'ziga xos sharoitlarda vujudga keladigan iqtisodiy muammolarni yechish metodlari, tahliliy vositalarni ishlab chiqishga ko'maklashadigan fandir.

Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad hisoblanadi.

Mamlakatimizda qisqa davr ichida bu maqsadga erishish borasida keng ko'lamli, asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi va bir qancha yutuqlar qo'lga kiritildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan mu-rakkab muammolarning muvaffaqiyat bilan hal etilishi, makroiqtisodiy muvozanatning ta'minlanishi, dastlab iqtisodiy pasayishning bartaraf etilishi, so'ngra iqtisodiy o'sishga erishish chuqur o'ylangan va ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat samarasidir. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan quyidagi fikr bildirilgan: "Erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish borasida 2015-yilda uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'z ijobiy ta'sirini berdi..."¹ Yaqin kelaja-

¹ И.А.Каримов. Бош мақсадимиз – иқтисодиётимизда олиб бораётган ислохотларни ва таркибий ўзгаришларни кескин чуқурлаштириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorlikka кенг йўл очиб беришдир: Мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза. Тошкент: Ўзбекистон, 2016., Б.21.

kda ham yurtimizda makroiqtisodiy barqarorlikka alohida e'tibor qaratilishini mamlakatimizning ikkinchi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "...iqtisodiyotimizda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy valutamizni yanada mustahkamlashni ta'minlash"¹ masalalari strategik yo'nalishlardan biri qilib belgilangani ko'rsatmoqda.

Yalpi ishlab chiqarishning barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandligini, inflatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish "Makroiqtisodiyot" fanining predmetini tashkil etadi.

"Makroiqtisodiyot" fani milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarni, jumladan, mehnat resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladi.

Makroiqtisodiyot fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi va davlatning makroiqtisodiy siyosati to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Makroiqtisodiyot fanining vazifalari – makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo'lish shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to'g'risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy

¹ Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. (14.12.2016). <http://press-service.uz/uz/news/5395/> (мурожаат қилинди: 7.01.2017)

ko'rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini aniqlash usullarini o'rgatishdan iborat.

"Makroiqtisodiyot" fani "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Mehnat iqtisodiyoti", "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Moliya", "Institutsional iqtisodiyot", "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti", "Infratuzilma iqtisodiyoti", "Makroiqtisodiy tahlil va prognozlash", "Loyihalar tahlili" va boshqa fanlarni o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

I BOB. "MAKROIQTISODIYOT" FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

- 1.1. *MAKROIQTISODIYOT FANINING PREDMETI VA METODI.*
- 1.2. *MAKROIQTISODIYOTNING ASOSIY AGENTLARI VA ULAR ORASIDAGI MUNOSABATLAR.*
- 1.3. *IQTISODIY RESURSLARNING CHEKLANGANLIGI.*
- 1.4. *MAKROIQTISODIYOTNING FUNDAMENTAL MUAMMOLARI.*

1.1. MAKROIQTISODIYOT FANINING PREDMETI VA METODI.


Makroiqtisodiyot fanining yaratilishi ko'p mualliflarning fikriga ko'ra J.M.Keyns bilan bog'liq.

XX asrning 30-yillaridan boshlab ko'pgina olimlar tadqiqotlarda makroiqtisodiy yondashuvga yo'l ochdilar. Jumladan, Norvegiyalik olim Ragnar Frish 1933-yilda «Iqtisodiy dinamikada tarqatish muammolari va impuls muammolari» maqolasida makroiqtisodiy tahlil usulini qo'llaydi. 1939-yilda Gollandiyalik Yan Tinbergen o'z mamlakati uchun makroiqtisodiy model yaratdi¹. 1936-yilda J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asari yaratilishi natijasida makroiqtisodiyot fani iqtisodiyot nazariyasi fanining alohida qismi sifatida o'z predmeti va tahlil metodlari bilan ajralib chiqdi.

Makroiqtisodiyot umumiy, keng ko'lamdagi iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Uning obyekti yalpi ishlab chiqarish, ish bilan bandlik, narx va tashqi iqtisodiy savdo hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot fani mamlakat iqtisodiyoti va yalpi ishlab chiqarishning o'sishi, pasayishi, turg'unlik davrlarini iqtisodiy tahlil qiladi, shuningdek, uni tartibga solish ikti-

¹ Tinbergen J. Verifikation statistique des therr des siclaseconomiques. Vol.1 une methode et son application au mouvement des investissements. Vol. 2.:Les cycles économiques aux Etat-Unis d'Amérique de 1912 a 1938. Societe des nations. Service d'Etudes Economiques. Geneve, 1939



1.1-chizma. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi

sodiy mexanizmlarini yaratadi. Makroiqtisodiyot tomonidan o'rganiladigan hodisalar aholining turli qatlamlariga bevosita va bilvosita ta'sir etadi:

- O'z mahsulotiga bo'lgan talabni rejalashtirayotgan firma rahbari iste'molchilar daromadlarining o'sish tezligini oldindan ko'ra bilishi kerak.
- Cheklangan daromad bilan kun ko'ruvchi yo-shi katta bo'lgan aholini, albatta, narxlarni qay darajada o'sayotgani qiziqtiradi.
- Ish qidirayotganlar esa iqtisodiyotning o'sish davriga o'tishini va buning natijasida, firmalar ishchilarni yollashni boshlab yuborishini intizorlik bilan kutadilar.

Makroiqtisodiyot daromadlar, narxlar, ishsizlik va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlarni to'playdi, o'rganadi, ular ustida ishlab, bu ma'lumotlar haqida yagona nazariy xulosalar keltirib chiqaradi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning eng asosiylari quyidagilardir:

- 1) Real Yalpi milliy mahsulot (YaMM) hajmining o'sish sur'atlari;
- 2) Inflatsiya sur'atlari;
- 3) Ishsizlik darajasi.

Ular orasidagi bog'liqlik ma'lum qonuniyatlarga asoslangan holda shakllanadi (1.1-chizma).

Ta'kidlash lozim bo'lgan eng asosiy xususiyatlardan biri shuki, makroiqtisodiyotda tajriba o'tkazib bo'lmaydi. Agar o'tkazilsa ham, u jamiyat ustidan o'tkazilishi kerak va og'ir natijalarga olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodchilar iqtisodiy-ijtimoiy hodisalarni o'rganib, ko'rsatkichlarning o'sish va pasayish qonuniyatlarini ishlab chiqqan holda nazariyani keltirib chiqaradilar.

Makroiqtisodiyotni o'rganishning asosiy maqsadlaridan biri iqtisodiy siyosatni takomillashtirishdir. Davlat boshqaruvining pul-kredit, budjet-soliq siyosati iqtisodiyotga kuchli ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shularni hisobga olgan holda makroiqtisodiyot iqtisodiyot qaysi usullar va yo'l bilan rivojlanishi kerakligini, uning natijasi nima bo'lishini ko'rsata olishi kerak.

Metodlar: Jamlangan ma'lumotlarga baho berilib *gipoteza* olg'a suriladi. Xulosa chiqarishda *abstraksiyalash* usuli asosiydir.

Induktiv usul – xususiylikdan umumiylikka

Deduktiv usul – umumiylikdan xususiylikka

Tarixiylik


Mantiqiylik

Statistika

Jadvallar

Egri chiziqlar va hokazolar.

1.2. MAKROIQTISODIYOTNING ASOSIY AGENTLARI VA ULAR ORASIDAGI MUNOSABATLAR



A, 2 - oqimlar	- resurslar (yer, kapital, mehnat, tadbirkorlik qobiliyati)
V - oqim	- pul daromadlari (ish haqi, renta, %, foyda)
1 - oqim	- xarajatlar
3, 4 - oqimlar	- tovar va xizmatlar
3 - oqim	- pul tushumi
D - oqim	- uy xo'jaligining iste'mol xarajatlari

1.2-chizma. Iqtisodiyotning doiraviy aylanishining sodda modeli

Har qanday iqtisodiyot doimo yangilanib, doiraviy harakatda bo'ladi. Bu resurslar va yaratilgan tovarlar(xizmatlar) ning harakati tarzida yuz beradi (1.2-chizma). Doiraviy harakatrning eng sodda ko'rinishida 2 ta iqtisodiy agent mavjud bo'ladi:

1) firma (zavod, fabrika, fermer xo'jaligi, tashkilot, firma va boshqalar);

2) Uy xo'jaligi (resurslar).

Harakat uy xo'jaligidan boshlanadi. Mahsulot va resurslarning uy xo'jaligi va firma orasidagi doimiy harakati mak-

roiqtisodiy aylanma harakat deyiladi, chunki bu harakatga barcha iqtisodiy subyektlar tortiladi va u butun jamiyat miqyosida yuz beradi.

Iqtisodiyot ravon rivojlanishi uchun «yuqori» va «pastdagi» oqim bir biriga mos kelishi zarur. Buning uchun oqimlardagi turli elementlar muayyan muvozanatda bo'lishi kerak. Bu esa juda murakkab jarayon. Chunki:

- ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlarning soni va turlari juda ko'p bo'lib, iste'molchi bilan oldindan ke-lishib bo'lmaydi;
- aylanma harakatga eksport va import ta'sir ko'rsatadi;
- daromadlarning hammasi darhol ishlatilmaydi, ularning bir qismi jamg'ariladi;
- firma zaxiralarini o'zgartirishga xarajat qiladilar.

1.3. IQTISODIY RESURLARNING CHEKLANGANLIGI

Tabiiy (moddiy), mehnat va boshqa resurslar chegalangandir. Ulardan yaratiladigan moddiy ne'matlar soni ham. Resurslar kamayib boradi. Ehtiyojlar oshib boradi.

Agar resurslar cheklangan bo'lmaganida ulardan oqilona foydalanish ham bo'lmas edi. Bu cheklanganlik ilmiy-texnika inqirobini keltirib chiqaradi.

Bitta xomashyodan bir necha xil mahsulot olinganligi sababli: raqobat yuzaga keladi. Bu kishilar orasidagi raqobat emas, balki alternativ maqsadlar orasidagi raqobat. Masalan, bir xomashyodan bir necha xil mahsulot olinishi mumkin. Lekin shu olinadigan mahsulotlarning qaysi biri hozirgi vaqtda iqtisodiyot va jamiyat uchun qanday miqdorda kerakligini oldindan aniqlash juda murakkab. Nihoyat, ularni cheksiz ko'p ishlab chiqarib bo'lmaydi. Chunki resurs cheklangandir. Bundan tashqari, ushbu xomashyo

evaziga xorijdan boshqa mahsulotlar olib kirish mumkin. Bu yerda xomashyodan qaysi mahsulot ishlab chiqarish yoki uning evaziga chetdan qaysi tovar olib kirish borasida raqobat yuzaga keladi.

Xomashyo	Mahsulotlar
1. Paxta	1. Ip
	2. Gazlama
	3. Ko'ylak, kostum-shim
	4. Eksport ←→ T

Iqtisodiyotda *har bir individ* samarali harakat qilishiga asosiy sabab resurslarning cheklanganligi, minimum resurslar yordamida maksimum ehtiyojlarni qondirish uchun qilinadigan harakatdir:

- 1) (inson) maksimum ish haqi olish uchun;
- 2) (korxonalar) maksimum foyda olish uchun;
- 3) (davlat) aholining ijtimoiy farovonligini oshirishga

harakat qiladi.

Shu individlarning mustaqil, o'z xohishlari bilan qilayotgan ushbu harakatlarini bir-biriga moslashtirish, ularni butun iqtisodiyot uchun samarali harakatga aylantirish makroiqtisodiyotning asosiy vazifalaridan biridir.

1.4. MAKROIQTISODIYOTNING FUNDAMENTAL MUAMMOLARI

Makroiqtisodiyotning fundamental deb hisoblanadigan muammolari mavjud (1.3-chizma). Ulardan quyidagi 3 tasi eng asosiylari hisoblanadi:

1. Nima ishlab chiqarish kerak?
2. Qanday ishlab chiqarish kerak?
3. Kimlar uchun ishlab chiqarish kerak?

1) Albatta bozorda talabga ega bo'lgan tovar va xizmatlar ishlab chiqariladi.

Lekin bu yerda 2 narsa katta ahamiyatga ega:

1. Mahsulot sotilgandan tushgan pul.
2. Ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari.

1>2 → bo'lgandagina konkret tovar yo xizmat ishlab chiqariladi.



2) Bitta mahsulot ishlab chiqarishning bir necha texnologiyalari, shakllari bo'ladi. Ular orasidan eng optimalini tanlab olish kerak, eng yuqori iqtisodiy samara beradigani, kam resurs talab qilib, ko'p mahsulot ishlab chiqara oladiganini. Misol: **X** mahsulot texnologiyasi.

Resurs	Resurs birligi- ning narxi \$	Texnologiya №1	Texnologiya №2	Texnologiya №3
mehnat	2	4	2	1
yer	1	1	3	4
kapital	3	1	1	2
tadbirkorlik qobiliyati	3	1	1	1
Qiymat		15\$	13\$	15\$

Agar mehnat narxi 2\$ emas 0,5\$ bo'lsa (texnologiya №1) tanlanadi.

3) Mahsulot iste'molchilar uchun ishlab chiqariladi. Ammo iste'molchi mahsulot haqini to'lay olishi va shunga yarasha daromad olishi kerak.

3 ta muammoning sodda modeli.



1.3-chizma. Imkoniyatlar egri chizig'i va industralashtirish jarayoni

OX – iste'mol buyumlari ishlab chiqarish

OY – ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish

ABCD egri chiziq – resurslardan maksimum foydalanish chegarasi

A,B,C,D nuqtalar – resurslar

Yana eng asosiy omillar: mahsulot narxi, o'rnini bosuvchi mahsulotlar narxi, bog'liq mahsulotlar narxi.

- avval ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishga alohida e'tibor berilib, iqtisodiy va texnologik sakrashga asos yaratiladi;
- so'ng sekin-asta iqtisodiyot inersiya asosida **E** nuqtaga intila boshlaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Makroiqtisodiyot fani nimani o'rganadi?
2. Makroiqtisodiyot fanini o'rganish usullari qanday?
3. Makroiqtisodiyotning qanday asosiy agentlari mavjud?
4. Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi deganda nimani tushunasiz?
5. Makroiqtisodiyotning qanday fundamental muammolari mavjud?

II BOB. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBLASH

- 2.1. YALPI MILLIY MAHSULOT (YaMM) VA UNI HISOBLASH USULLARI.
- 2.2. REAL VA NOMINAL YaMM. YaMM DEFLATORI.
- 2.3. MAKROIQTISODIYOTNING BOSHQA KO'RSATKICHLARI.
- 2.4. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH JARAYONIDA BALANS HISOB-KITOBLARINING ROLI.
- 2.5. XALQ XO'JALIGI BALANSINING (XXB) UMUMIY TAVSIFI.
- 2.6. XALQ XO'JALIGI BALANSINING ASOSIY KAMCHILIKLARI.
- 2.7. MILLIY SCHOTLAR TIZIMINING (MST) ASOSIY MOHIYATI.
- 2.8. MST VA XXB O'RTASIDAGI ASOSIY FARQLAR.

2.1. YaMM VA UNI HISOBLASH USULLARI

YaMM iqtisodiyot holatini ko'rsatuvchi eng yaxshi ko'rsatkich deb hisoblanadi.

YaMM – ma'lum bir davr davomida jamiyatda pirovard natijada yaratilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatida hisoblangan miqdoridir.


Ushbu ta'rifda quyidagi uch jumlagi alohida e'tibor berish zarur:

- 1) davr (asosan yil tushuniladi);
- 2) pirovard mahsulot (oraliq mahsulot umuman hisobga olinmaydi);
- 3) bozor qiymati (mahsulotlar va xizmatlar taklif qiluvchilarning belgilagan bahosida emas, balki bozor belgilagan muvozanat narxida hisobga olinadi).

YaMM va Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'rtasidagi farq.

YaMM – shu mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymat ko'rinishi.

• Agar X mamlakat rezidentlari boshqa mamlakat hududida faoliyat ko'rsatsa, ularning topgan daromadlari X mamlakat YaMMiga qo'shiladi.



2.1-chizma. Daromad va xarajatning doiraviy aylanishi.

- Agar X mamlakat hududida Y yoki Z mamlakat rezidentlari faoliyat ko'rsatib daromad topsa, u Y yoki Z mamlakat YaMMiga qo'shiladi.
- Qo'shma korxonalar faoliyatini hisobga olishda ushbu korxonalar ustav kapitalining necha foizi qaysi tomonga tegishli ekani nuqtai nazaridan taqsimlanadi.

YaIM – shu mamlakat hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning yig'indisi.

YaMM – barcha iqtisodiy agentlarning yalpi daromadi.

YaMM – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarning umumiy hajmi.

YaMM bir vaqtning o'zida iqtisodiyotdagi daromadni va ishlab chiqarish xarajatlarining hajmini hisoblaydi. Chunki oxir natijada daromad bilan xarajat bir-biriga teng bo'lishi kerak. Masalan: Iqtisodda 1 ta resurs (mehnat) dan foydalanib 1 ta tovar (non) ishlab chiqarilsa (2.1-chizma).

YaMMni daromad bo'yicha hisoblash chizmaning tepa qismida ifodalangan (resurs sotgani uchun ish haqi, foyda va foiz ko'rinishidagi daromadlar).

YaMMni xarajat bo'yicha hisoblash chizmaning pastki qismida ifodalangan (non sotib olish uchun qilingan xarajatlar).

Lekin bu yerda zapas va oqim kategoriyalariga e'tibor berish kerak. Agar ortiqcha non ishlab chiqarish uchun ortiqcha resurs ishlatilsa va ortiqcha non sotilmasdan qolsa, xarajat qismi ko'payib, daromad qismi o'zgarmaydi. Agar non tashlab yuborilsa, «xarajat» > «daromad» bo'ladi. Aksariyat hollarda ortiqcha non zapasga olib qo'yilib, keyinroq sotiladi va daromad qismiga qo'shiladi.

Oraliq va pirovard mahsulot qo'shilgan qiymat. Ishlab chiqarish siklining boshidan oxirigacha oraliq mahsulotlar bo'ladi va ularning har biriga har bir agent o'zining qiymatini qo'shadi. Barcha qo'shilgan qiymatlar yig'indisi YaMM ga teng bo'ladi.

Bozorda sotilmaydigan xizmat qiymati qanday qo'shiladi? Masalan, uy-joy sohasida xizmatlar uchun haq to'lashda shartli ravishda hisoblangan qiymat prinsipi qo'llaniladi. Ya'ni ularning ijara haqi va to'lovlar hisoblanadi. Militsiya, armiya va hokimiyatlarning xizmat haqini hisoblash prinsipi ham shunday (ularning oyligi orqali hisoblanadi).

YaMMni xarajatlar bo'yicha hisoblash.

1) Shaxsiy iste'mol xarajatlari (C).

3 xil xarajatlardan iborat:

- a) uzoq muddat xizmat qiladigan tovarlarga xarajatlar;
- b) qisqa muddat xizmat qiladigan tovarlarga xarajatlar;
- c) xizmatlarga xarajatlar.

2) Yalpi xususiy ichki investitsiyalar (Ig).

Bularga quyidagilar kiradi:

- a) mashina, stanok va uskunalarga bo'lgan xarajatlar;
- b) qurilishga bo'lgan xarajatlar;
- c) zaxiralarga xarajatlar.

3) Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi (**G**).

Transfert to'lovlaridan tashqari hammasi kiradi.

4) Sof eksport (**Xn**).

Eksport - Import = Sof eksport

$$\{ \quad \mathbf{C+I_g+G+X_n=YaMM}$$

YaMMni daromadlar bo'yicha hisoblash.

1) Iste'mol qilingan kapital hajmi (**SSA**) yoki amortizatsiya (**A**).

2) Egri soliqlar (**T**).

3) Yollanma ishchilar mehnati uchun taqdirlash (ish haqi) (**W**).

4) Renta to'lovlari (ijara haqi) (**Rt**).

5) Foiz stavkalari yoki foizli daromadlar (**R**).

6) Mulkdan olingan daromad, asosan, yakka mulk egalari tegishli (**R**).

7) Firma, korporatsiyalar foydasi (**Pk**).

Ular 3 qismga bo'linadi:

a) daromad solig'i;

b) dividend;

c) korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi (sof daromad).

$$\{ \quad \mathbf{SSA (A)+T+W+R_t+R+P+P_k=YaMM}$$

2.2. REAL VA NOMINAL YAMM. YAMM DEFLATORI

Iqtisodiy ko'rsatkichlar ikki usul bilan hisoblanadi:

- natural-ashyoviy ko'rinishda (kg, tonna, m², m³, litr, dona);

- qiymat ko'rinishida (so'm, dollar va boshq.)

YaMMni hisoblashda turli xarakterdagi tovarlar va xizmatlar e'tiborga olinganligi uchun u qiymat ko'rinishida hisoblanadi.

Bunda narxlarning oshishi YaMMning ko'payganligini aks ettiradi, lekin ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar ko'paymaydi va ortiqcha talab qondirilmaydi.

Shu sababdan nominal va real YaMMlarni hisoblashga ehtiyoj tug'iladi.

Masalan, X mamlakatda turli yillarda YaMM o'zgarishiga e'tibor bering:

2000-yilda YaMM – 3,0 mlrd.doll

2001-yilda YaMM – 3,2 mlrd.doll

2002-yilda YaMM – 3,3 mlrd.doll

2003-yilda YaMM – 3,5 mlrd.doll

2004-yilda YaMM – 3,5 mlrd.doll

Bunda YaMM o'sib borayotganligi kuzatiladi, lekin har yil uchun nominal YaMM hisoblangan bo'lib, bu hol iqtisodiy holatni to'liq aks ettira olmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, X mamlakatda ikkita (A va V) mahsulot ishlab chiqariladi va ularning qiymatlari yig'indisi YaMMni tashkil etadi deb tasavvur qilsak. Bunda quyidagi holatni kuzatishimiz mumkin:

2000-yil – $A(10 \text{ m}^2) \cdot R(15 \$) + V(10 \text{ dona}) \times R(15 \$) = 300 \$$

2001-yil – $A(10 \text{ m}^2) \cdot R(16 \$) + V(10 \text{ dona}) \times R(16 \$) = 320 \$$

2002-yil – $A(9 \text{ m}^2) \cdot R(18 \$) + V(8 \text{ dona}) \times R(21 \$) = 330 \$$

2003-yil – $A(9 \text{ m}^2) \cdot R(20 \$) + V(7 \text{ dona}) \times R(24 \$) = 348 \$$

2004-yil – $A(8 \text{ m}^2) \cdot R(23 \$) + V(7 \text{ dona}) \times R(25 \$) = 359 \$$

Shu sababdan nominal YaMMlarni bir-biriga taqqoslash ehtiyoji tug'iladi. Bazis narxlarni e'tiborga olib YaMMni hisoblasak, real YaMM kelib chiqadi.

Tovar va xizmatlarning soni joriy yil narxlarida hisoblan-
sa, **nominal YaMM** kelib chiqadi.

$$| \quad \text{nominal YaMM} = (Q_A^{2004} \times R_A^{2004}) + (Q_V^{2004} \times R_V^{2004})$$

Tovar va xizmatlarning soni bazis yil narxlarida hisob-
lansa, **real YaMM** kelib chiqadi.

$$| \quad \text{real YaMM} = (Q_A^{2004} \times R_A^{2000}) + (Q_V^{2004} \times R_V^{2000})$$

Nominal va real YaMMlar yordamida YaMM deflatori hi-
soblanadi. Tovar va xizmatlarning hisobot yilidagi narxla-
rini bazis yildagiga nisbati YaMM deflatori deyiladi.

$$| \quad \text{YaMM deflatori} = \frac{\text{nominal YaMM}}{\text{real YaMM}}$$

Bundan: **nominal YaMM = real YaMM × deflator**
YaMM kelib chiqadi.

2.3. MAKROIQTISODIYOTNING BOSHQA KO'RSATKICHLARI

MST da YaMMdan tashqari boshqa ko'pgina ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi.

1. Ulardan biri Sof milliy mahsulot(SMM)dir. SMM mazmunan va hajman YaMM ga juda yaqindir. Faqatgina YaMMdan asosiy kapitalning yemirilgan qismini ayirib tashlash zarur.

$SMM = YaMM - \text{asosiy kapitalning yemirilgan qismi qiyamati (SSA(A))}$

SMM iqtisodiy faoliyat natijasini realroq ifoda etadi, chunki amortizatsiya ajratmalari ishlab chiqarishga qilingan xarajatdir.

2. Yana bir ko'rsatkich Milliy daromad (MD). U SMM dan egri soliqlarni ayirib tashlagandan qolgan qismdir.

$MD = SMM - \text{egri soliqlar (T)}$

MD – barcha iqtisodiy agentlar tomonidan olingan daromadlarning yig'indisi. MD 5 ta komponentdan tashkil topgan:

- mehnat uchun to'lovlar;
- mulkdorlarning daromadlari;
- renta to'lovlari;
- korporatsiyalar foydasi;
- sof foiz.

3. MD dan shaxsiy daromadni keltirib chiqarish mumkin:

Shaxsiy daromad = MD

- korporatsiyalar foydasi
- sotsial sug'urta to'lovlari
- sof foiz
- + dividendlar
- + davlatdan transfert to'lovlar
- + foiz ko'rinishida olingan shaxsiy daromad.

Makroiqtisodiyotda yana 2 ta ko'rsatkich muhim deb hisoblanadi:

- 1) *Iste'mol narxlari indeksi (INI)*;
- 2) *Ishsizlik darajasi*.

1) INI – bazis davrga nisbatan iste'mol savati narxining o'zgarishi (inflatsiya darajasini hisoblovchi ko'rsatkich).

INI iste'mol savati narxining uning bazis yildagi narxiga nisbatidir.

Iste'mol savati – o'rtacha yoshdagi erkakni 1 oy davomida biologik nuqtai-nazardan takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar majmuasi.

INI bilan YaMM deflatori o'rtasidagi farqlar:

- YaMM deflatori barcha ishlab chiqarilgan tovarlarning narxi o'zgarishini ko'rsatsa, INI esa faqatgina iste'mol savati narxi o'zgarishini hisoblaydi.

- Deflatorda faqatgina shu mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar hisobga olinadi (import qilingan tovar iste'mol savatiga kirsam, u faqat INI da hisobga olinadi).

- INI hisoblanganda iste'mol savati hajmi o'zgarmas deb hisoblanadi. Deflatorda hisoblanadigan tovarlar soni va turlari har xil bo'ladi.

$$| \text{YaMM deflatori} = \frac{(Q_1^{05} \times P_1^{05}) + (Q_2^{05} \times P_2^{05}) + \dots}{(Q_1^{05} \times P_1^{00}) + (Q_2^{05} \times P_2^{00}) + \dots}$$

$$\frac{\dots + (Q_n^{05} \times P_n^{05})}{\dots + (Q_n^{05} \times P_n^{00})}$$

$$| \text{INI} = \frac{(Q_1^{\text{cons}} \times P_1^{05}) + (Q_2^{\text{cons}} \times P_2^{05}) + \dots}{(Q_1^{\text{cons}} \times P_1^{04}) + (Q_2^{\text{cons}} \times P_2^{04}) + \dots}$$

$$\frac{\dots + (Q_{19}^{\text{cons}} \times P_{19}^{05})}{\dots + (Q_{19}^{\text{cons}} \times P_{19}^{04})}$$

O'zgarmas tovarlar yig'indisi uchun hisoblanadigan indeks (INI) Laspeyres indeksi deyiladi.

O'zgaruvchan tovarlar yig'indisi uchun hisoblanadigan indeks (YaMM deflatori) Paashe indeksi deyiladi.

2) Resurs hisoblangan mehnatdan qanchalik samarali foydalanish iqtisodiyotning rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Ish kuchi – bu band bo'lgan aholining va ishsizlarning yig'indisi.

| **Ish kuchi = ish bilan bandlar + ishsizlar**

| **Ishsizlik darajasi = $\frac{\text{ishsizlar}}{\text{ish kuchining umumiy hajmi}}$**

Ishsizlik darajasi bilan real YaMM orasida teskari bog'liqlik bor. Ya'ni: ishsizlik darajasining o'sishi real YaMM ishlab chiqarishning pasayishiga olib keladi. Bu qonuniyat Ouken qonuni deb nom olgan.

2.4. IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH JARAYONIDA BALANS HISOB-KITOBLARINING ROLI

Balans – bu ikki qismdan iborat bo'lgan iqtisodiy hisob-kitobdir.

Birinchi bo'limda – resurslarni tashkil topish manbalari, ikkinchisida ulardan foydalanish yo'nalishlari ko'rsatiladi. Ikki bo'limning bir-biriga tengligi resurslar va ular iste'moli munosibligini bildiradi. Resurslarning xususiyatiga ko'ra balanslar quyidagilarga ajratiladi:

- moddiy balanslar, ular har bir aniq mahsulot yoki mahsulotlar turi bo'yicha natural va qiymat ifodasida ishlab chiqiladi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari, asosiy fondlar, ishlab chiqarish quvvatlari balanslari);
- mehnat balanslari, qaysiki ularda mavjud mehnat resurslari va ularning taqsimlanishi hisobga olinadi (ishchi kuchlari balansi, yoshlar balansi, malakali xodimlar balansi va boshqalar);
- moliyaviy balanslar, ular yordamida davlatning, aholining, korxonalarining daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tenglik ta'minlanadi (davlat budjeti, aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi, to'lov balansi, korxonalarining moliyaviy rejalari va boshqalar).

Balanslar yana hisobot va reja balanslariga ajratiladi. Hisobot balanslaridan iqtisodiy faoliyatni tahlil qilishda va iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilishda foydalaniladi. Reja balanslari iqtisodiyotdagi kutilayotgan bog'liqlikni aks ettiradi.

Moddiy, mehnat va moliyaviy balanslarning tashkil topish manbalari va taqsimlanish yo'nalishlari turlicha bo'lganligi sababli ularning balanslari ham o'zining mazmuni bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Masalan, moddiy resurslar tashkil topishining asosiy manbalari ishlab chiqarish va import bo'lsa, moliyaviy resurslarning manbalari xo'jalik faoliyati natijasidir, mehnat resurslarining mavjudligi esa aholining soni va tarkibi bilan belgilanadi. Ular, shuningdek, turlicha taqsimlanadilar: moddiy mahsulotlar – aholiga va ishlab

chiqarishda kelgusida foydalanish uchun, mehnat resurslari – xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha, moliyaviy resurslar esa – xarajatlarning turli moddalari bo'yicha.

Balanslar yordamida xalq xo'jaligi tarmoqlari, turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatlari hamda moddiy va moliyaviy oqimlar harakati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'minlanadi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarini aks ettiruvchi XXB va MSTning barcha jadvallari balans shaklida tuzilgan. Balanslarning ahamiyati, markazlashgan rejali tizimda, ayniqsa, yuqori bo'lgan. Chunki barcha resurslar rejalar orqali davlat tomonidan hisobga olinardi va taqsimlanardi.

Aralash iqtisodiyotda moddiy balanslar o'z ahamiyatini yo'qotadi, chunki mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning iste'moli o'rtasidagi mutanosiblik bozor yordamida ta'minlanadi. Moliyaviy balanslarning ahamiyati esa aksincha kuchayadi. Ular nafaqat alohida korxonalarining daromad va xarajatlarini, balki hukumatning butun daromadlari va xarajatlarini hisobga olish, nazorat qilish va oldindan belgilashning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Ular yordamida iqtisodiyotdagi pul massasi tartibga solinadi.

O'tish davrining xususiyati shundan iboratki, bu davrda iqtisodiyotni markazlashgan holda tartibga solishning ayrim tayanchlari saqlanib qoladi va bozor usullari jadal rivojlanadi. Xususan, ayrim o'ta muhim mahsulotlarga davlat xaridlarining aniqlanishi moddiy balanslar tuzishni taqozo etadi. Bu balanslarda, bir tomondan, davlatning ma'lum bir mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlari, ikkinchi tomondan, barcha davlat resurslari hisobga olinadi.

Aholining ish bilan bandligi sohasida yuzaga kelgan murakkab holat vaziyatni doimiy nazorat qilishni amalga oshirishga yordam beruvchi ishchi kuchi balanslarini tuzish zarurligini belgilab beradi.

2.5. XALQ XO'JALIGI BALANSINING (XXB) UMUMIY TAVSIFI

Xalq xo'jaligi balansi – bu jadvallar tizimi bo'lib, unda milliy iqtisodiyotning rivojlanish ko'rsatkichlari, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning hajmi va o'sish sur'atlari, jamg'arish va iste'mol fondlari, ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, aholining pul daromadlari va ularning mahsulotlar bilan ta'minlanishi va hokazolar o'rtasidagi asosiy nisbatlar o'rin olgan. Makroiqtisodiy tahlil uchun asos hisoblanuvchi hisobot XXB va kelajakda mamlakat xalq xo'jaligining rivojlanish strategiyasini belgilovchi reja XXB bir-biridan farqlanadi.

Xalq xo'jalik balansining yig'ma balans jadvallari ko'rinishidagi bo'limlari ijtimoiy mahsulot harakati jarayonlarini: uning ishlab chiqarilishi, taqsimlanishi va iste'molini aks ettiradi. Takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy qatnashuvchilari yoki *iqtisodiy agentlari* bo'lib moddiy ishlab chiqarish, nomoddiy ishlab chiqarish va aholi hisoblanadi.

XXBning birinchi bo'limi – bu ijtimoiy mahsulot balansi bo'lib, unda tovarlar ishlab chiqarishga ketgan xarajatlari (**C+V+T**) va ularning iste'moli (qoplash fondi, iste'mol fondi, jamg'arish fondi) aks ettirilgan. Bu balans takror ishlab chiqarishning moddiy buyumlashgan jihatlarini ifodalaydi hamda ishlab chiqarish va iste'mol narxlarida tuziladi. Uning to'ldiruvchisi bo'lib: xalq xo'jaligida mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va foydalanish tarmoqlararo balansi, shuningdek, moddiy balanslar hamda taqsimot rejalari xizmat qiladi.

XXBning ikkinchi bo'limi milliy daromad balansidir. Unda milliy daromadning yaratilishi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, aholi o'rtasida taqsimlanish va qayta taqsimlanish jarayoni aks ettirilgan. U takror ishlab chiqarishning moliyaviy qiymat jihatlarini ifodalaydi va moliyaviy reja hisoblanadi. Uning to'ldiruvchisi bo'lib davlat daromadlari va xarajatlari balansi (davlat budjeti),

aholining pul daromadlari va xarajatlari balansi, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari korxonalari o'zaro munosabatlarining hisob-kitob balansi hisoblanadi.

XXBning uchinchi bo'limi – asosiy fondlar balansi bo'lib, unda asosiy fondlarning holati, taqsimlanishi va dinamikasi aks ettiriladi. Shu balansga qo'shimcha jadvallar bo'lib kapital qo'yilmalar va jamg'armalar balansi, asosiy vositalarning ayrim jihatlarini elementlarini ifodalovchi moddiy balanslar hisoblanadi.

XXBning to'rtinchi bo'limi mehnat resurslarining yig'ma balansidir. Bu balansda mamlakat bo'yicha mehnat resurslarining qancha mavjudligi va taqsimlanishi o'z ifodasini topgan. Mahsulot va ishlab chiqarish omillari harakatining barcha bosqichlari natijasini ifodalovchi va ular o'rtasida bog'liqlik o'rnatuvchi yig'ma jadvalni ham o'z ichiga oladi.

Umummilliy darajada moddiy va moliyaviy oqimlarning harakatini hisobga oluvchi birinchi balans jadvallari F.Kene, U.Petti, A.Kinglar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, amaliyotda ular ilk bor Sobiq Sovet Ittifoqida qo'llanila boshlandi. Jumladan, 1925-yilda 1923 – 1924-yillarning hisobot balansi nashr qilingan, 1939-yildan boshlab esa mamlakatning rejalashtirish tashkiloti bo'lgan Sobiq Sovet Ittifoqi Davlat plan qo'mitasi doimiy ravishda xalq xo'jaligi reja balansi ishlab chiqishni yo'lga qo'ydi, lekin rejalashtirishning bu hujjatida bir qator kamchiliklar borligi sababli o'zining asosiy vazifasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanish strategiyasini aniqlash va ayrim tarmoqlar, ishlab chiqarishlar, hududlar (mintaqalarning) faoliyatlariga ta'sir etish kabi vazifalarni to'la amalga oshira olmadi.

Shu bilan bir vaqtda, hisobga olish va milliy iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida balans jadvallarini tuzish va undan foydalanish g'oyasi xorijiy mamlakatlarda rivojlandi. Bu g'oya amaliyotda xalq xo'jaligi balansiga qaraganda boshqa shaklda – milliy schotlar tizimida amalga oshirildi.

2.6. XALQ XO'JALIGI BALANSINING ASOSIY KAMCHILIKLARI

XXBning asosiy kamchiligi shundan iboratki, u makroiqtisodiy tahlil va rejalashtirishning asosiy quroli sifatida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni yetarli darajada to'liq aks ettira olmadi. Birinchidan, u takror ishlab chiqarish jarayonining o'zini emas, balki faqat iqtisodiyotning rivojlanish natijalarini ifodalaydi. Ikkinchidan, XXB takror ishlab chiqarishning faqat muhimroq bosqichlarinigina: ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni qamrab oladi. Vaholanki, unda resurslar ko'rsatkichlarining ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liqligi, mahsulotlar taqsimoti ko'rsatkichlarining ijtimoiy mehnat unumdorligi bilan bog'liqligi o'z ifodasini topmagan. Uchinchidan, XXBning ayrim ko'rsatkichlari turli o'lchamlarda berilishi sababli ularni bir-birlari bilan taqqoslashning iloji bo'lmaydi. Masalan, XXBda bir jadvallar natural ko'rsatkichlarda, boshqalari qiymat ko'rsatkichlarida, ba'zi jadvallar solishtirma narxlarda, boshqalari joriy narxlarda beriladi.

Shuning uchun ham, XXB uzluksiz takomillashtirilib, yangi balans jadvallari bilan to'ldirib borilgan. Lekin bu to'ldirishlar makroiqtisodiy tahlil va tartibga solishning eng muhim quroli samaradorligini sezilarli ko'tara olmagan, chunki XXBni tuzishga kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning markscha nazariyasi asos qilib olingan edi. Bu nazariyaning ko'p qoidalari iqtisodiyotning o'zgaruvchan sharoitlariga muvofiq kelmasdi. Bozor munosabatlariga o'tish bilan ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasi, unda qatnashuvchilarning tarkibi va vazifalari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tubdan o'zgardi. Bu esa mamlakatimizdagi iqtisodiy voqelikni real aks ettiruvchi yangi iqtisodiy modelni shakllantirishni talab etdi. Shunday model bo'lib milliy schotlar tizimi xizmat qiladi va unga o'tish respublikamizda ishlab chiqilgan davlat dasturi asosida amalga oshirilmoqda.

2.7. MILLIY SCHOTLAR TIZIMINING (MST) ASOSIY MOHIYATI

G'arb mamlakatlari iqtisodiy statistikasida makroiqtisodiy tartibga solish nazariyasi va amaliyotida *milliy schotlar tizimi* (MST) keng qo'llaniladi. U o'zida ijtimoiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi balans jadvallari to'plamini mujassamlashtiradi. Ularda *milliy iqtisodiyotning rivojlanish natijalarini* aks ettiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanibgina qolmay, shu natijalarga olib kelgan jarayonlar ham tahlil qilinadi. Shuning uchun MSTni jarayonlar yoki oqimlar statistikasi deb ham ataydilar. Bu yerda iqtisodiy voqelik ishlab chiqarish, taqsimot va iste'molning moliyaviy qiymat ko'rsatkichlari harakatlari sifatida aks ettirilgan. MST o'zida xalq xo'jaligining modelini mujassamlashtirib, mohiyatiga ko'ra uch iqtisodiy mezonning muvofiqlashuvi hisoblanadi, ya'ni iqtisodiy vazifalarning, iqtisodiy agentlarning va iqtisodiy operatsiyalarning.

1. Iqtisodiy vazifa deganda, ishlab chiqarish, taqsimot, qayta taqsimlash, iste'mol va jamg'arishning makroiqtisodiy jarayonlari tushuniladi;

2. Iqtisodiy agentlar – iqtisodiy funksiyalarni bajaruvchilar hisoblanadilar (nomoliyaviy korporatsiyalar, moliya muassasalari, hukumat idoralari xususiy notijorat muassasalari, uy xo'jaligi va chet el);

3. Iqtisodiy operatsiyalar yordamida iqtisodiy agentlar xalq xo'jaligi jarayonlariga qo'shiladi. Masalan, oldi-sotdi, bir ne'matni boshqasiga almashtirish, moliyaviy qiymatlarni ayirboshlash va shu kabilar.

MSTda butun xalq xo'jaligi biror bir korxonaning katta-lashtirilgan shakli sifatida ko'rib chiqiladi. Shuning uchun bu yerda buxgalteriya kabi har bir ko'rsatkichni ikki tomonlama yozish qoidasi qo'llaniladi. Bu esa qo'shib yozish ehtimolini kamaytirib, tovarlar, xizmatlar va moliyaviy resurslar oqimlarini to'laroq hisobga olish imkonini beradi.

MST amalda deyarli barcha bozor iqtisodi mamlakatlari qo'llaniladi. Hammadan oldin MST Kanadada, Shvetsiyada, Angliyada (1971-yildan) va eng keyingilaridan biri Yaponiyada (1978-yildan) qo'llanildi. Hozirgi vaqtga kelib jahonning 150 mamlakati har yili, shu jumladan, AQSh va Yaponiya har chorakda MST ma'lumotlarini nashr qiladi. Eslatish lozimki, har bir mamlakat o'z milliy schotlar tizimidan foydalanadi. Biroq jahon ayirboshlashuvining rivojlanishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kengayishi bilan mamlakatlararo taqqoslash zarurati tug'ildi. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistika komissiyasi rivojlangan mamlakatlar tajribasini umumlashtirib, 1953-yilda birinchi *standart MSTni* ishlab chiqdi va u xalqaro iqtisodiy axborotlarni ixchamlashtirish maqsadlarida foydalanish uchun tavsiya etildi. 1993-yilda uning yangi kengaytirilgan nusxasi ma'qullandi. Bu nusxada tan olingan va keng tarqalgan pul nazariyasi, iqtisodiy o'sish, xalq farovonligi, ekologiya sohasidagi mutaxassis-larning ilmiy ishlanmalari hisobga olingan edi.

BMTning uslubiyatidan foydalanib, Sobiq Sovet Ittifoqining statistika tashkilotlari ilk bor 1987-yilda YaMM hisoblab chiqdilar. O'zbekistonda esa bu hisobot ko'rsatkich 1989 yilda hisoblab chiqildi.

"MST nima uchun kerak?" degan savolga shunday javob berish mumkin: birinchidan davlat boshqaruvi tashkilotlariga qarorlar qabul qilish uchun, ikkinchidan, tadbirkorlarga o'z faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida makroiqtisodiy vaziyatni baholash uchun, uchinchidan, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda aloqalarni o'rnatish va taqqoslashni amalga oshirish uchun zarurdir.

MST schotlari tarkibi

Tovarlar va xizmatlar schoti.

Bu schotda mamlakat iqtisodida yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar resurslari hajmi va ularning

ishlatilishi yo'nalishlarini xarakterlovchi operatsiyalar aks ettiriladi.

1. Ishlab chiqarish schoti.

Bu schot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayonni ifodalovchi ko'rsatkichlar (yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol, qo'shilgan qiymat)ning hosil bo'lishini ifodalaydi.

2. Daromadlarning hosil bo'lish schoti.

Bu schot ishlab chiqarishda band bo'lgan institutsional birliklarning birlamchi daromadlarining hosil bo'lish jarayonini ifodalaydi.

3. Birlamchi daromadlar taqsimoti schoti.

Bu schotda rezident institutsional birliklarning ishlab chiqarishdan va mulkdan olgan birlamchi daromadlarining sektorlar o'rtasidagi taqsimoti ifodalanadi.

4. Daromadlarning ikkilamchi taqsimoti schoti.

Bu schotda mamlakatga yil davomida tushgan tushumlar va joriy transfertlar natijasida mavjud bo'lgan daromadning hosil bo'lish jarayoni aks ettiriladi.

5. Daromadlarning ishlatilishi schoti.

Bu schotda mavjud daromadlarni pirovard iste'mol va jamg'arishga taqsimlash operatsiyalari aks ettiriladi.

6. Kapital sarflar schoti.

Bu schotda rezident institutsional birliklarning yil davomida sotib olgan nomoliyaviy aktivlari va mavjud asosiy fondlarni jamg'arish va transfertlar hisobiga o'zgarishi jarayonlari aks ettiriladi.

7. Moliya schoti.

Bu schotda sektorlar o'rtasidagi moliya-kredit munosabatlarini o'zgarishi aks ettiriladi.

8. Tashqi dunyo sektori schotlari.

- joriy operatsiyalar schoti;
- kapital sarflar schoti;
- moliya schoti.

Bu sektor schotlarida norezidentlarning rezidentlar bilan bo'lgan operatsiyalari holati aks ettiriladi.

2.8. MST VA XXB O'RTASIDAGI ASOSIY FARQLAR

Jahonning ko'pchilik mamlakatlarida MST makroiqtisodiy tahlil, davlat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish uchun asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida esa XXB sobiq sotsialistik mamlakatlarda o'n yilliklar mobaynida xalq xo'jaligini tahlil qilish va rejalashtirishning asosiy quroli va usuli hisoblangan. Shu bilan birga, MST va XXB maqsadlarining umumiyligiga qaramasdan, tuzilish qoidalari, foydalanish xususiyatlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ularni ishlab chiqish asosiga iqtisodiy mezonlar va ular o'rtasidagi bog'liqlikni har xil ma'noda ta'riflovchi turli iqtisodiy nazariyalar qo'yilgan. Masalan, «ijtimoiy ishlab chiqarish», «qiymat», «narx» va boshqa mezonlar. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning markscha nazariyasiga muvofiq XXBda milliy boylik va yalpi mahsulot harakati moddiy ishlab chiqarish korxonalari, nomoddiy ishlab chiqarish korxonalari va aholi o'rtasidagi harakat sifatida aks ettiriladi hamda ular bu tizimda iqtisodiy agentlar deb sanaladi. MSTda iqtisodiy agentlar, firmalar, uy xo'jaliklari va hukumat ko'rinishida namoyish etilgan. XXBni va MSTni tuzishda bir-biridan farq qiluvchi *makroiqtisodiy ko'rsatkichlar* olinadi: XXBda – yalpi ijtimoiy mahsulot, milliy daromad, oraliq mahsulot, yakuniy mahsulot va boshqalar; MSTda – yalpi mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va boshqalar.

XXB va MSTning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini solishtirganda, birinchi hujjatdagi «Milliy daromad», ikkinchi hujjatdagi «Yalpi milliy mahsulot» ko'rsatkichlari o'zlarining iqtisodiy mazmuniga ko'ra bir-biriga yaqinroq ekanligini payqash mumkin. Lekin ular o'rtasidagi farq shundan iboratki, XXB tizimida hisoblangan milliy daromaddan farqli ravishda MSTda o'lchanadigan YaMM ko'rsatkichi o'z ichi-

ga moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining sof mahsulotidan tashqari xizmat ko'rsatish tarmoqlarining daromadlarini va barcha asosiy fondlarning amortizatsiyasini ham oladi, ya'ni YaMM ko'rsatkichi milliy iqtisodiyotning ishlashi natijalariga kengroq baho beradi.

Undan tashqari XXB va MST ularni qo'llash xususiyatlariga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi. Direktiv rejalashtirish sharoitida davlat barcha darajalardan – korxonalaridan tortib butun xalq xo'jaligigacha moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari harakatini boshqarish huquqiga va imkoniga ega bo'lgan. Shuning uchun sotsialistik mamlakatlarda nafaqat hisobot, balki reja XXBsi ham tuzilgan. Bu shuni bildiradiki, reja davriga muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning o'sish sur'atlari, ularning taqsimlanishi va iste'mol qilinishi, kapital qo'yilmalar hajmi, ishlovchilar soni, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi va boshqalar qat'iy ravishda belgilab berilgan edi. Bu ko'rsatkichlar davlat rejasining yig'ma bo'limini tashkil etgan. MST esa asosan axborot manbai va makroiqtisodiy tahlil quroli sifatida foydalaniladi va uning natijalariga ko'ra davlatning iqtisodiy siyosati ishlab chiqiladi. MSTning ayrim muhim jadvallari (davlatning daromadlari va xarajatlari hisobi va boshqalar) iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda keng qo'llaniladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan farqlar MSTga o'tish jarayonini qiyinlashtiradi va uning asosiy muammolarini aniqlab beradi. Bu muammolar nimadan iborat? Birinchidan, MST bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyotning rivojlanishi mahsuli sifatida paydo bo'ldi va uni mamlakatimizda tadbiq qilish bozor munosabatlarining yetarli darajada shakllanishini talab qiladi. Ikkinchidan, MSTga o'tish makrodarajadagi statistikaning uslubiyatini tubdan o'zgartirishni

taqozo etadi. Bunga esa korxonalar hisobot va statistika tizimini mos ravishda o'zgartirmasdan turib erishish mumkin emas. Uchinchidan, MSTni tadbqiq etish va uning amal qilishi avvalo mutaxassis xodimlarni tayyorlashga hamda moddiy texnika resurslarga bo'lgan katta xarajatlar bilan bog'liq.

XXB va MSTlar o'rtasidagi asosiy farqlar

XXB	MST
1. Ishlab chiqarish	
Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish	Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish
2. Ishlab chiqarishni o'lchash	
Sotish baholarida va xarajat miqdorida	Bozor baholarida
3. Daromad hosil bo'lishi konsepsiyasi	
Asosan moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida	Har qanday iqtisodiy faoliyat natijasida
4. Daromad miqdorini o'lchash	
Mahsulotni realizatsiya qilingan baholarida	Tovar va xizmat ishlab chiqilgan vaqtidagi baholarda
5. Ishlab chiqarishni tarmoqlarga klassifikatsiyalash	
Xalq xo'jaligi tarmoq klassifikatsiyasi	Xalqaro tarmoq klassifikatsiyasi
6. Mamlakat iqtisodini sektorlarga ajratish	
Ilova 1	Ilova 2
7. Iqtisodiy tahlil usullari	
Plan ko'rsatkichlarga taqqoslash	Iqtisodiy o'sish (pasayish) sabablarini qidirish
8. Schotlar va ko'rsatkichlar tarkibi	
Balans tablitsalari	Bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan schotlar
9. Axborot manbasidan foydalanuvchilar	
Davlat boshqaruv tashkilotlari Iqtisodchi olimlar Xalqaro tashkilotlar Aholi	Davlat boshqaruv tashkilotlari Ishbilarmonlar Chet el sarmoyadorlari Iqtisodchi olimlar Xalqaro tashkilotlar Aholi
10. Axborot yig'ish usuli	
Yalpi kuzatuv	Tanlab kuzatish

XXB institutsion birliklar klassifikatsiyasi

I. SOTSIALISTIK SEKTOR:

1. Davlat sektori:
 - 1.1. Xo'jalik hisobidagi korxonalar.
 - 1.2. Moliya korxonalari.
 - 1.3. Budget tashkilotlari.
2. Kooperativlar;
3. Jamoat tashkilotlari;
4. Ishchi-xizmatchilarning yordamchi xo'jaligi;
5. Kooperativ a'zolarining yordamchi xo'jaligi.

II. XUSUSIY SEKTOR.

MST institutsion birliklar klassifikatsiyasi

Sektorlar	Iqtisodiy faoliyat	
	vazifasi	resurslari
1.Nomoliya korxonalari 1.1.Davlat sektori 1.2.Xususiy sektor 1.3.Chet el firmalari	Tovar ishlab chiqarish va nomoliyaviy xizmatlar ko'rsatish	Tovar va xizmatni sotishdan tushgan tushumlar
2.Moliya tashkilotlari 2.1.Markaziy bank 2.2.Boshqa pul korporatsiyalari 2.3.Yordamchi moliya tashkilotlari 2.4.Sug'urta va nafaqa fondlari	Moliya resurslarini yig'ish, o'tkazish va taqsimlash. Sug'urta va nafaqa fondlarini tashkil etish	Moliya operatsiyalaridan olingan foizlar, foydalar. Sug'urta va nafaqa vznoslari
3.Davlat boshqaruv idoralari 3.1.Markaziy hukumat idoralari 3.2.Mahalliy hokimiyat idoralari 3.3.Sotsial ta'minot fondlari	Aholi guruhlariga, uy xo'jaligiga, nobozor xizmatlar ko'rsatish, milliy daromad va boylikni taqsimlash va qayta taqsimlash	Bevosita yoki bilvosita olingan majburiy soliqlar.

Sektorlar	Iqtisodiy faoliyat	
	vazifasi	resurslari
4.Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Uy xo'jaligiga, aholi guruhlariga nobozor xizmatlar ko'rsatish	Ixtiyoriy to'lovlar, vzon-slar, mulkdan olingan daromadlar.
5.Uy xo'jaliklari 5.1.Ish beruvchilar 5.2.O'zi uchun ishlovchilar 5.3.Yollangan ishchi-xizmatchilar 5.4.Xususiy mulkdan daromad oluvchilar	Tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish, tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish	Ish haqi, mulkdan olingan daromadlar, transferlar, tovar va xizmatlar sotish-dan tushgan tushumlar
6. Tashqi dunyo	Bu sektorga rezidentlar bilan iqtisodiy aloqada bo'luvchi norezident birliklar kiradi	

NAZORAT SAVOLLARI

1. *YaMM ko'rsatkichi qanday ko'rsatkich va u nega makroiqtisodiyotda o'rganiladi?*
2. *YaMMni qanday hisoblash usullari mavjud?*
3. *Makroiqtisodiyotda YaMMdan kelib chiqadigan boshqa qanday ko'rsatkichlar mavjud?*
4. *YaMM deflatori qanday hisoblanadi?*
5. *INI qanday ko'rsatkich? YaMM deflatori va INI o'rtasidagi bog'liqlik qanday?*
6. *Xalq xo'jaligi balansiga (XXB) umumiy tavsif bering.*
7. *Xalq xo'jaligi balansining qanday asosiy kamchiliklari mavjud?*
8. *Milliy schotlar tizimining (MST) asosiy mohiyati.*
9. *MST va XXB o'rtasida qanday asosiy farqlar mavjud?*

III BOB. BOZOR IQTISODIYOTINING DAVRIY RIVOJLANISHI. ISHSIZLIK

- 3.1. *IQTISODIY O'SISH TUSHUNCHASI VA UNING O'LCHANISHI.*
- 3.2. *IQTISODIY DAVRLARNING XUSUSIYATI VA KO'PINISHI.*
- 3.3. *MEHNAT BOZORI VA UNDAGI RAQOBAT.*
- 3.4. *ISHSIZLIK VA UNING KELIB CHIQISHI.*
- 3.5. *OUKEN QONUNI.*
- 3.6. *O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORINI TASHKIL ETISH VA TARTIBGA SOLISH.*

3.1. IQTISODIY O'SISH TUSHUNCHASI VA UNING O'LCHANISHI

Jamiyat taraqqiyotini ifodalovchi asosiy mezonlardan biri *iqtisodiy o'sishdir*. Bu obyektiv qonuniyat bo'lib, aholi o'sishi va fan-texnika jarayonlari bilan bog'langan. U milliy iqtisodiyot rivojlanishi harakatini ko'rsatadi va shu sababli vaqtning ma'lum davrlariga (chorak, yil va undan uzoq vaqtga) makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni (YaIM, YaMM, SMM) taqqoslash yo'li bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sish ikki usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

Birinchi usul real YaIM ni (YaMM, SMM) o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari harakatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ikkinchi usul real YaIM ni (YaMM, SMM) o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakat ijtimoiy rivojlanish darajasini va harakatining sifat o'zgarishlarini ifodalash uchun foydalaniladi.

Iqtisodiy o'sishning aholi jon boshiga hisoblash ko'rsatkichlari makroiqtisodiy tahlil qilish va istiqbolni belgilash, xalqaro taqqoslashda ko'proq ishlatiladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va qo'shimcha o'sish sur'atlari bir-biridan farqlanadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari quyidagicha aniqlanadi:

$$a) \text{ bazis o'sish sur'ati} = \frac{Y_i}{Y_0}$$

$$b) \text{ zanjirli o'sish sur'ati} = \frac{Y_i}{Y_{i-1}}$$

Qo'shimcha o'sish sur'atlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$a) \text{ bazis qo'shimcha o'sish sur'ati} = \frac{Y_i - Y_0}{Y_0}$$

$$b) \text{ zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati} = \frac{Y_i - Y_{i-1}}{Y_{i-1}}$$

Bunda, Y_0 – bazis yildagi real YaIM;

Y_i – shu yildagi real YaIM;

Y_{i-1} – bundan avvalgi yildagi real YaIM.

3.2. IQTISODIY DAVRLARNING XUSUSIYATI VA KO'RINISHI

Iqtisodiy taraqqiyot doimiy tebranishlarga uchrab tura-di: pasayish, tanglilik davrlari iqtisodiy faollik va ko'tarilish bilan almashadi. Iqtisodiy o'sishning davriylik xususiyati fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq. Shu tufayli asosiy fondlarning sakrash yo'li bilan yangilanishi yuz beradi, yangi texnologik jarayonlar tadbiq etiladi, milliy daromad, iste'mol, jamg'arish va investitsiyalar o'rtasida o'zaro bog'liqlik o'zgaradi. Iqtisodiy o'sish holatida ishlab chiqarish real hajmining vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan bunday kengayishi yoki qisqarishi iqtisodiy davr deb ataladi. Iqtisodiy davrlar davom etish muddatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- qisqa (3 – 4 yil) muddatli, tovar-moddiy zaxiralarning o'zgarishi bilan asoslangan;
- o'rta (7 – 8 yil) muddatli, asosiy fondlar asbob-uskunalarni almashtirishi sifatidagi o'zgarishlardan kelib chiqadi;

- Kuznes davri (15 – 20 yil), qurilish davr nazariyasining asoschisi, Amerika iqtisodchisi Saymon Kuznes nomi bilan atalgan. Bu davrlar turar joylarning va ba'zi ishlab chiqarish inshootlarining vaqti-vaqti bilan ommaviy ravishda yangilanishi bilan bog'liq bo'lgan tebranishlardir;

- uzun to'lqinlar (50 – 60 yil), infrastrukturaning yangilanishi va tubdan yangi texnologik jarayonlarni kiritish bilan asoslanadi va rus tadqiqotchisi N.Kondratyev nomi bilan nomlanadi.

Iqtisodiy davrni o'rganish davlat tomonidan davriylikka qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarurdir.


3.3. MEHNAT BOZORI VA UNDAGI RAQOBAT

Mehnat bozorida ham talab va taklif qonuni amal qiladi. Mehnat bozorida raqobat sharoitida ishchi kuchi oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Bunda o'ziga xos muvozanat narx o'rnatiladi. Mehnat bozoridagi talab va taklif qonuni va uning mohiyatini anglashdan oldin ishchi kuchining ish bilan bandligi konsepsiyasini bilishimiz lozim.

Ish bilan bandlikning klassik nazariyasini yoritishni hozirgi mehnat bozoridagi raqobat sharoitida «talab va taklif» ning umumbashariy funksiyasidan boshlaymiz.

Hozirgi raqobat sharoitida ishbilarmonlar ishchi kuchi-dan shunday miqdorda foydalanadilarki, bunda mehnatning yuqori mahsuli real ish haqi bilan teng bo'lishi yoki ish haqi hajmining puldagi ifodasi mehnatning yuqori mahsuli qiymatiga teng bo'lishi kerak. Agar real ish haqi hajmi oshsa, ishbilarmon ishchi kuchiga bo'lgan talabini qisqartiradi; agar real ish haqi hajmi kamaysa, ishchi kuchiga bo'lgan talab ortadi. Bu yerda ishbilarmon shu yo'l bilan daromadining kamayishini muvozanatlashtiradi.

Makroko'lamdagi talab va taklif nazariyasi asosida mehnatga bo'lgan talabning egri chizig'i quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (3.1 chizma).



L – talab qilinadigan mehnatning miqdori;


$\frac{W}{P}$ – real ish haqi miqdori;

L_d – mehnatga bo'lgan talabning egri chizig'i.

3.1-chizma. Mehnat bozoridagi talab egri chizig'i

Grafikdan ko'rinib turibdiki, egri chiziqning salbiy tomonga og'ish tendensiyasi mavjud. Real ish haqini qisqartirish natijasida mehnatga bo'lgan talab oshmoqda va aksincha, real ish haqi oshsa, mehnatga bo'lgan talab kamayadi.


Endi mehnatning taklif funksiyasiga kelsak, bu yerda individ o'zining samarali xizmatini taklif qiladi. Individ o'z xizmatini ish haqining puldagi ifodasidan kelib chiqib emas, balki ish haqining o'lchovlaridan kelib chiqib taklif qiladi. Buni yaqqolroq ko'rish uchun grafikdan foydalanamiz (3.2-chizma).



L_s – mehnat taklifining chizig'i.

3.2-chizma. Mehnat bozoridagi taklif chizig'i

Bu yerda taklif egri chizig'ining og'ishi qonuniy tendensiyadir. Ko'rinib turibdiki, agar real ish haqi katta bo'lsa, unga mos ravishda mehnatning taklifi ham yuqoridir; agar kichik bo'lsa, pastroq bo'ladi. Talab va taklif egri chiziqlarini umumlashtirib grafikda ifodalasak quyidagi grafik kelib chiqadi (3.3-chizma).



3.3-chizma. Mehnat bozoridagi talab va taklif egri chizig'i va ularning muvozanati

Grafikdan ko'rinib turibdiki, $(\frac{W}{P})E$ ga teng bo'lgan ish

haqi doirasida mehnat bozorida muvozanat vujudga keladi. Buning ma'nosi shuki, agar ish haqining shu darajasida kim ish izlayotgan bo'lsa, u ish bilan ta'minlanadi, ikkinchi tomondan, hamma ish beruvchilar o'zlariga kerak bo'lgan ishchi kuchi miqdorini topish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ma'lum vaqtdagi muvozanat nuqta (**E**) to'la ish bilan bandlilik holati deb ataladi, chunki bu holatda o'zlariga ish izlab topolmaganlar bo'lmaydi, ya'ni hammaning ish bilan ta'minlanishi mumkin bo'ladi.

Real ish haqining boshqacha qiymatida mehnat bozorida muvozanatni o'rnatib bo'lmaydi.

Aniqroq qilib aytganda:

1) agar ish haqi muvozanat holatidan yuqori bo'lsa,

masalan: $(\frac{W}{P})'$ nuqtada mehnatning taklifi (**B'**) **A'** - kattalikdagi talabdan oshib ketadi, ya'ni $L_1' > L_2'$;

2) agar ish haqi muvozanat nuqtasidan past bo'lsa,

masalan: $(\frac{W}{P})''$ nuqtada mehnatga bo'lgan talab (**B''**) **A''**

- kattalikdagi taklifdan oshib ketadi: $L_1'' > L_2''$.

Birinchi holatda (1) ishsizlik vujudga keladi, ikkinchi (2) holatda esa ish joylari bo'shab qoladi. Ish bilan bandlilik klassik nazariyasining asosiy tezisi shundan iboratki, hozirgi raqobat sharoitida bu ikki holat (1), (2) barqaror bo'la olmaydi. Bozor kuchlari har doim mehnat bozori-dagi "talab" va "taklif" orasidagi munosabat muvozanatini o'rnatish yo'nalishiga va ishchi kuchining to'la bandliligiga erishishga harakat qiladi.

Amal qilayotgan mehnat bozori (talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblik yutuqlari) juda ko'p omillarga

bog'liqdir. Bu omillar ta'sirida mehnat resurslariga bo'lgan talab o'zgarib turadi.

Demak, bozor iqtisodiyotida talab va taklif qonuni amal qilar ekan, bu o'zining ta'sirini, jumladan, mehnat bozorida ham ko'rsatadi. Lekin makroiqtisodiyotda mehnat bozori «sof» holda o'rganilmaydi. U ishlab chiqarish, investitsiya, narx bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

3.4. ISHSIZLIK VA UNING KELIB CHIQISHI

Makroiqtisodiyotning asosiy maqsadlaridan biri aholi bandligini yuksak darajada ta'minlashdir. Ishchi kuchini, P.A.Samuelsonning ta'rificha, ish qidirmayotganlardan tashqari barcha ishlovchilar va ishlamoqchi bo'lganlar tashkil etadi. Yoki unga ish bilan band bo'lib turganlar ham, ishsizlar ham kiradi.

Aholining «to'la ish bilan bandligi» degan tushuncha bor. Lekin bunday natijaga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi, chunki 100% aholining ishlamoqchi bo'lgan qismini deyarli ish bilan band qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, ma'lum miqdorda aholining ishsiz bo'lishi iqtisodiy jihatdan normal hol va asoslidir.

Ishsizlik va uning turlari. Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

1. Ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchlari. Bu ishsizlik iqtisodchilar tilida *friksion ishsizlik* ham deyiladi.

Ma'lumki, mehnat bozorida doimo o'zgarishlar bo'lib turadi. Ba'zan ish joyi kamayadi va ba'zan ko'payishi mumkin. Buning sabablari ham ko'p. Masalan, mavsumiy ishlar, avtomobil korxonasidagi eski modelning yangisi bilan almashtirilishi va hokazo sabablarda friksion ishsizlar kelib chiqadi. Friksion ishsizlikning bo'lishi ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan zarurat va ma'lum darajada uning bo'lib

turishi obyektivdir. Friksion ishsizlik davrida ishchi kuchi «ikki xil mehnat oralig'ida» qoladi. Masalan, eski modeldagi avtomobilning konveyeridan olib tashlanishi oqibatida ishsiz bo'lib qolgan ishchi kuchi yangi malakali, daromadli ish joyiga intiladi va natijada, ishchi kuchi yangi ish joyida ko'p daromad yaratadi va haq oladi. Bu esa mehnat resurslarining tarmoqlar va hududlarda samarali taqsimlanishi va yalpi milliy mahsulotni ko'proq yaratish imkonini beradi.

Shunday qilib, insonga agar ikki xil mehnatdan birini tanlash imkoni, erkinligi berilsa, u albatta daromadli ishga o'tishini bilishimiz mumkin. Bunday hol ishsizlar orasida sodir bo'ladi.

2. *Strukturali ishsizlik*. Friksion ishsizlik bilan strukturali ishsizlikda ma'lum o'xshashliklar va farqli jihatlar mavjud. Asosiy farqi shundaki, friksion ishsizlarda ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalanib qisqa vaqtda ishchi kuchini sotish yoki ish topishi mumkin. Strukturali ishsizlikda ishchi kuchi darhol yoki qisqa muddatda ish topa olmaydi. U malakasini o'zgartirishi, qayta malaka oshirishi, kasb egallashi lozim.

Strukturali ishsizlik iste'mol bozori ma'lum mahsulot bilan to'ldirilganda va u mahsulotga ehtiyoj qolmagan taqdirda tashkil topadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, mahsulotga ehtiyoj bo'lmaganligi uchun shu mahsulotni ishlab chiqaruvchilar ham ishsiz qoladi. Yangidan yaratilgan mahsulotlarga talab ko'p bo'lganligi uchun yangi mutaxassisliklarga ko'p ehtiyoj paydo bo'ladi. Natijada yangi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga talab oshadi, eskilari ishsiz qoladi. Mehnat bozorida esa tezlik bilan o'zgartirish qilish qiyin masala bo'lganligi uchun strukturali siljishlarning o'zgarishidan strukturali ishsizlar paydo bo'ladi. Sanoatning joylashuvida (geografiyasida) bo'lgan o'zgarishlar ham strukturali ishsizlarni keltirib chiqaradi. Ma-

salan, AQShda shisha idishni puflovchi ishlarni bajaruvchi stanoklar yaratilishi bilan shu kasb ishchilari ishsiz bo'lib qolgan. Ular qaytadan jiddiy malaka oshirmay turib yangi ish joyi bilan ta'minlanishi mumkin bo'lmay qolgan. Yana bir misol, AQShda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash natijasida ko'plab ishchilar ishsizlarga aylangan. Ularning yangi ish joyi bilan ta'minlanishi yangi kasbni egallashni, malaka oshirishni talab etgan va ishsizlik ancha uzoq muddatga cho'zilgan.

3. Siklik ishsizlik. Siklik ishsizlik ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi va ishsizlarning paydo bo'lishidir. O'zbekistonda ishlab chiqarishning pasayishi (1992 va ayniqsa, 1993-yilda) siklik ishsizlikning ko'payishiga olib keldi.

Ishlab chiqarishning pasayishi, sobiq ittifoqda mavjud bo'lgan iqtisodiy aloqalarning keskin buzilishi, takomillashgan bozor strukturasi respublikada shu davrgacha yaratilmaganligi, xomashyoni qayta ishlash sanoatining past rivojlanganligi va shu kabi sabablar bilan bog'liq holda ishsizlar soni ko'paydi.

Rivojlangan mamlakatlarda bo'lib turadigan ishlab chiqarishning pasayishi iste'mol bozorining to'ldirilishi bilan va natijada, talabning pasayishi bilan ko'proq bog'liqdir.

Siklik ishsizlikda ishsizlar keskin ko'payadi. Masalan, 1933 yilda AQShda "Buyuk depressiya" yillarida ishsizlik taxminan 25% ga teng bo'lgan, oxirgi ishlab chiqarishning pasaygan yillari (1982-yili) ishsizlik 9,7% ga teng bo'ldi.

«To'la ish bilan bandlik»ni aniqlash. To'la ish bilan bandlik barcha ishchi kuchining 100% ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friksion va strukturali ishsizlik ilojsiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to'la ish bilan bandlikka erishish mumkin emasligini tushunamiz.

Agar siklik ishsizlik bo'lmasa (0 ga teng bo'lsa), u holda to'la ish bilan bandlikka erishiladi. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik ishsizlikning tabiiy darajasi deyiladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi bilan bog'liq holdagi real milliy mahsulot hajmi iqtisodiyotning ishlab chiqarish potentsiali deyiladi. Ishlab chiqarish potentsiali resurslardan to'la foydalanish asosida iqtisodiyot yaratishi mumkin bo'lgan real mahsulotni ko'rsatadi.

Tabiiy yoki to'la ish bilan bandlik deb, ish qidirayotganlar bilan bo'sh ish joyi teng bo'lgandagi holga aytiladi.

Tabiiy ishsizlik mavjudligining ma'lum ma'noda ijobiy tomonlari bor. Sababi, «friksion» ishsizlarning ish joyi bilan ta'minlanishi uchun ma'lum vaqt kerak.

«Strukturali» ishsizlar uchun esa malakalarini, ma'lumotlarini oshirishlari yoki boshqa yerga ko'chib, ish joyi topishlari uchun yanada ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Agar ish qidiruvchilarning soni mavjud bo'sh ish joyidan ko'p bo'lsa, demak, mehnat bozorining tengligi (mutanosibli) yo'q, siklik ishsizlar esa mavjuddir.

Boshqa bir holda, bo'sh ish joyi ko'proq, ish qidiruvchilarning soni kamroq bo'ladi. U holda ishsizlik darajasi tabiiy ishsizlik darajasidan past bo'ladi. Mehnat bozorida juda tang ahvol inflatsiya bilan bog'liq bo'ladi.

«Ishsizlik tabiiy darajasining» ikki jihatini yaqqol bilish lozim.

Birinchidan, «ishsizlikning tabiiy darajasi» iqtisodiyotning ishlab chiqarish potentsialidan to'la foydalanayotganini ko'rsata olmaydi. Amaliyotda ishsizlik darajasi «ishsizlikning tabiiy darajasidan» ko'proq bo'ladi. Kamdan-kam hollardagina ishsizlik «ishsizlikning tabiiy darajasidan» past bo'ladi. Masalan, AQShda ikkinchi jahon urushi yillarida, harbiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj cheksiz ko'p bo'lgan

vaqtlarda ishsizlikning tabiiy darajasi 3 – 4% ni tashkil etgan.

1943 – 1945-yillarda ishsizlik haqiqatda 2% dan kamroq, 1944-yilda esa 1,2% ga teng bo'lgan. Bu yillarda iqtisodiyot o'zining ishlab chiqarish imkoniyatidan oshib ketgan.

Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas. U qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Masalan, AQShda 60-yillarda iqtisodchilar «frik-sion» va «strukturali» ishsizlikning minimum miqdori 4% ni tashkil etishi lozim deb hisoblashgan bo'lsa, hozirda ko'p iqtisodchilar 5 – 6% ni tashkil etishi lozim deb hisoblashmoqda.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yillarida uning xususiyatlari bilan ishsizlikning minimum miqdori 8 – 10% ni tashkil etadi. AQShda ishsizlik tabiiy darajasining 60-yillarga nisbatan ko'payishining ikki sababi bor.

Birinchidan, ayollar va yoshlar mehnat resurslarining komponenti sifatida keyingi yillarda o'z ahamiyatini, rolini yo'qotib bormoqda. Ularning barcha mehnat resurslaridagi salmog'i avvallari yuqori bo'lgan.

Ikkinchidan, mehnat qonunlarida keyingi yillarda o'zgarishlar bo'ldi va bu o'zgarishlar ushbu toifadagi ishsizlarning ishsizlik kompensatsiyasini (tovon) ancha oshirdi. Ishsizlarga berilgan kompensatsiya va nafaqalar ularning bemalol, xotirjamlik bilan ish qidirishlariga imkon beradi. Demak, ular «frik-sion» va «strukturali» ishsizlarga aylandilar.

Ishsizlik darajasini aniqlash. Ishsizlik darajasini amaliyotda aniqlash ayniqsa «to'la ish bilan bandlik» davrida mushkul ishdir. Uni aniqlashni quyidagi 3.1-jadval misolida ko'rib chiqamiz.

3.1-jadval. O'zbekistonda ishchi kuchi, ish bilan bandlik va ishsizlik dinamikasi¹ (ming.kishi)

	2005	2014	2014 y.- 2005 y. nisbatan,%
Aholi soni	26313	31022,5	117,9
Minus:			
mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar	9217	9281,4	100,7
iqtisodiy faol bo'lmagan aholi	5017	5539	110,4
mehnatga layoqatli yoshdan kattalar	1854	2697	145,4
Teng			
Ishchi kuchi	10224	13505,4	132,1
Haqiqatda ish bilan bandlar	10196	12818,4	125,7
Ishsizlar	27,7	687	
Ishsizlik salmog'i (ishchi kuchiga nisbatan, %)	0,3	5,1	

Barcha aholini 4 guruhga bo'lamiz. Birinchi guruhga aholining mehnatga layoqatli yoshdan kichiklari kiradi (16 yoshgacha). Ikkinchi guruhga iqtisodiy faol bo'lmagan aholi kiradi. Bu guruh aholining ishchi kuchi tarkibiga kirmaydigan qismi. U quyidagi toifalardan iborat: a) ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan hamda ish haqiga yoki mehnat daromadiga ega bo'lmagan o'quvchilar va talabalar; b) ishlamayotgan uchinchi guruh nogironlari; v) uy bekalari hamda bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan ishlamayotgan ayollar; g) ko'char va ko'chmas mulkdan daromad olayotgan ishlamayotgan shaxslar; d) ixtiyoriy ravishda mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar. Uchinchi guruhga mehnatga layoqatli yoshdan kattalar kiradi (erkaklar uchun 16 – 59 yosh va ayollar uchun 16 – 54 yosh)². To'rtinchi guruhni ishchi ku-

¹ Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистикаси Қўмитаси. Тошкент 2015. Б.42, 58.

² Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистикаси Қўмитаси. Тошкент 2015. Б.11-12.

chi tashkil qiladi. Bu guruhga mehnat qilishni bilganlar va uni xohlovchilar kiradi.

Umumiy holda ishchi kuchi ish bilan bandlar va faol ish qidirib yurgan ishsizlarga bo'linadi. Ishsizlik darajasi deb, ish kuchining ishsiz yurganlar salmog'iga (% hisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin.

$$| \quad \text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{ishsizlar}}{\text{ish kuchi}} \times 100$$

Masalan, O'zbekistonda 2014 yilda 13505,4 ming kishi ishchi kuchi bo'lgan bo'lsa, ishsizlarning soni 687 ming kishini tashkil etgan.

Ishsizlik darajasi $(687\ 000 : 13\ 505\ 400 \times 100)$ 5,1% ni tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanishi, bozor strukturasi tashkil etilishi bilan Mehnat vazirligi, ayniqsa ushbu masalaga mas'ul yondashadi. Ishsizlar salmog'ini doimo nazorat qilish va mos ravishda choralar belgilash makroiqtisodiyot samaradorligini oshirishning asosiy tartibiga aylanadi.

AQShda Mehnat vazirligi har yili 60 ming oilani tanlab olib, so'roq qiladi. So'roqda oilada kim ishlashi, kimning ishsiz qolganligi, kimning ish qidirib yurganligi so'raladi.


3.5. OUKEN QONUNI

Ishsizlikning ko'payishi oqibatida mumkin bo'lgan yalpi milliy mahsulot hajmini milliy iqtisodiyot ololmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni tabiiy darajasida saqlash va uni tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Agar iqtisodiyot barcha ishlashni xohlovchilarga va ishlay oladigan kishilarga yangi ish joyi yaratib bera olmas ekan, u iqtisodiyot tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish potensialini butunlay yo'qotadi.

Ishsizlikning ko'payishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini pasaytiradi. Shuning uchun ham, potensial hajmdagi yalpi milliy mahsulot (**YaMM***) haqiqatdagi **YaMM** dan katta bo'ladi, ya'ni:

| **YaMM* > YaMM yoki U* > U.**

Buning grafikdagi ifodasi quyidagicha bo'ladi:



3.4-chizma. *YaMM ning YaMM* dan nisbatan orqada qolishi.*

Potensial **YaMM*** ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaq yo'q deb emas, balki ishsizlik mavjud, biroq u tabiiy darajada deb hisoblanadi.

Makroiqtisodiyot fanining taniqli olimlaridan biri Artur Ouken **YaMM**ning **YaMM***dan nisbatan orqada qolishining ishsizlik bilan bog'liq ekanligini matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun **Ouken qonuni** deyiladi. Qonunning mohiyati shundan iboratki, agar haqiqatdagi ishsizlik ishsizlikning tabiiy darajasidan 1% oshib ketsa, milliy iqtisodiyot yalpi milliy mahsulotni 2,5% kam oladi yoki 2,5% yalpi milliy mahsulot yo'qotiladi. Demak, mos ravishda ularning nisbati 1:2,5 yoki 2:5 ga teng. Yo'qotilgan yalpi milliy mahsulotning esa absolyut qiymatini hisoblash mumkin.

Misol uchun, ishlab chiqarish pasaygan davrda ishsizlik 9,5% ga teng bo'lgan, deb olaylik. Ishsizlikning tabiiy darajasi esa 6% ga teng bo'lishi kerak yoki 3,5 % ishsizlik uning tabiiy darajasidan ko'p. 3,5% ni Ouken koeffitsientiga (2,5) ko'paytirib, **YaMM** ning potensial **YaMM***dan 8,75% kam olinganligini aniqlaymiz. Boshqacha so'z bilan aytganda, agar O'zbekistonda haqiqatdagi ishsizlik, ishsizlikning tabiiy darajasida bo'lganda 8,75% ko'proq **YaMM** ishlab chiqarilgan bo'lar edi. Agar 1% yalpi milliy mahsulotni 1 mlrd. so'mga teng deb olsak, 8,75 mlrd. so'mlik tovar va xizmatlar O'zbekiston milliy iqtisodiyotida yo'qotilganligini aniqlaymiz.

Bundan tashqari, yuqoridagi grafikdan (3.4-chizma) ko'rinib turibdiki, ba'zi yillari haqiqatdagi **YaMM** potentsiali **YaMM***dan ham ko'payib ketishi mumkin. Bunday hollar AQShda ikkinchi jahon urushi yillari ro'y bergan, chunki shu yillari ishsizlik 2% dan ham kamayib ketgan. Ishlab chiqarish vositalaridan va imkoniyatlardan normadan ortiq darajada foydalanilgan. Natijada haqiqatdagi **YaMM** potentsial **YaMM***dan ham ko'proq miqdorga teng bo'lgan.

3.6. O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORINI TASHKIL ETISH VA TARTIBGA SOLISH

Mehnat bozorining faoliyati quyidagi omillarga ko'p jihatdan bog'liq:

- aholi soni, yoshi va jinsining salmog'idagi o'zgarishlarga;
- ish bilan bandlikdagi tarmoq va hudud o'zgarishlariga;
- qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mezoniga;
- ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish strukturasi;
- ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuviga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuliga.

Mehnat bozoridagi vaziyat yuqoridagi omillarning ta'sirida o'zgarib turadi va shunga mos ravishda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif hajmi aniqlanadi.

Misol uchun, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab taklifdan ko'proq bo'lsa, bozorda ishchi kuchining qo'shimcha manbalaridan qo'shimcha taklif etiladi. Qo'shimcha manbalarga mehnat nafaqasi oluvchilar, talabalar, o'quvchilar kiradi.

Ishga joylashtirish idoralarining faoliyatlari kuchaytiriladi va takomillashtiriladi, boshqa hududlardan qo'shimcha ishchi kuchining oqib kelishi rag'batlantiriladi, har bir ishsizning shaxsiy hisobi olinadi va h.k.

Agarda mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab taklifdan kam bo'lsa, qo'shimcha ish joylarini tashkil etish, ish smenasini ko'paytirish, ish bilan bandlikning noan'anaviy yo'llaridan foydalanish, boshqa hududlarga ortiqcha ishsizlarni jalb qilish mexanizmlari qo'llaniladi.

Agarda ishchi kuchiga bo'lgan talab taklif bilan teng bo'lsa va muvozanat o'rnatilsa, ishlab chiqarish vositalarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, ish vaqtini yo'qotishni kamaytirish, ishchilarning malakasini oshirish,

mehnatni rag'batlantirish va ish haqini samarali tashkil etish zarurati kelib chiqadi. Bu esa ish bilan bandlikning samaradorligini oshirish bilan birga makroiqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtiradi.

Bozordagi talab va taklifni tartibga solish uchun iqtisodiy mexanizm modelidan foydalaniladi. U quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Ko'p bosqichli ish tanlash, o'qitish va qayta tayyorlash tizimi.

2. Keng ko'lamli ish bilan bandlik markazlari. Bu markazlarda doimo bo'sh ish joylarini qidirayotgan ishsizlar hisobi olib boriladi. Kadrlar zarur bo'lgan korxonalariga ishchi kuchi yetkazib berishga hamkorlik qiladi.

3. Alohida ijtimoiy-demografik qatlamlardagi aholining ish bilan bandligi maxsus dasturlari.

4. Respublika va mahalliy mehnat bozoridagi holatni doimo prognoz qilish va o'rganish uchun ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiya.

O'zbekistonda mehnat bozoriga aholining quyidagi guruhlar kiradi:

1. O'qishni bitirib birinchi marotaba ish qidirib yurgan yoshlar.

2. Tarmoq korxonalaridagi strukturaviy o'zgarishlar natijasida ishsiz bo'lib qolgan xodimlar. Shuningdek, davlat sektorini xususiyashtirish va boshqa mulkchilikka o'tishdan kelib chiqqan ishsizlar.

3. Raqobatda singan va past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar va tashkilotlar.

4. Qamoqxonalardan ozod etilgan shaxslar.

5. Vaqtincha ishsiz yurgan va mehnat birjalari ko'magida yangi ish joyi qidirib yurgan shaxslar.

Mehnat birjalarida ishsizlarni aniqlash, ishga joylash, qayta tayyorlash va shu kabi bir qancha masalalar hal qilinadi. Mehnat birjalari hozirgi paytda respublikamizning viloyatlari va uning tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Mehnat bozori deganda nimani tushunasiz?*
2. *Mehnat bozoridagi talab va taklif qanday omillarga bog'liq?*
3. *Ishsizlik nima va uning qanday turlari mavjud?*
4. *«Ishsizlikning tabiiy darajasi» deganda nimani tushunasiz?*
5. *Ishsizlik darajasi qanday o'lchanadi?*
6. *Ouken qonuni.*
7. *O'zbekiston mehnat bozori qanday xususiyatlarga ega?*

IV BOB. INFLATSIYA VA ANTIINFLATSIYA SIYOSATI

- 4.1. *INFLATSIYA VA UNING MOHIYATI.*
- 4.2. *INFLATSIYANI ANIQLASH.*
- 4.3. *INFLATSIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI.*
- 4.4. *INFLATSIYA VA ISHSIZLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK. FILLIPS EGRI CHIZIG'I.*

4.1. INFLATSIYA VA UNING MOHIYATI

Inflatsiya – bu yalpi tovar va xizmatlar narxining ko'payishidir. Inflatsiya makroiqtisodiy beqarorlikning eng murakkab aspekti bo'lib, uni tartibga solish ulkan iqtisodiy muammo hisoblanadi. Inflatsiyaning O'zbekistonda 1990 – 1993-yillardagi holatini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, u ichki va tashqi omillar natijasida yuzaga kelganligi va chuqur ildiz otganligini bilishimiz mumkin. Misol uchun, xalq iste'moli mahsulotlaridan sovutgichning narxi 520 martadan ham oshib ketdi, hatto chegaralangan narxlarda sotiladigan mahsulotlarning narxi ham keskin ko'paydi. Masalan, go'shtning chegaralangan narxi 75 martadan ham oshib ketdi va hokazo. Ba'zi bir tovarlar narxi esa 1000 marta va undan ko'p oshib ketdi. Inflatsiyani to'xtatish esa ichki va ayniqsa, tashqi omillarni tartibga solish qiyin bo'lganligi uchun yanada mushkullashadi va uzoq davom yetadi.

Inflatsiya davrida barcha tovarlarning narxlari ham oshavermaydi. Ba'zi tovarlarning narxlari barqaror bo'lib tursa, ba'zilarining narxi tushishi mumkin. Bu, ayniqsa, jahon tajribasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Misol uchun, 1970 – 1980 yillarda AQShda inflatsiya darajasi tez o'sib borgan. Shu bilan birga, videomagnitofon, shaxsiy EHMlarning narxlari pasayib borgan. Demak, kengroq ma'noda inflatsiya – bu barcha tovar va xizmat-

lar narxlari o'sib borishini va shu bilan birga, ba'zi tovarlar narxlarining pasayishini, ba'zilarining sekinlik bilan o'sishini va boshqa birlarining keskin o'sib borishini bildiradi. Bu qonuniyat oqibatida barcha tovarlar va xizmatlarning narxi oshib boradi.

4.2. INFLATSIYANI ANIQLASH

Inflatsiyani aniqlash uchun narx indeksidan foydalaniladi. Narx indeksi esa haqiqatdagi narxning bazis narxga nisbati bilan aniqlanadi:

$$| \quad P = \frac{P_x}{P_b} \times 100$$

Misol uchun, iste'mol tovarlariga bo'lgan bazis narx (1989 – 1990-yillarda) 100 %ga teng bo'lsin. 1993-yili iste'mol tovarlarining narxi 118 %ga teng bo'lsa, demak, iste'mol tovarlarining indeksi 1989 – 1990-yillarga nisbatan 18%ga oshganini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, 1990-yili 100 so'm turgan tovar 1993-yili 118 so'mga sotiladi. Inflatsiya sur'ati quyidagicha aniqlanadi:

$$| \quad I_s = \frac{P_t - P_{t-1}}{P_t} \times 100$$

Misol uchun, 1992 yili iste'mol tovarlarining narxi 115% ga teng bo'lgan. 1993 yilda esa 120% ga teng bo'ldi deylik. 1993 yilning inflatsiya sur'ati quyidagicha bo'lgan:

$$| \quad I_s = \frac{120 - 115}{120} \times 100 \cong 4.1 \%$$

Makroiqtisodiyotdagi «70-qiymat qoidasi» nazariyasi asosida necha yildan so'ng narxning (inflatsiyaning) ikki marta ko'payishini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun 70 ni yillik inflatsiya sur'atiga bo'lish kifoya:

yillik inflatsiya sur'ati (%)

yoki 70-qiyamat qoidasi $\frac{70}{I_s}$

Misol uchun, yillik inflatsiya sur'ati 3% ga teng bo'lsa, taxminan, 23 yildan so'ng narx (inflatsiya) ikki marta ko'payadi, ya'ni: $(70:3=23)$. Agar inflatsiya sur'ati yiliga 8% ni tashkil yetsa, tovarlarning narxi 9 yildan so'ng ikki marta ko'payadi $(70:8=9)$. Real yalpi milliy mahsulot va jamg'armaning necha yildan so'ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo'lgan hollarda «70-qiyamat qoidasidan» foydalaniladi.

Mana shu usul yordamida biz O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi inflatsiyasini aniqlashimiz va uning necha yildan (oydan) so'ng ikki marta ko'payishini hisoblashimiz mumkin. O'tish davrida, eng avvalo, inflatsiyani barqarorlashtirish uning kelib chiqish sabablari tahlili bilan bog'liqdir.

4.3. INFLATSIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI


Inflatsiya ikki xil sababdan kelib chiqishi mumkin:

1. Talab inflatsiyasi.
2. Jami taklifning kamayishidan kelib chiqadigan inflatsiya.

Jami taklifning kamayishi ko'pincha ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishi hisobiga vujudga keladi.

1. "Talab inflatsiyasi nima va u qanday kelib chiqadi?" degan savol tug'iladi. Buning eng asosiy sababi shuki, iqtisodda jami talab mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlaridan ko'payib ketadi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari jami o'sib borayotgan talabni qondira olmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlarning narxi ko'payishiga

iqtisodiy bosim beradi va talab inflatsiyasi kelib chiqadi. Qisqacha qilib oddiy so'zlar bilan aytganda, «haddan ziyod ko'p pullar, haddan tashqari kam tovarlarni ovlaydi». Bu hol 1991—1993 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida ro'y berdi.



4.1-chizma. Narx darajasi va ish bilan bandlik.

Kengroq iqtisodiy ma'noda olib qaralganda, talab inflatsiyasi yuqorida aytilgandan murakkab va uni hal qilishning yagona andozasi yo'q, lekin uning nazariyasi yaratilgan bo'lib, uni o'rganish inflatsiyani tartibga solish imkoniyatini yaratadi. Inflatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, narx, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'p omillarga bog'liq. Bunday murakkablikni tushunishimiz uchun quyidagi grafikdan foydalanamiz (4.1- chizma).

Birinchi kesmada jami xarajatlar (iste'mollarning yig'indisi, investitsiya, hukumat xarajatlari va sof eksport) shunchalik kamki, haqiqatdagi milliy mahsulot, o'zining maksimal darajasidan ancha farq qiladi yoki kamroq miqdorga teng. Boshqacha qilib aytganda, haqiqatdagi **YaMM** potensial **YaMM*** dan kam, ishsizlik darajasi yuqori, katta miqdordagi ishlab chiqarish quvvatlari foydalanilmay yotibdi.

Agar mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsizlik kamayadi, narx darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Narx deyarli o'zgarmasligining asosiy sababi shuki, katta hajmdagi mehnat va xomashyo resurslarini shu o'zgarmas narxda ishga tushirish mumkin bo'ladi. Chunki ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanish asosiy ahamiyatga egadir, uning maqsadidir. Harakatda bo'lmagan mehnat va moddiy resurslarni ishga tushirish qo'shimcha mahsulotni ishlab chiqarishga olib keladi. Talab oshib borishi bilan iqtisodiyotda yangi o'zgarishlar kelib chiqadi. Bu 4.1. *chizmaning 2-kesmasida* aks ettirilgan. Talabning oshib borishi ishlab chiqarishning o'sishiga va ishchi kuchining to'laroq ish bilan bandligiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, narx ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham ko'payishi mumkin. Buning sababi shun-daki, ba'zi sanoat korxonalari oldinroq resurs va rezervlarini tugallaydi va natijada, ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab taklifdan ko'payib ketadi, natijada, narx yana osha boshlaydi. Mehnat bozorida ba'zi malakali mutaxassislardan to'la foydalaniladi va ishchi kuchi rezervi shu toifa mutaxassislarga yetmay qoladi. Bu ham ishchi kuchiga to'lanadigan ish haqining oshirilishiga olib keladi. Shunday qilib, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari ko'payib boradi, firmalar esa narxni oshirishga majbur bo'ladi. Kasaba uyushmalari ish haqini yanada yuqori belgilanishini talab qilishlari natijasida tovarlarning narxlarini yana oshadi. Kasaba uyushmalarining talablarini ko'p hollarda firmalar bajarishga majburlar, aks holda ish tashlashlar, siyosiy-iqtisodiy ziddiyatlar kelib chiqadi. Bu esa iqtisodiyot o'sib kelayotgan davrda firmalarga katta zarba beradi.

Inflatsiya mamlakatda to'la ish bilan bandlikka (2-kesmada ko'rsatilganidek) erishilgungacha boshlanganligi uchun u «vaqtli inflatsiya» deyiladi.

Umumiy xarajatlar 3-kesmada ko'rsatilgan shaklda bo'lsa, mamlakatning barcha iqtisodiyot sektorida to'la ish bilan bandlikka erishiladi.

Barcha sanoat korxonalarining quvvati o'sib borayotgan jami talabni qondirishga yetmaydi. Milliy mahsulot ishlab chiqarish maksimal miqdorga erishadi, talabning yanada o'sishi inflatsiyani keltirib chiqaradi. Jami talab mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan (taklifdan) ko'p bo'lganligi uchun talab va taklifning muvozanati narxning ko'payishi hisobiga vujudga keladi.

X mamlakatning yalpi talabi o'sib borganda (aholi soni o'sib borganda, aholining qo'lidagi pul massasi ko'payganda va hokazo), mamlakatga xalq iste'moli tovarlari asosan chetdan keltirilganda, ularning mamlakatga taklifi esa nisbatan kamayganda yalpi talab keskin ko'paygani holda taklif hajmi kamroq ko'payadi. Bu o'z navbatida inflatsiyani keskin ko'paytiradi. Shuning uchun inflatsiya yil bo'yicha emas, balki oy, choraklar bo'yicha prognoz qilinadi. Inflatsiyani barqarorlashtirish esa tashqi omillar tufayli juda qiyinchilik bilan tartibga solinishi mumkin.

2. Jami taklifning kamayishidan kelib chiqadigan inflatsiya. Ishlab chiqarish xarajatlari va taklifning o'zgarishidan ham inflatsiya kelib chiqadi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham, tovarlarning narxlari ko'payib boraveradi. Hatto ish bilan bandlik va YaMM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning narxi ko'payadi. Inflatsiya nazariyasida ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishidan narxning o'sishini – har bir tovar xarajatlarining o'sishidan kelib chiqqan inflatsiya deb ataladi. Bir birlik mahsulot xarajatlari esa quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Bir birlik mahsulotning xarajatlari} = \frac{\text{Umumiy xarajatlar}}{\text{mahsulotlarning soni}}$$

Korxonalarda bir birlik mahsulot xarajatlari o'sishi ularning foydasini kamaytiradi va taklif ham kamayadi. Bu esa narxning o'sishiga olib keladi. Demak, mahsulot birligi xarajatlarining oshib borishi tovarlar narxlarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Xarajatlar ko'payishiga, asosan, ikki omil ta'sir qiladi: 1) nominal ish haqining o'sishi; 2) xomashyo va energiya narxining ko'payishi.


Inflatsiyaning kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir etadi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari narxining keskin ko'payishidan kelib chiqadi. Misol uchun, neft eksport qiluvchi mamlakatlar neft narxini yuqori belgilasalar, taklif mexanizmi buziladi va inflatsiya kelib chiqishi mumkin, chunki neftdan barcha iqtisodiyotda turlicha maqsadda foydalaniladi.

4.4. INFLATSIYA VA ISHSIZLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK. FILLIPS EGRI CHIZIG'I

Ish haqi mehnat bozorida muvozanatni o'rnatuvchi vosita hisoblanadi va uning darajasi o'zgarishi ishsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan Buyuk Britaniyaning 1862 – 1957-yillar ma'lumotlari asosida tadqiqot qilingan hamda grafikda *Fillips egri chizig'i* deb aks ettirilgan. Modomiki, ish haqi va narxlar o'zgarishining sur'atlari o'rtasida bir xil nisbat mavjud ekan, u holda Fillips egri chizig'i o'z mohiyatiga ko'ra inflatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi, ya'ni inflatsiyaning o'sishi sur'atida ishsizlikning past darajasi kuzatiladi va aksincha (4.2-chizma). Muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida barqaror va oldindan ko'rish mumkin bo'lgan bog'liqlikni o'rnatish G'arb mamlakatlarining milliy iqtisodiyotini tartibga solish va istiqbolini belgilash imkonini berdi.

Lekin 70-yillardan boshlab bunday bog'liqlik buzildi va Fillips egri chizig'i zamonaviylashtirildi: endi u o'ng tomon-

ga siljib, G'arb mamlakatlarida vujudga kelgan real makroiqtisodiy vaziyatni aks ettira boshladi. Ya'ni ishlab chiqarishning qisqarishi va ishsizlikning ko'payishi narxlar oshishi bilan kuzatiladi. Bu hodisa stagflatsiya deb atalib, ham inflatsiya, ham ishsizlik o'sishi bilan ifodalanadi.



4.2-chizma. Fillips egri chizig'i.

Davlatning mehnat bozoriga ta'sir etish choralari Fil-lips modeli bilan cheklanib qolmasdan, o'ziga yana soliq, pul-kredit siyosatining keng ta'sir etish choralari ham-da mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarni ham qo'shadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Inflatsiya kategoriyasining mohiyatini tushuntirib bering.*
2. *Inflatsiya qanday usullar bilan aniqlanadi?*
3. *Talab inflatsiyasi nima?*
4. *Taklif inflatsiyasi nima?*
5. *Inflatsiya va ishsizlik o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?*

V BOB. YALPI TALAB - YALPI TAKLIF MODELII

- 5.1. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF TUSHUNCHASI.
- 5.2. YALPI TALAB EGRI CHIZIG'I VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.
- 5.3. YALPI TALABNING NARXLARGA BOG'LIQ BO'LMAGAN OMILLARI.
- 5.4. YALPI TAKLIF EGRI CHIZIG'I.
- 5.5. YALPI TAKLIF EGRI CHIZIG'INI SILJITIB TURUVCHI OMILLAR.
- 5.6. NARXLARNING MUVOZANATLI DARAJASI VA ISHLAB CHIQARISHNING MUVOZANATLI REAL HAJMIGA YALPI TALAB O'ZGARISHINING TA'SIRI.
- 5.7. NARXLARNING MUVOZANATLI DARAJASI VA ISHLAB CHIQARISHNING MUVOZANATLI REAL HAJMIGA YALPI TAKLIF O'ZGARISHINING TA'SIRI.


5.1. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF TUSHUNCHASI

Har qanday bozordagi vaziyat talab va taklifga, ya'ni ular hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Ular o'rtasida yuzaga kelgan nisbat o'z ketidan narxlar o'zgarishiga va aksincha, narxlarning (u yoki bu tomonga) tebranib turishi talab va taklif hajmiga bevosita ta'sir qiladi. Bunday ta'kidlash faqat qandaydir bir alohida mahsulot yoki xizmatga oid bo'lmay, balki umuman milliy bozorga ham taalluqlidir. Shu bozordagi talab alohida xaridorlar istagi ko'rinishida bo'lmasdan, barcha xaridorlarning birlashtirilgan talabi sifatida amal qiladi va makrodarajadagi iste'mol qobiliyatini aks ettiradi. Taklif esa milliy ishlab chiqarish yalpi hajmining taklifi sifatida bozorga chiqadi.

Shunday qilib, **yalpi talab** uy xo'jaligi, firma, davlat hamda xorijiy xaridorlarning tovar va xizmatlarga talabidir.

Muayyan narxlar darajasidagi **yalpi taklif** – bu muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan iste'mol hamda investitsiya tovarlari va xizmatlarning umumiy miqdoridir. **Narxlar darajasi** deganda, turli xil tovar va xizmatlarning alohida narxlarini

umumlashtiruvchi yalpi narx tushuniladi. Narxlarni narxlar darajasiga, yalpi iste'molchilarning to'lov qobiliyatli talabini yalpi talabga, barcha tovar va xizmatlarni esa milliy ishlab chiqarishning real hajmiga bunday birlashtirish yiriklashtirish deb ataladi. Ko'rsatkichlarni yiriklashtirishning bu usulidan makroiqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi. Makrodarajada iqtisodiyotni busiz tahlil qilib yoki oldindan aytib bo'lmaydi. Yalpi talab va taklif hamda narxlar darajasi barcha makroiqtisodiy modellar tuzilishining asosi hisoblanadi. Oddiy ko'rinishda bu ko'rsatkichlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi grafik yordamida aks ettiriladi (5.1-chizma).



5.1-chizma. Yalpi talab, yalpi taklif va narxlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik


Chizmadan ko'rinib turibdiki, narxlar o'zgarishi yalpi talabga aks ta'sir ko'rsatadi, ya'ni narx darajasining o'sishi o'z ortidan talabning qisqarishini keltirib chiqaradi va aksincha. Vaholanki, yalpi taklif va narx darajasi o'rtasidagi bog'liqlikka binoan narx qancha yuqori bo'lsa, taklif shuncha ko'p bo'ladi.

5.2. YALPI TALAB EGRI CHIZIG'I VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Narxlar darajasi va yalpi talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, narxlar o'sib borishi bilan yalpi talab qisqarib boradi va aksincha, narxlar qanchalik past bo'lsa, xaridorlar ko'proq tovar va xizmatlarni sotib olishni istab qolishadi. Ushbu bog'liqlikni chizma ko'rinishida ifodalash mumkin (5.2-chizma). Narxlar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq *yalpi talab egri chizig'i* deb ataladi. U alohida tovarlarga bo'lgan talab egri chizig'iga o'xshash ko'rinishga ega, ammo uning tebranib turishiga ta'sir qiluvchi omillari turlicha. Yalpi talab egri chizig'i yo'nalishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

Bular avvalo quyidagi narx omillaridir:

1. Foiz stavkasi samarasi;
2. Boylik samarasi;
3. Import xaridlar samarasi.



5.2-chizma. Talab egri chizig'i.

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki, yalpi talab egri chizig'ining og'ishi narxlar darajasi o'zgarishi foiz stavkasi, demak iste'mol xarajatlari va investitsiyalarga bo'lgan

ta'siriga bog'liq. Agarda mamlakatda pul massasi hajmi doimiy deb faraz qilsak, narxlar o'sib borayotgan bo'lsa, unday holatda aholi va korxonalarining xarajatlari uchun ko'proq pul kerak bo'ladi. Bu esa pulga bo'lgan talabning oshishini keltirib chiqaradi, demak uning narxi, ya'ni foiz stavkasi ko'tariladi.

O'z navbatida, yuqori darajadagi foiz stavkasida aholi va tadbirkorlar o'z xarajatlarini qisqartirib, jamg'armalarini bankka qo'yishni afzal ko'rishadi. Shunday qilib, narxlarining o'sishi pulga bo'lgan talabni ko'paytirib, foiz stavkasining ko'tarilishiga olib keladi va shu tufayli milliy mahsulotning real hajmiga bo'lgan talabni qisqartiradi.

Boyluk samarasi shuni bildiradiki, narxlar darajasining o'sishi bilan jamg'arilgan pul aktivlarining (hisoblardagi omonatlar, obligatsiyalar va boshqalarning) real xarid qobiliyati tushib ketadi. Ya'ni aholi tobora kambag'allashib boradi va tabiiyki, u o'zining tovar va xizmatlarni sotib olishga ketadigan xarajatini qisqartiradi. Natijada yalpi talab ham kamayadi.

Import xaridlari samarasi deganda shuni tushuniladiki, qachonki narx darajasi xorijiy narxlarga nisbatan oshib borsa, mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan talab kamayadi, import mahsulotlariga talab esa o'sadi, ya'ni milliy mahsulotga bo'lgan ehtiyoj qisqaradi. Va aksincha, mamlakatda narx darajasining pasayishi importning kamayishiga va eksportning kengayishiga sabab bo'ladi yoki milliy mahsulotga bo'lgan talabni oshiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar yalpi talabning narx omillari deb ataladi, chunki milliy ishlab chiqarish real hajmining o'zgarishlari bunday hollarda narxlarning pasayishi yoki o'sishi bilan bog'liq hamda yalpi talab egri chizig'ining faqat bir yo'nalishidagi harakatini keltirib chiqaradi. U egiluvchan narx modeli deb ataladi.

5.3. YALPI TALABNING NARXLARGA BOG'LIQ BO'LMAGAN OMILLARI

Yalpi talabning o'zgarishiga nafaqat narxlar darajasining tebranishi, balki bir qator boshqa sharoitlar ham ta'sir ko'rsatadi.

Ular *narxlarga bog'liq bo'lmagan omillar* deb ataladi.

Modomiki, yalpi talab uy xo'jaligi, firma, davlat va xoriy sheriklar talablaridan tashkil topar ekan, unda ulardan birining yoki bir nechtasining xarajatlaridagi har qanday o'zgarishlari (narxlarning bir xil darajasida) yalpi talabning miqdorida o'z aksini topadi hamda uning egri chizig'ini goh o'ngga, goh chapga suradi (5.3-chizma).

Shunday qilib, yalpi talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillari qatoriga quyidagilar kiradi:

- iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar (ΔS);
- investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar (ΔI);
- davlat xarajatlaridagi o'zgarishlar (ΔG);
- eksport sof hajmiga xarajatlaridagi o'zgarishlar (ΔX).

Iste'mol xarajatlari narxlar darajasining o'zgarishidan qat'iy nazar, quyidagi hollarda mustaqil ravishda o'zgarishi mumkin, shu jumladan:


- iste'molchilar qo'lidagi moddiy qiymatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, yer, ko'chmas mulkning real qiymati o'sayotgan bo'lsa, ya'ni iste'molchilarning moddiy farovonligi yaxshilanib borayotgan bo'lsa, narxlarning umumiy darajasiga ta'sir etmagan holda aksiya kurslari yoki yer qiymati ko'tarilayotganda;

- iste'molchilar kelajakda o'z daromadlarining ko'payishini kutish hisobiga ko'proq xarid qilishni afzal ko'rsalar;

- iste'molchilarning ilgari nasiyaga olgan xaridlari natijasida to'planib qolgan qarzlari kamaysa va bu ularga hozirgi kundagi xaridlarini ko'paytirish imkonini bersa;

- daromad solig'i stavkasi kamaysa va natijada sof daromad, demakki, xaridlarning soni ko'paysa, iste'mol xarajatlarining muayyan narxlar darajasidagi o'sishi, milliy mahsulot real hajmiga bo'lgan talabning oshib borishini bildiradi va AD_1 egri chizig'ining o'ngga surilishiga, ya'ni AD_2 egri chiziq holatiga kelib qolishiga sabab bo'ladi.

Lekin bu omillar iste'mol xarajatlariga, demak, yalpi talabga teskari ta'sir ko'rsatishi ham mumkin – ularning kamayishi tomonga. Unda yalpi talab egri chizig'i chapga tomon surilib, AD_3 holatiga keladi.



P – narxlar darajasi

Y – milliy mahsulotning real hajmi

5.3-chizma. *Narxlarga bog'liq bo'lmagan omillar ta'siri natijasida ja'mi talab egri chizig'ining surilishi*

Narxlarga bog'liq bo'lmagan ikkinchi omil – bu investitsiya xarajatlari yoki ishlab chiqarish vositalari xaridining o'zgarishidir. Bu o'zgarishlar quyidagi shartlar: foiz stavka-

si, investitsiyalardan kutilayotgan foyda, korxonalaridan olinadigan soliq, texnologiya, rezervdagi quvvatlar o'zgarishi natijasida ro'y beradi. Masalan, foiz stavkasi (narxlar muayyan bir xil darajada) mamlakatdagi pul massasining o'zgarishiga bevosita bog'liq – pul massasining kamayishi bilan u oshib boradi va shunga muvofiq investitsiya xarajatlari qisqaradi. Bu xarajatlar korxonalarining kelajakda olishi mumkin bo'lgan foydalari yoki korporatsiyalarning foydalariga soliqlar ko'payishi to'g'risidagi tushkunlik ruhidagi oldindan belgilash natijasida ham qisqarishi mumkin va aksincha, bu omillarning kamayishi yangi texnologiyalarni joriy etish va korxonalarda yetishmayotgan rezerv quvvatlarini to'ldirish zaruriyati kabi investitsiya xarajatlarning o'sishiga olib keladi. Shunday qilib, investitsiya xarajatlari yuqoridagi aytib o'tilgan narxlar bilan bog'liq bo'lmagan omillar ta'sirida, iste'mol xarajatlari kabi muayyan narxlar darajasida yalpi talabning egri chizig'ini yo o'ngga, yo chapga surishi mumkin.

Narxga bog'liq bo'lmagan uchinchi omil – mamlakat hukumati qarori bo'yicha davlat xarajatlaridagi bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlardir. Masalan, hukumat mudofaaga yoki kasalxonalar qurilishiga xarajatlarni ko'paytirishga qaror qilgan bo'lsa, narxlarning muayyan darajasida davlat xarajatlari va natijada yalpi talab hajmi ham oshadi. Bu esa chizmada egri chiziq o'ng tomonga surilishiga olib keladi va aksincha, xarajatlarning kamaytirilishi yalpi talabning qisqarishiga va egri chiziqning chap tomonga surilishiga sabab bo'ladi.

Yalpi talabning narx-navo bilan bog'liq bo'lmagan keyingi omili sof eksport xarajatlari hisoblanadi. Bu xarajatlar eksport va import o'rtasidagi farqdan iborat. Uning hajmiga xorijiy mamlakatlar milliy daromadlaridagi o'zgarishlar hamda valuta kurslarining tebranib turishi ta'sir etadi.

Boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o'sib borishi, xorijiy iste'molchilar talabining ko'payishiga va xorijga mol yetkazib berishni kengaytirishga olib keladi. Natijada, yalpi talab hajmi o'sadi. Valuta kurslarining o'zgarishi eksport va importni tartibga solib turadi: milliy valuta kursining pasayishi eksportni rag'batlantiradi va importning nafliligini kamaytiradi. Uning ko'tarilishi esa eksport va importga teskari ta'sir ko'rsatadi.


Shunday qilib, narxlar darajasidagi o'zgarishlar foiz stavkasi, boylik va import xaridlari samarasiga olib kelib yalpi talab egri chizig'i ko'rinishini belgilasa, narxlarga bog'liq bo'lmagan omillar yalpi talab egri chizig'ining u yoki bu tomonga surilishiga sabab bo'ladi. Davlat o'z xarajatlarini o'zgartirib yoki boshqa xarajatlarga bilvosita ta'sir etib, yalpi talabni va u orqali butun makroiqtisodiy vaziyatni tartibga solib turishi mumkin.

5.4. YALPI TAKLIF EGRI CHIZIG'I

Yalpi taklif deganda ishlab chiqarilishi va muayyan narx darajasida bozordan sotib olinishi mumkin bo'lgan barcha tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Yalpi taklif ishlab chiqarish darajasi va narxlar darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq ko'rinishiga ega. Bu bog'liqlik to'g'ri bo'lib, narxlar o'sishi bilan tovar ishlab chiqarish o'sib boradi, pasayishi bilan tushib boradi (5.4-chizma).

Bu kesmalar qanday iqtisodiy vaziyatlarni ifodalaydi? *Keynsian kesma* iqtisodiyot pasayish holatida ekanligidan dalolat beradi, qachonki katta miqdordagi mehnat va moddiy resurslar foydalanilmayotgan bo'lsa. Ingliz iqtisodchisi J.Keynsning ta'kidlashicha, agarda shu kesmada ishlab chiqarish hajmi o'sa boshlasa yoki tusha boshlasa,

bunday holat o'zidan keyin narx va ish haqi darajalarining o'zgarishiga olib kelmaydi.



- A – gorizontal yoki keynsian kesma
 B – ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma
 C – vertikal yoki klassik kesma

5.4-chizma. Yalpi taklif egri chizig'i

Vertikal yoki klassik kesma iqtisodiyotning «to'liq bandlik» sharoitidagi yoki ishsizlikning tabiiy darajasi nuqtasidagi holatini ifodalaydi, qachonki ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilayotgan va narxning har qanday darajasida ham ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish imkoni bo'lmasa.

Oraliq kesma ishlab chiqarish real hajmining o'sishi bilan narxlar ham o'sayotgan vaziyatni ko'rsatadi. Buni shunday tushuntirish mumkin. Iqtisodiyotning barcha sektorlarida iqtisodiy pasayish holatidan to'liq bandlikka o'tish notekis va turli vaqtda yuz beradi. Ayrim tarmoqlarda resurslar yetishmovchiligiga duch kelinishi mumkin, ularga ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eski asbob-uskunalardan hamda malakasiz kadrlardan foydalanishga to'g'ri

keladi. Bu esa mahsulot birligiga ketadigan xarajatlarning o'sishiga va natijada narx oshishiga sabab bo'ladi.

Yalpi taklifning 5.4-chizmada keltirilgan uch kesmadan iborat egri chizig'i iqtisodchilar o'rtasida katta tortishuvlarni keltirib chiqarmoqda. Keynesianchilik maktabi vakillari yalpi taklif egri chizig'ini goh gorizontaal, goh ko'tarilib boruvchi deb hisoblaydilar va shu sababli yalpi taklifdagi har qanday o'zgarish ishlab chiqarish hajmida va bandlikda sezilarli aks etadi, deydilar. Klassik yoki neoklassik maktab tarafdorlari egri chiziq butunlay vertikal ko'rinishda bo'ladi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, yalpi talab o'zgarishi iqtisodiyot uchun unchalik sezilarli emas. Chunki bu o'zgarish faqat narx darajasiga ta'sir etib, ishlab chiqarish hajmi va bandlik o'zgarishiga olib kelmaydi.

5.5. YALPI TAKLIF EGRI CHIZIG'INI SILJITIB TURUVCHI OMILLAR

Yalpi taklif egri chizig'i narx darajasi va milliy mahsulotning real hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatadi. Biroq ishlab chiqarishning ko'payishi yoki pasayishi *narxga bog'liq bo'lmagan omillar* hisobiga ham ro'y berishi mumkin. Bu omillar yalpi taklif egri chizig'ining goh chap, goh o'ng tomonga surilishiga olib keladi.


Yalpi taklifning narxga bog'liqlik darajasi bo'lmagan omillarini ko'rib chiqishdan oldin quyidagi holatni eslatish lozim. Ma'lumki, ishlab chiqarish, tovar va xizmatlar hamda ularning taklif hajmlari korxonalar mo'ljallagan foyda miqdoriga bog'liq.

Olinadigan foyda mahsulot narxi va mahsulot birligiga ketgan sarf-xarajat o'rtasidagi farqdan iborat. Agar da narx darajasini o'zgarmas deb hisoblasak, foyda miqdori va shunga muvofiq mahsulot taklifi mahsulot birligi-

giga sarflangan xarajatlarning o'zgarishiga qarab tebrani-shi mumkin. Xarajatlar o'sishi bilan foyda kamayib boradi hamda mahsulot ishlab chiqarishga qiziqish susayadi va aksincha, xarajatlar qisqarishi bilan foyda miqdori oshadi va ishlab chiqarish kengayadi, taklif o'sib boradi. Shun-day qilib, mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning ka-mayishi yalpi taklif egri chizig'i o'ng tomonga, ko'payishi esa uning chap tomonga surilishiga olib keladi. Narxga bog'liq bo'lmagan omillarning xususiyati shundan iboratki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita ta'sir etib va shu orqali yalpi taklif egri chizig'i surilishiga sabab bo'ladi. Bu qaysi omillar? Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- resurslarga bo'lgan narxlarning o'zgarishi;
- unumdorlikdagi o'zgarishlar;
- huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

Masalan, ichki bozorda yer, mehnat resurslari, kapi-tal va tadbirkorlik qobiliyatlarining taklifi oshib borayot-gan bo'lsa, ularning narxi pasayib, mahsulot birligi-ga ketgan xarajatlar kamayadi. Bu xarajatlar yana iqtisodiy resurslardan unumli va samarali foydalanish hiso-biga ham o'zgarishi mumkin. Ya'ni ishlab chiqarishga yan-gi texnologiyani joriy etish, xodimlar malakasini oshirish qo'shimcha xarajatlarsiz ko'proq mahsulot olish imkonini beradi. Huquqiy me'yorlar, soliq va subsidiya miqdorla-rining o'zgarishi ham ishlab chiqarish xarajatlariga ta'sir qilishi mumkin. Agarda, hukumat ishlab chiqaruvchilar to-monidan to'lanadigan soliq stavkalarini oshirsa va ularga beriladigan subsidiyalarni qisqartirsa, bunday holatda mahsulot birligiga ketgan xarajat o'sadi va narxlarning berilgan muayyan darajasida foyda kamayadi. Shu tufayli ishlab chiqarishga bo'lgan rag'bat tushib ketib, yalpi taklif qisqaradi, uning egri chizig'i chapga suriladi (5.5-chizma).



P – narxlar darajasi
Y – milliy mahsulotning real hajmi


5.5-chizma. *Narxga bog'liq bo'lmagan omillar hisobiga jami taklif egri chizig'ining surilishi*

5.6. NARXLARNING MUVOZANATLI DARAJASI VA ISHLAB CHIQARISHNING MUVOZANATLI REAL HAJMIGA YALPI TALAB O'ZGARISHINING TA'SIRI

Narxlarning muvozanatli darajasi deganda shunday narx darajasi tushuniladiki, unda yalpi talab va yalpi taklif bir-biriga mos kelishi yoki bir-biriga teng bo'lishi kerak. Narxlarning muvozanatli darajasida ma'lum miqdordagi mahsulotni xaridorlar sotib olishga, ishlab chiqaruvchilar esa uni ishlab chiqarish va sotishga rozi bo'ladi. Buni milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanatli real hajmi deb ataydilar. Chizmada bu ikki ko'rsatkich yalpi talab va yalpi taklif egri chiziqlarining kesishgan nuqtalari bilan aniqlanadi (5.6-chizma).

Chizmadan ko'rinib turibdiki, e_1 – yalpi talab egri chizig'ining yalpi taklif egri chizig'i bilan uning keynsian

kesmasidagi kesishgan nuqtasi. Talab egri chizig'ining bu kesma bo'ylab ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi tomon harakati, narx darajasining o'zgarishi bilan kuzatilmaydi. Bunday holatda P_1^* – miqdor muvozanatli narx, Y_1^* esa milliy mahsulotning muvozanatli real hajmi. Yalpi talabning oshishi bilan uning egri chizig'i o'ngga suriladi va muvozanat nuqtasi (e_2) oraliq kesmada o'rnatiladi. Bu kesmada talabning kengayishi narxlar darajasi hamda ishlab chiqarish hajmining (P_2^* va Y_2^* nuqtalar) o'zgarishi bilan kuzatiladi. Yalpi talabning keyingi o'sishi egri chiziqning yanada yuqoriga surilishiga olib keladi.



P – narxlar darajasi

Y – milliy mahsulotning real hajmi

5.6-chizma. Yalpi talab o'zgargandagi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi o'zgarishi

Endi u AD_3 holatini egallaydi va taklif egri chizig'ini klassik yoki vertikal kesmada kesib o'tadi. Bu yerda muvozanatli narx P_3^* darajada, ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Y_3^* nuqtada o'rnatiladi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat narxlar darajasining

o'zgarishiga olib keladi, ishlab chiqarish hajmlari esa bunda o'zgarishsiz qoladi. Oraliq va vertikal kesma-larda narxlar o'sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko'payishi talab inflatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.


5.7. NARXLARNING MUVOZANATLI DARAJASI VA ISHLAB CHIQARISHNING MUVOZANATLI REAL HAJMIGA YALPI TAKLIF O'ZGARISHINING TA'SIRI

Yalpi taklif yoki muayyan narx darajasida bozorda taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning real hajmi narx-navoga bog'liq bo'lmagan bir qator omillar ta'siri ostida bo'ladi. Bu omillar yalpi taklifning goh kamayishini, goh ko'payishini keltirib chiqarishi mumkin. Birinchi holatda yalpi taklif egri chizig'i chapga, ikkinchisida o'ngga suriladi (5.7-chizma).

Shunga muvofiq e_1 muvozanat nuqtasi e_2 va e_3 holatiga suriladi, narxlarning muvozanatli darajasi va ishlab chiqarishning muvozanatli miqdori ham o'zgaradi. Faraz qilaylik, iqtisodiyotda ma'lum bir narxlar darajasida ish haqi oshgan va xodimlarning ijtimoiy sug'urtasiga ajratmalar ko'paygan bo'lsin. Iqtisodiyotdagi bunday vaziyat mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar o'sishiga, foydaning, demakki, yalpi taklifning ham qisqarishiga olib keladi. AS_1 egri chizig'i chapga AS_2 gacha suriladi. Ushbu berilgan yalpi talabda egri chiziqlar e_2 nuqtasida kesishadi, narxlar P_1^* dan P_2^* gacha o'sadi, ishlab chiqarish esa Y_1^* dan Y_2^* gacha qisqaradi.

Ya'ni bu yerda ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi bilan yuzaga kelgan inflatsiya mavjud bo'ladi. O'z navbatida ishlab chiqarishning qisqarishi ishsizlikning o'sishiga olib keladi. Bunday vaziyatni qachonki narxlarning o'sishi (inflatsiya) ishsizlikning o'sishi bilan kuzatilayotgan bo'lsa, stagflatsiya deb ataladi. Agarda narxga bog'liq bo'lmagan

omillar yalpi taklifni kengaytirish tomon ta'sir etsa, masalan, yerning narxi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliq-lar kamaysa va buning oqibatida mahsulot birligiga keta-digan sarf-xarajatlar qisqarsa, unda yalpi taklif egri chizig'i o'ngga suriladi va yalpi talab egri chizig'i e_2 nuqtada kesib o'tadi. Bunda narxlarning muvozanatli darajasi P_1^* dan P_3^* gacha pasayadi, ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi Y_1^* dan Y_3^* gacha oshadi, ya'ni iqtisodiy o'sish holati mavjud bo'ladi.



P – narxlar darajasi

Y – milliy mahsulotning real hajmi

5.7-chizma. *Yalpi taklif o'zgarandagi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi o'zgarishi.*

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Yalpi talab va yalpi taklif deganda nimani tushunasiz?*
2. *Yalpi talab egri chizig'iga qanday narxli omillar ta'sir ko'rsatadi?*
3. *Yalpi talab egri chizig'iga narxlarga bog'liq bo'lmagan qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?*
4. *Yalpi taklif egri chizig'iga qanday narxli omillar ta'sir ko'rsatadi?*
5. *Yalpi taklif egri chizig'iga narxlarga bog'liq bo'lmagan qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?*

VI BOB. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIYA FUNKSIYALARI

- 6.1. ISTE'MOL FUNKSIYASI.
- 6.2. JAMG'ARISH FUNKSIYASI.
- 6.3. INVESTITSIYA FUNKSIYASI.

6.1. ISTE'MOL FUNKSIYASI

Iste'mol bozorini bozor konyunkturasi talablari asosida to'ldirish O'zbekiston makroiqtisodiyotining dolzarb masalalaridan biridir. Ma'lumki, O'zbekistonda iste'mol qilinadigan tayyor mahsulotlarning katta qismi sobiq ittifoqdosh respublikalardan hamda chet ellardan olinar edi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng ular bilan tovar ayirboshlash ham jahon narxlarida, jahon standartlariga moslashtirib borilmoqda. Bu hol bozor iqtisodiyoti ta'limotining makroko'lamdagi iste'mol funksiyasini o'rganishimizni taqozo qiladi. Iste'mol funksiyasining mohiyatini bilishimiz iste'mol bozorini boshqarishimizda asos bo'ladi.

Iste'mol bozori – aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni ayirboshlash makonidir. Iste'mol bozori turli-tuman savdo shoxobchalarini: davlat, kooperativ savdosi, *dehqon bozori va chayqov bozorini o'z ichiga oladi.*

Iste'mol bozorida xaridorlar faqat fuqarolardan iborat bo'lmaydi. Xaridorlar tarkibiga aholiga bepul xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar (kasalxonalar, yetimxonalar, bolalar bog'chasi, qariyalar uyi va boshqalar) ham kiradi. Ular keng iste'mol buyumlarining iste'molchilaridir. Iste'mol bozorida har xil xizmatlar (madaniy, tibbiy, texnikaviy) ham sotiladi. Iste'mol bozorining hajmi unda sotiladigan tovarlarning yalpi summasi (masalan, tovar oboroti)

bilan belgilanadi. Iste'mol tovarlari qat'iy davlat narxlari, nazorat qilinadigan narxlar va erkin narxlarda sotiladi.


Iste'mol bozori o'zining holatiga qarab ikki xil bo'ladi: to'yingan bozor va taqchil bozor yoki och bozor. *To'yingan bozorlarda* xalq iste'moli tovarlari talabga yetarli sifatda va miqdorda bo'ladi. *Taqchil bozorda* esa tovarlar surunkasiga iste'molni qondirmaydi, uning narxi yuqori bo'ladi. Tovarlar narxining yuqoriligi va taqchilligi natijasida iste'molchini ijtimoiy himoyalash zarurati kelib chiqadi. Iqtisodchilar tomonidan «iste'mol savati» va uning qiymati aniqlanadi. «Iste'mol savati» – inson yoki oilaning iste'moli uchun zarur bo'lgan muayyan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning ma'lum darajada yetarli bo'lgan miqdoridir. Narxlarning to'xtovsiz o'sib borayotgan sharoitida aholining ko'rgan zararini qoplash uchun hukumat tomonidan mamlakatda «iste'mol savati» tarkibi aniqlanadi va uni qo'llash taklif etiladi. Misol uchun, O'zbekistonda 1992-yilda, iste'mol savatida davlat tomonidan belgilangan chegaralangan narxlarda 12 xil tovarlar aholiga yetkazib berilgan bo'lsa, 1993-yilda u 7 tagacha kamaytirildi. Demak, «iste'mol savati»dagi mahsulotlar 5 xilga kamaydi. Shuni aytish kerakki, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda «iste'mol savati» umuman qo'llanilmaydi, chunki uning iqtisodiyotga salbiy ta'sir etuvchi tomonlari ham bor.

Makroko'lamda iste'molni o'rganishimiz uchun oraliq iste'mol va pirovard iste'mol tushunchalarini farqlay bilish zarur. Pirovard iste'molda tovar va xizmatlar iste'molchilar tomonidan to'la iste'mol qilinadi yoki tovar va xizmatlarning harakati pirovard iste'molda tugaydi. Oraliq iste'molda bir ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlari keyingi ishlab chiqaruvchi tomonidan mehnat predmeti sifatida foydalaniladi va yana ishlab chiqarish jarayoni davom etadi.

Iste'mol funksiyasi daromadlar bilan uzviy bog'liqdir. Daromadlar ko'payib borishi bilan iste'mol ham ko'payib boradi.

Buni grafikda yaqqol ko'rish mumkin (6.1-chizma).

Grafikdagi har bir nuqta iste'mol va soliqlar to'langandan qolgan daromadning nisbatini ko'rsatadi. **C** chizig'i esa iste'mol va soliqlar to'langandan qolgan daromadning umumlashgan holatini ko'rsatadi.



DI — soliqlar to'langandan qolgan daromad (mlrd. dol.)

6.1-chizma. Iste'mol va soliqlar to'langandan qolgan daromad

Grafikdan ko'rinib turibdiki, uy xo'jaligi olgan daromadlarining asosiy qismini iste'mol uchun sarflaydi. Misol uchun uy xo'jaligining soliqlar to'langandan qolgan daromadi 900 mlrd. dollarga teng bo'lsa, iste'mol va soliqlar to'lagandan qolgan daromadning nisbati 74 mlrd. dollarga teng bo'ladi.

6.2. JAMG'ARISH FUNKSIYASI

Jamg'arma – bu mamlakat yoki firmalar ixtiyoridagi turli majburiy to'lovlar chegirib tashlangandan qolgan daromadning bir qismi. Jamg'arma iste'mol maqsadida ishlatilmaydigan daromaddir. Jamg'arma funksiyasi daromadlar bilan jamg'arma xarajatlarining uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Jamg'arma funksiyasi va uning grafisini ishlab chiqarish va iste'mol yordamida aniqlashimiz mumkin.

Soliqlar to'langandan qolgan daromad (**DI**), iste'mol (**C**) va jamg'armaning yig'indisiga (**S**) tengdir, ya'ni:

$$DI = C + S$$

Bundan jamg'arma quyidagicha aniqlanadi:

$$S = DI - C$$


Jamg'arma funksiyasining grafisini hosil qilishimizda 6.1-jadval ma'lumotlaridan va yuqorida keltirilgan formulalardan foydalanamiz.

6.1-jadval. *Ishlab chiqarish, iste'mol va jamg'arma miqdori (shartli raqamlarda)*


№	(1) Ishlab chiqarish hajmi va daromad (SMM: DI) (mlrd.doll.)	(2) Iste'mol (C) (mlrd.doll.)	(3) Jamg'arma (S) (2) – (1) (mlrd.doll.)
1.	370	375	-5
2.	390	390	0
3.	410	405	5
4.	430	420	10
5.	450	435	15
6.	470	450	20
7.	490	465	25
8.	510	480	30
9.	530	495	35
10.	550	510	40

Jadvaldagi jamg'arma (S) hajmini ifodalovchi ustun raqamlar quyidagicha aniqlanadi: $S_1 = DI - C = 370 - 375 = -5$; $S_2 = 390 - 390 = 0$ va hokazo. 6.1-jadval ma'lumotlaridan foydalanib iste'mol va jamg'arma funksiyalarining grafiklarini chizishimiz mumkin (6.2a – 6.2b-chizmalar).

Jadvaldagi raqamlardan hamda grafikdan ko'rinib turibdiki $DI = 390$ mlrd. dollar bo'lganda iste'mol va jamg'armaning muvozanati vujudga keladi.



6.2a-chizma.
Iste'mol grafigi



6.2b-chizma.
Jamg'arma grafigi

Agarda $DI < 390$ mlrd. dollar bo'lsa, mamlakat hayotida qarzga (kreditga, yordamga, chet el transferti hisobiga) hayot kechirishga to'g'ri keladi. Bu eng avvalo uy xo'jaligiga tegishlidir. Agarda $DI > 390$ mlrd. dollar bo'lsa, jamg'arma qilish imkoniyati vujudga keladi. Shuning uchun DI ni yoki Y_n – sof milliy mahsulotni ko'paytirishga ta'sir etuvchi rag'batlantiruvchi omillar va mexanizmlar tadqiq qilinadi.

Iste'mol va jamg'arma funksiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'armaga o'rtacha moyillik va chegaralangan jamg'arma va iste'molga moyillik tushunchalarini bilishimiz lozim.

Buning uchun 6.1-jadval ma'lumotlaridan iste'molga o'rtacha moyillik (**APC**), jamg'armaga o'rtacha moyillik (**APS**), chegaralangan iste'molga moyillik (**MPC**) va chegaralangan jamg'armaga moyillik (**MPS**) ko'rsatkichlari aniqlanadi:

$$| \quad APC = \frac{\text{Iste'mol}(C)}{\text{Daromad } Y_D} \quad APS = \frac{\text{jamg'arma } (S)}{\text{Daromad } Y_D}$$

6.1-jadvalni davom ettirib **APC**, **APS**, **MPC**, **MPS**larni hisoblasak 6.2-jadvalni keltirib chiqaramiz.

6.2-jadval. Keynsning iste'mol va jamg'arma grafitlari (shartli raqamlarda) 1,2,3 ustunlar mlrd.doll. hisobida)

	(1) Ishlab chiqarish hajmi va daromad (SMM □ DI)	(2) Iste'mol (C)	(3) Jamg'arma (S) (2) - (1)	(4) Iste'molga o'rtacha moyillik (APC) (2) / (1)	(5) Jamg'armaga o'rtacha moyillik (APS) (3) / (1)	(6) chegaralangan iste'molga moyillik (MPC) $\Delta(2) / \Delta(1)$	(7) chegaralangan jamg'armaga moyillik (MPS) $\Delta(3) / \Delta(1)$
1.	370	375	-5	1.01	-0.01	0,75	0,25
2.	390	390	0	1,00	0,00	0,75	0,25
3.	410	405	5	0,99	0,01	0,75	0,25
4.	430	420	10	0,98	0,02	0,75	0,25
5.	450	435	15	0,97	0,03	0,75	0,25
6.	470	450	20	0,96	0,04	0,75	0,25
7.	490	465	25	0,95	0,05	0,75	0,25
8.	510	480	30	0,94	0,06	0,75	0,25
9.	530	495	35	0,93	0,07	0,75	0,25
10.	550	510	40	0,93	0,07	0,75	0,25

Misol uchun daromad darajasi 470 mlrd. dollarga teng bo'lsa,

$$\left\{ \begin{aligned} APC &= \frac{450}{470} = 0.96 & APS &= \frac{20}{470} = 0.04 \end{aligned} \right.$$

Shunday qilib, barcha 10 ta darajadagi **DI** lar bo'yicha **APC** va **APS** larni hisoblaymiz. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, **DI** ning miqdori ko'payib borishi bilan **APC** kamayib boradi, aksincha, **APS** esa ko'payib boradi. Bu yuqoridagi aytilganidek, daromadning ko'payib borishi bilan jamg'armaning ko'payib borishi miqdoriy jihatdan ham asosli xulosa ekanligini tasdiqlaydi. Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ik-

kinchi qismi esa jang'ariladi yoki buni matematik holda ifodalasak:

$$| \quad \mathbf{APC+APS=1}$$

Ikkinchi jadvaldagi 4 – 5-ustunlarda xuddi shu tenglik bajariladi. Misol uchun birinchi qatorda $1,01+(-0,01)=1$.

Uy xo'jaligi soliqlarni to'lagandan keyin qolgan barcha daromadlarni har doim ham iste'mol qilavermaydi. Daromadlar esa ma'lum darajada ko'payib va kamayib turadi.

Iste'mol qilinadigan daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i) chegaralangan iste'molga moyillik deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$| \quad \mathbf{MPC = \frac{\text{Iste'moldagi o'zgarish(o'sish yoki kamayishi)}}{\text{Daromaddagi o'zgarish(o'sish yoki kamayishi)}} =$$

$$| \quad = \frac{\Delta C}{\Delta YD}$$

ΔY_D va ΔS lar quyidagicha aniqlanadi (6.2-jadval, 1 – 2-ustunga qarang) :

$$| \quad \mathbf{\Delta Y_1 = 390 - 370 = 20; \Delta Y_2 = 410 - 390 = 20}$$
 va hokazo

$$| \quad \mathbf{\Delta C_1 = 390 - 375 = 15; \Delta C_2 = 405 - 390 = 15}$$
 va hokazo

$$| \quad \mathbf{MPC_1 = \frac{\Delta C}{\Delta Y} = \frac{15}{20} = 0.75; \quad MPC_2 = \frac{\Delta C}{\Delta Y} = \frac{15}{20} = 0.75;}$$

va hokazo.

Shunday qilib, chegaralangan iste'molga moyillik (6-ustun) aniqlanadi.

Chegaralangan iste'molga moyillik misolimizda barcha sof milliy mahsulot hajmi va daromad miqdorida 0,75 ga teng.

Daromadni o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i) agarda jamg'armaga qo'yilsa, bunday daromad chegaralangan jamg'armaga moyillik deyiladi va quyidagicha aniqlanadi:

$$| \quad \text{MPS} = \frac{\text{Jamg'armaning o'zgarishi(o'sish yoki kamayishi)}}{\text{Daromaddagi o'zgarish(o'sish yoki kamayishi)}} =$$

$$| \quad = \frac{\Delta S}{\Delta Y}$$

$$| \quad \text{MPS}_1 = \frac{\Delta S}{\Delta Y} = \frac{5}{20} = 0,25; \quad \text{MPC}_2 = \frac{\Delta S}{\Delta Y} = \frac{5}{20} = 0,25;$$

va hokazo.

Shunday qilib, 6.2-jadvalning 7-ustuni, ya'ni chegaralangan jamg'armaga moyillik aniqlanadi. Chegaralangan iste'molga moyillik 0,75 ni (6-ustun) tashkil etgan bo'lsa, chegaralangan jamg'armaga moyillik esa qolgan 0,25 ni tashkil etadi.

Chegaralangan iste'molga moyillik va chegaralangan jamg'armaga moyillik birgalikda soliqlar to'langandan qolgan daromadga tengdir. Buni matematik holda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$| \quad \Delta Y = DI = \text{MPC} + \text{MPS}; \quad \text{MPC} + \text{MPS} = 1 \text{ yoki } 0,75 + 0,25 = 1$$

Xulosa qilib aytganda, daromadning o'sgan qismi iste'molga yoki jamg'armaga ketadi. Agar daromadning o'sgan qismi iste'mol qilinmasa, u jamg'armaga qo'yilgan bo'ladi.

Iste'mol va jamg'arma funksiyalarini o'rganishimizda jamg'arma va iste'molning daromadga bog'liq bo'lmagan omillarini ham hisobga olishimiz lozim.

Uy xo'jaliklari iste'moli va jamg'armalari soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad darajasiga bog'liq. Bundan tashqari talab va taklif nazariyasidan ma'lumki, tovarlarga bo'lgan talab shu tovarning narxiga, boshqa tovarlarning narxiga, xaridorlarning did va farosatlariga, boshqa shu kabi omillarga bog'liq. Demak, talabga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida ham iste'mol o'zgaradi.

Uy xo'jaliklari iste'molining ko'payishi va kamayishiga, shuningdek, boshqa omillar ham ta'sir etadi, demak iste'mol egri chizig'i ham o'zgaradi.

Iste'mol va jamg'armaning daromadga bog'liq bo'lmagan omillariga, eng avvalo, boylik kiradi. Uy xo'jaligining boyligi ikki qism boylıklardan tashkil topadi:

1. Uy xo'jaligida uzoq muddat ishlatiladigan mol-mulklar (uy-joy, avtomobil, televizor, sovutgich va hokazo).
2. Uy xo'jaligining moliya mablag'lari (naqd pullar, shaxsiy hisobdagi jamg'armalar, aksiyalar, obligatsiyalar, sug'urta polisleri, nafaqalar).

Uy xo'jaligi yuqoridagi boylıklarni iste'mol qilmay jamg'arish hisobiga to'playdi. Shu bilan birga uy xo'jaligining boyligi qanchalik ko'payib borsa, aksincha u iste'molni ko'paytirib boradi. Boshqacha qilib aytganda, uy xo'jaligining boyligi ko'payib borishi bilan jamg'arma funksiyasining egri chizig'ini pastga, iste'mol funksiyasining grafigini o'ngga suradi. Bu qonuniyat AQSh iqtisodiyotida 20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlarida amalda tasdiqlangan.

Agar tovarlarning narxlari ko'payib borsa, iste'mol hajmi kamayib boradi va aksincha, tovarlarning narxlari pasayib borsa, ularning iste'moli ko'payib boradi. Tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishi uy xo'jaligining tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatlariga ta'sir qiladi, ya'ni tovar va

xizmatlar narxlarining oshirilishi uy xo'jaligining xarid qobiliyatini pasaytiradi va aksincha.

Misol uchun, bir kishida 10 ming dollarlik davlat obligatsiyasi bor bo'lsin, deylik. Tovar va xizmatlarning narxi 10% ga ko'paysa, davlat obligatsiyasi egasining moliyaviy mablag'lari ham taxminan 10% ga qisqaradi. Agarda tovar va xizmatlarning narxi 10% ga kamaysa, obligatsiya egasining moliyaviy mablag'lari taxminan 10% ga ko'paygan bo'lar edi. Moliyaviy mablag'larning ko'payishi esa uning egasining iste'molini kengaytiradi. U ko'proq ehtiyojni qondirishga intiladi.

Uy xo'jaligining yaqin vaqtlarda narxlarning ko'payishini kutishi ularning iste'moliga ham, jamg'armasiga ham ta'sir qiluvchi daromadlarga bog'liq bo'lmagan omillardan biridir. Agar tovarlar narxlarining oshirilishi (tovar defitsiti) kutilayotgan bo'lsa, uy xo'jaligi uni yanada ko'proq iste'mol qilishga, jamg'armalarini esa kamaytirishga harakat qiladi.

Bunda iste'mol ko'payganligi uchun iste'mol egri chizig'i yuqoriga o'ngga suriladi, jamg'arma egri chizig'i esa pastga chapga suriladi.

Agarda uy xo'jaligining iste'molchilik qarzi ko'payib borayotgan bo'lsa, iste'mol va jamg'arma strukturasi ham o'zgarishlar bo'ladi. Iste'molchilik qarzining ko'payishi joriy iste'molning kamayishiga va jamg'armaning ko'payishiga olib keladi. Aksincha, agar iste'molchining qarzi nisbatan kam bo'lsa, u holda uy xo'jaligining joriy iste'moli ko'payadi va iste'molchilik qarzining ko'payishi ham tezlashadi.

Soliqlarning ko'payishi va kamayishi ham iste'mol va jamg'armaning o'zgarishiga olib keladi. Agarda soliqlar ko'paysa, iste'mol ham, jamg'arma ham kamayadi, iste'mol va jamg'arma funksiyasining egri chiziqlari pastga suriladi. Agarda soliqlarning kamayishi hisobiga uy xo'jaligining daromadlari ko'paysa, o'sgan daromaddan ular iste'mol va jamg'arma sifatida foydalanishlari mumkin. Demak, iste'mol va jamg'arma egri chiziqlari yuqoriga suriladi.

6.3. INVESTITSIYA FUNKSIYASI

Investitsiya makroiqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biridir. Investitsiya yordamida yangi sanoat korxonalarini quriladi, mavjudlari ta'mirlanadi, yangi mashina va uskunalari sotib olinadi va hokazo. Investitsiya sof xarajatlarning ikkinchi asosiy qismi (bo'lagi, komponenti) hisoblanadi.

Sof xarajatlarning investitsiyaga sarflanishiga ikkita asosiy omillar ta'sir etadi:

- 1) kutilayotgan sof foyda normasi;
- 2) foiz stavkasi.

Foydaning normasi tadbirkorlarni ma'lum darajada investitsiya xarajatlarini qilishga majbur etadi. Tadbirkorlar agar ular sotib oladigan ishlab chiqarish vositalari foyda beradigan bo'lsagina xarid qiladilar.

Misol uchun, kichik tikuvchilik korxonasining egasi 1000 dollarga yangi tikuv mashinasi sotib olmoqchi bo'ldi. Uni ishlatish muddati 1 yilga teng deydik. Kichik korxonaga egasining yangi tikuv mashinasini sotib olishidan asosiy maqsadi daromad olishni ko'paytirishdir. Yangi mashinani qo'llashdan kichik korxonaga 1100 dollar kutilayotgan sof daromad oladi desak, tadbirkor tikuvchilik mashinasi xarajatini (1000 dollar) qoplagan va 100 dollar daromad olgan bo'ladi. Bu misolimizdagi yangi tikuv mashinasini qo'llashdan kutilayotgan sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_N = \frac{100}{1000} \times 100 = 10\%$$

Shuni ta'kidlash kerakki, kutilayotgan sof daromad ekspluatatsiya xarajatsiz energetika, ip-gazlama, ishchi kuchi, soliqlar va boshqa xarajatlarsiz, 1100 dollarga teng

deb olindi. Boshqacha so'z bilan aytganda, ekspluatatsiya xarajatlaridan tashqari, qolgan, kutilayotgan sof daromad tikuv mashinasi xarajatlarini (1000 dollar) qoplaydi va qo'shimcha 100 dollar daromad keltiradi deb hisoblanadi.

Ishlab chiqarishga investitsiya xarajatlari qilinishi uchun haqiqiy foiz stavkasi ta'sir etadi.

Foiz stavkasi deb, tadbirkorning haqiqiy kapitalni qarzga foydalanishga olishi hisobiga to'laydigan narxi (pul qiymati) tushuniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi (10%) banklar foiz stavkasiga (7 %) nisbatan ko'p (yuqori) bo'lsa, investitsiya qilish ishi tadbirkor uchun foydali bo'ladi.

Agar banklarning foiz stavkasi (masalan, 12%) kutilayotgan sof foyda normasidan (10%) yuqori bo'lsa, tadbirkorning ishlab chiqarishni investitsiyalashi noqulay bo'ladi, chunki undan zarar ko'radi.

Shuni ta'kidlash kerakki, investitsiyalash qarorini qabul qilishda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Nominal foiz stavkasi joriy narxlarda, real foiz stavkasi esa doimiy yoki inflatsiya hisobga olingach aniqlashtirilgan narxlarda hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, real foiz stavkasi – bu nominal foiz stavkasidan inflatsiya chegirib tashlab topilgan foiz stavkasidir.

Yuqoridagi misolimizda narx o'zgarmas deb olindi. "Agar inflatsiya bo'lsa real foiz stavkasi va kutilayotgan sof foyda normasi qanday aniqlanadi?" degan savol tug'iladi.

Misol uchun 1000 dollarli investitsiya 10% haqiqiy kutilayotgan sof foyda keltiradi, deylik. Nominal foiz stavkasi esa 15% ga teng bo'lsin. Birinchi qarashda investitsiya olish noqulay, samarasizday tuyuladi. Agar yillik inflatsiya 10% ga teng bo'lsa, investorning dollardagi moliya

mablag'larining xarid qobiliyati ham 10% ga kamayadi. Nominal foiz stavkasining 15% ekanligini hisobga olib real foiz stavkasini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} | \quad \text{Real foiz stavkasi} &= \\ &= \text{nominal foiz stavkasi} - \text{inflatsiya foizi} = \\ &= 15\% - 10\% = 5\% \end{aligned}$$

Endi real foiz stavkasini (5%) kutilayotgan sof foyda normasi (10%) bilan taqqoslasak, investitsiya olishga qaror qilish mumkinligini aniqlaymiz, ya'ni ($10\% - 5\% = 5\%$) 5% sof kutilayotgan foyda normasiga erishish mumkin ekan.

Yuqoridagi misollarimiz mikroiqtisodiyot obyektiga taalluqlidir. Makroiqtisodiyotda ham mantiqiy jihatdan xuddi shunday tartibda investitsiya olish uchun qaror qilinadi. Kutilayotgan sof foyda normasi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyaga bo'lgan yalpi ehtiyoj ham shuncha ko'p bo'ladi.

Misol uchun, quyidagi 6.3-jadval kutilayotgan sof foyda normasi bilan (%) investitsiya hajmi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Biz undan foydalanib, yalpi kutilayotgan sof foyda normasi va yalpi investitsiyani aniqlaymiz.


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kutilayotgan foyda normasi 16% ga teng va undan ko'p bo'lganda bunday miqdordagi investitsiya loyihalarini investitsiya bilan ta'minlab bo'lmas ekan. Kutilayotgan foyda normasi 14% va 16% bo'lganda 5 mlrd. dollarlik investitsiya mavjud. Buning ma'nosi shuki, qo'shimcha 5 mlrd. dollar investitsiya 12 – 14% oralig'idagi kutilayotgan sof foyda normasini keltiradi. Yana qo'shimcha 5 mlrd. dollar esa 10 – 12% oralig'idagi kutilayotgan sof foyda normasini keltiradi va hokazo.

6.3-jadval. Kutilayotgan foyda va investitsiya (shartli raqamlarda)

Kutilayotgan sof foyda normasi, %	Investitsiya miqdori (yiliga mlrd. dol.hisobida)
16	0
14	5
12	10
10	15
8	20
6	25
4	30
2	35
0	40

6.3-jadvaldagi raqamlardan foydalanib investitsiyaga bo'lgan ehtiyojni aniqlashimiz va uning grafigini yasashimiz mumkin.

Grafikdan ko'rinib turibdiki (6.3-chizma), agar investitsiyaning miqdori 10 mlrd. dollarga teng bo'lsa, foyda normasi 12% va undan ko'p, 14% gacha bo'ladi.



6.3-chizma. Investitsiyaga bo'lgan talab.

Barcha investitsiya qilinadigan obyektlarning kutilayotgan sof foyda normasini aniqlagach, real investitsiya foizini (investitsiya narxini) aniqlaymiz. Yuqorida aytilganidek,

investitsiya olishga qaror qilish uchun eng asosiy shart shuki, kutilayotgan sof foyda normasi foiz stavkasidan yuqori bo'lishi zarur, aks holda, investitsiya xarajatlari qoplanmaydi. Grafikda investitsiyalarga maqbul ravishda to'g'ri keladigan bank foiz stavkasi va kutilayotgan sof foyda normalari keltirilgan. Umumiy xulosa shundan iboratki, barcha investitsiyalanadigan loyihalar foiz stavkasi va kutilayotgan sof foyda normasi teng bo'lgan nuqtagacha amalga oshirilishi mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Iste'mol funksiyasining mohiyati nimada?*
2. *To'yingan va taqchil bozor deganda nimani tushunasiz?*
3. *Jamg'arma funksiyasining mohiyati nimada?*
4. *Iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik qanday aniqlanadi?*
5. *Iste'molga va jamg'arishga chegaralangan moyillik qanday aniqlanadi?*
6. *Investitsiya funksiyasining mohiyati nimada?*
7. *Investitsiyalarga asosan qanday omillar ta'sir etadi?*

VII BOB. KEYNSNING TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT MODELII

- 7.1. TOVAR VA XIZMATLAR BOZORIDAGI MUVOZANAT
 7.2. BUDJET-SOLIQ SIYOSATINING MUVOZANATLI HOLATGA INTILISHGA TA'SIRI
 7.3. MAKROKO'LAMDA INVESTITSIYA VA JAMG'ARMALAR HAMDA ULARNING MUVOZANATI (IS EGRI CHIZIG'I)


7.1. TOVAR VA XIZMATLAR BOZORIDAGI MUVOZANAT

Milliy iqtisodiyotning asosini tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish tashkil etadi. Ular har qanday jamiyatning hayotiy faoliyatini ta'minlab, inson ehtiyojini qondiradi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi. Barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotda yaratilayotgan va iste'molga taklif etilayotgan ne'matlar hajmi ularga bo'lgan talabga muvofiq kelishi lozim va boshqacha qilib aytganda, muvozanatlik holatining quyidagi asosiy sharti bajarilishi kerak:

$$\begin{aligned} & \text{Haqiqatan sarf qilingan xarajatlar} = \\ & = \text{rejalashtirilayotgan xarajatlar} \end{aligned}$$

Rejalashtirilayotgan xarajatlar (**E**) – bu uy xo'jaliklari, firmalar, hukumat tomonidan tovar va xizmatlarni xarid qilishga rejalashtirilgan mablag' miqdoridir ($E=C+I+G$ – yopiq iqtisod sharoitida). Haqiqatan sarf qilingan xarajatlar esa bu ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardir. Haqiqatan sarf qilingan xarajatlar rejalashtirilayotgan xarajatlardan farq qilishi mumkin, qachonki firmalar sotish hajmi o'zgarishi munosabati bilan o'zlarining tovar-moddiy zaxiralarini ko'zda tutilmagan holda ko'paytirsalar yoki kamaytirsalar.

Shunday qilib, zaxiralar iqtisodiyotning muvozanat holatiga intilishida muhim rol o'ynaydi. Agar firmalar iste'molchilar sotib olishni xohlaganlariga qaraganda ko'proq tovarlar ishlab chiqarishsa, bunda ular o'zlarining tovar-moddiy zaxiralarini ko'paytiradi va aksincha, ishlab chiqarish iste'molchilar talabiga nisbatan kam bo'lsa, unda firmalar o'z tovar-moddiy zaxiralarining bir qismini sotib yuboradi.



7.1-chizma. Real sarf-xarajalar (daromad) va rejalashtirilayotgan xarajatlarning o'zaro bog'liqligi

Zaxiralarning o'zgarishi ishlab chiqarish va daromad miqdorlarining bevosita o'zgarishiga olib keladi, ya'ni zaxiralar qanchalik ko'proq jamlansa, ishlab chiqarish va daromad (Y) shuncha ko'p qisqaradi. Mabodo, zaxiralar kamayishi ro'y berayotgan bo'lsa, unda firmalar ishlab chiqarishni kengaytirishga majbur bo'ladi va daromadlar oshib boradi. Bunday urinishlar muvozanat holati boshlanmaguncha, ya'ni daromadlar (yoki real xarajalar) va rejalashtirilgan xarajalar bir-biriga muvofiq kelmaguncha ($Y=E$) davom etaveradi.

Qisqa muddatli davrdagi daromadlar va rejalashtirilayotgan xarajatlar bunday o'zaro bog'liqligining soddalashtirilgan tasviri *Keynsian xochi* nomini olgan (7.1-chizma).

7.2. BUDJET-SOLIQ SIYOSATINING MUVOZANATLI HOLATGA INTILISHGA TA'SIRI

Davlatning budjet-soliq siyosati davlat xarajatlari va soliqqa tortish darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir yetadi. Davlat xarajatlarning oshishi (ΔG) daromadlarning berilgan darajasida rejalashtirilayotgan jami xarajatlarning o'sib borishini bildiradi. Bunda 7.1-chizmadagi $C+I+G$ chizig'i $C+I+G_1$ chizig'iga nisbatan yuqoriga siljiydi (bu yerda $G_1 = G + \Delta G$). Shunga muvofiq muvozanatli daromad Y^* ham o'sadi. U o'ng tomonga siljib Y_1^* holatini egallaydi. Bunda daromadlarning qo'shimcha o'sishi davlat xarajatlarning qo'shimcha o'sishiga qaraganda ko'proq bo'ladi, ya'ni $\Delta Y > \Delta G$, $\Delta Y / \Delta G$ nisbat davlat xarajatlarning multiplikatori deb ataladi. U davlat xarajatlari bir miqdorga ko'payishida muvozanatli daromad qancha oshganligini bildiradi. Davlat xarajatlari jami xarajatlarning bir qismi hisoblanar ekan, demak unday holatda davlat xarajatlari multiplikatori hamda jamg'arishga (MPC) va iste'molga (MPS) bo'lgan cheklangan moyillik o'rtasida aloqa mavjud bo'ladi. Daromadlarda jamg'arish ulushining o'zgarishi qanchalik kam bo'lsa, xarajat shunchalik ko'p va daromadlar miqdori (Y) yuqori bo'ladi. Shunga muvofiq multiplikator ham yuqori bo'ladi. Boshqacha aytganda, multiplikator MPS ning teskari qiymatiga teng yoki $1/MRS$. Biroq $MPS + MPC = 1$ bo'lgani uchun davlat xarajatlari multiplikatori miqdori $1/1 - MPC$ ga barobar bo'ladi. Misol uchun, iste'molga bo'lgan cheklangan moyillik 0,7ga teng bo'lsa, unda multiplikator 3,33 teng bo'ladi ($1/1 - 0,7$). Bu shuni bil-

diradiki, davlat xarajatlarining bir miqdor ko'payishi muvozanatli daromadni 3,33 birlikka oshiradi.

Soliqlarning o'zgarishi (ΔT) daromad va iste'molga teskari ta'sir ko'rsatadi. Soliqlarning kamayishi multiplikator samarasini keltirib chiqaradi, ya'ni daromadlarning soliqlar o'zgarishi miqdoriga qaraganda yanada ko'proq qo'shimcha o'sishiga olib keladi

Soliq multiplikatori yoki daromadlarga soliqlar o'zgarishidan keladigan samara teng:

$$I \quad \frac{\Delta Y}{\Delta T} = \frac{MPC}{1 - MPC}$$

Masalan, agarda iste'molga bo'lgan cheklangan moyillik chegarasi 0,7ga teng bo'lsa, unda soliq multiplikatori $0,7/1-0,7=2,3$ ga teng bo'ladi. Bu shuni bildiradiki, soliqlarni bir miqdorga kamaytirish daromadlarning 2,3 miqdorga o'sishiga olib keladi.

7.3. MAKROKO'LAMDA INVESTITSIYA VA JAMG'ARMALAR HAMDA ULARNING MUVOZANATI (IS EGRI CHIZIG'I)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarning roli va ahamiyati benihoya kattadir. Investitsiya lotincha so'z bo'lib, "kiyintirmoq" ma'nosini bildiradi. Investitsiya ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish)dir. Investitsiyaning moliyaviy va real turlari mavjud:

1) moliyaviy investitsiya – aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishda qo'llaniladi;

2) real investitsiya – mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital qo'yish, shuningdek, yosh suveren davlatlarga qarz berish va subsidiya shakllarida amalga oshiriladi.


Investitsiyani davlat, banklar yoki xususiy sohibkorlar berishi mumkin. Davlat investitsiyasi soliqlar, zayomlar, davlat daromadlari orqali moliyalashtiriladi. Investitsiyaning muddatli qarz olish yo'li bilan jalb qilingan vositalari va qimmatbaho qog'ozlar chiqarishi xususiy investitsiyaning manbai bo'lishi mumkin.

Investitsiyalar, asosan, xalq xo'jaligini uzoq va qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlovchi banklar tomonidan olib boriladi. O'tish davrida investitsiyalarni samarali ravishda boshqarish va tartibga solish juda ham zarurdir. Buning uchun makroko'lamda investitsiya jamg'arma, bank (%) foiz stavkasi, tovarlar muvozanatini ta'minlash mexanizmlarini bilish zarur. Bu mexanizmni o'rganishimiz uchun bank foiz stavkasi va investitsiyaga bo'lgan talablarning o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqamiz. 7.2-chizmada R – banklarning foiz stavkasini, I esa tadbirkorlar, firmalar, korxonalarining investitsiyaga bo'lgan talabini ko'rsatadi.


7.2-chizmadan ko'rinib turibdiki, erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida tadbirkorlarning investitsiyaga bo'lgan talabi – R (banklarning foiz stavkasi) ko'payib borishi bilan aksincha kamayib bormoqda. Agar banklarning foiz stavkasi R_1 dan R_3 gacha ko'paytirilsa, u holda investitsiyaga bo'lgan talab I_3 dan I_1 gacha kamayadi, ya'ni matematik holda ifodalasak, ΔR va ΔI larni keltirib chiqaramiz:

$$| \quad \Delta R = OR_3 - OR_1; \quad \Delta I = OI_3 - OI_1.$$

Banklarning foiz stavkalari ko'payib borishi bilan fond birjalari ham ma'lum o'zgarishlar bo'ladi. Shunday qilib, R va I o'rtasida o'zaro teskari bog'liqlik mavjud ekan. Bunday qonuniyat aholi daromadlari va jamg'armalari o'rtasida ham mavjuddir (7.3-chizma).



7.2-chizma. Investitsiyaga bo'lgan talab




7.3-chizma. Daromad va jamg'armalarning o'zaro bog'liqligi yoki jamg'armalar taklifi

Firmalar, korporatsiyalar va tadbirkorlarning daromadlari ko'payib borishi bilan ularning jamg'armalari ham ko'payib boradi. Jamg'armalar keng va tor ma'nodagi pul formalarida saqlanishi mumkin. 7.3-chizmadan ko'rinib turibdiki, jami daromadlar (firmalar, korporatsiyalar va barcha turdagi korxonalarining daromadlari) **Y_m** miqdordan **Y_n** miqdorgacha ko'paysa, mos ravishda **S_m** dan **S_n** gacha ko'payadi, ya'ni **ΔY** va **ΔS** larni hosil bo'lganligini ko'ramiz:

| ΔY = OY_n - OY_m; ΔS = OS_n - OS_m.

Grafik koordinata nuqtasidan emas, balki **Y** o'qining **a** miqdoridan kesishib o'tgan. Buning sababi shuki, korxonalarining faoliyati uchun albatta ma'lum daromadlari bo'ladi, aks holda daromadi bo'lmagan korxonalar mavjud bo'lmas edi yoki boshqacha so'z bilan aytganda, daromadsiz korxonalar bo'lmaydi.

Investitsiyaga bo'lgan talab (7.2-chizma) va jamg'armalarning taklifi (7.3-chizma) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish uchun ularning grafiklarini taqqoslaymiz (7.4-chizma).




7.4-chizma. Investitsiya talabi va jamg'arma taklifi o'rtasidagi makroko'lamdagi muvozanat

Grafikdan ko'rinib turibdiki, investitsiyaga (**I** ga) bo'lgan talab va jamg'armaga (**S** ga) bo'lgan taklif **N** nuqtada muvozanatlashadi. IS_N miqdordagi investitsiyaga RY_N (%) foizdagi banklarning foiz stavkasi to'g'ri keladi. ($RY_N = IS_N$). Xuddi shuningdek, bu hol amalga oshirilishi uchun **S_n** miqdordagi jamg'arma va **Y_n** miqdordagi daromadning bo'lishi shart, ya'ni **S_n = Y_n** tengligi bajarilishi zarur.

Masalan, 150 mln. so'm jamg'arma bo'lgandagina 150 mln. gacha bo'lgan loyiha yoki ishlab chiqarishlarni investitsiya bilan ta'minlash mumkin.

7.4-chizmadagi investitsiyalar va jamg'armalarning barchasi kesishgan nuqtalaridan quyidagi grafik hosil bo'ladi (7.5-chizma).



7.5-chizma. Tovar bozoridagi investitsiya va jamg'armalarning egri chizig'i yoki **IS** egri chizig'i

Umumiy holda investitsiya va jamg'armalarning yalpi milliy mahsulot bilan bog'liqligi shuni ko'rsatadiki, banklar foiz stavkalarini pasaytirib borishi bilan yalpi milliy mahsulot hajmi ham ko'payib boradi. Buning sababi shuki, milliy iqtisodiyot moliyaviy «kislorodni» ko'proq olishi natijasida yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish ham ko'payib boradi. Ushbu nazariyani atoqli iqtisodchi Xeyk tadqiq qilganligi uchun uning nomi bilan yuritiladi. **IS** egri chizig'ini esa **Xeyk egri chizig'i** deyiladi.

IS egri chizig'i teskari egiluvchan, chunki foiz stavkasining oshishi rejalashtirilgan investitsiyalarning kamayishiga olib keladi, natijada muvozanatli daromad darajasini pasaytiradi. Investitsiyalar funksiyasini quyidagicha belgilaymiz:

$$I = I' - b \times i$$

Bu yerda I' – avtonom investitsiyalar;

i – foiz stavkasi;

b – investitsiyalarning foiz bo'yicha elastikligi

Agar b miqdori katta bo'lsa, **IS** egri chizig'i tekisroq bo'ladi, ya'ni foiz stavkalarining o'zgarishi investitsiyalar

hajmi o'zgarishiga, natijada muvozanatli darajadagi ishlab chiqarishda katta o'zgarishlarga olib keladi. Agar **b** kichik bo'lsa, investitsiyalar foiz stavkasining o'zgarishiga uncha ta'sirchan bo'lmaydi va **IS** egri chizig'i ancha tikroq bo'ladi.

Bundan tashqari, iste'molga bo'lgan cheklangan moyillik yoki soliq stavkalari ham **IS** egri chizig'ining multiplikator ta'sirida qiyaroq (agar multiplikator ko'paysa) yoki tekisroq (agar multiplikator kamaysa) burilishiga olib keladi.

IS egri chizig'i holati avtonom xarajatlar ta'sirida siljiydi. Avtonom talabning ko'payishi **IS** egri chizig'ini o'ngga siljitadi. Davlat xarajatlari yoki transfert to'lovlarning ko'payishi ham **IS** egri chizig'ini o'ngga siljitadi. Davlat xarajatlari yoki transfert to'lovlarning kamayishi **IS** egri chizig'ini chapga siljitadi.

Makroko'lamdagi resurslarning chegaralanganligi milliy iqtisodiyotning rivojlanishida ma'lum muammolarni keltirib chiqaradi. Bu, ayniqsa, investitsiyalar misolida, ilmiy-texnika taraqqiyoti tez rivojlanayotgan sharoitda dolzarb muammodir. Amaliyotda jamg'arma 25 mln. so'm bo'lsa-yu, investitsiyaga bo'lgan talab 30 mln. so'm bo'lsa, (30 mln. so'm - 25 mln.so'm) 5 mln. so'm investitsiya tanqisligini keltirib chiqaradi. Buning oqibatida ishlab chiqarish va boshqa sohalar zarur bo'lgan moliyaviy «kislородni» ololmaydi. Natijada zarur bo'lgan hajmda makroko'lamdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarilmaydi. Bir sohadagi kamroq ishlab chiqarilgan tovar ikkinchi sohada uni kamroq iste'mol qilinishiga yoki qayta ishlanishiga sabab bo'ladi. Bunday makroko'lamdagi salbiy oqibat milliy iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga katta zarba beradi. Demak, investitsiya tanqisligi (misolimizda 5 mln. so'm) milliy iqtisodiyotda kamroq tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga olib keladi, nisbatan kam yalpi milliy mahsulot ishlab chiqiladi va milliy daromad yaratiladi, aholining turmush darajasini yuksaltirish mumkin bo'lgan miqdori-

ga erishilmaydi va hokazo. Investitsiya va jamg'armaning bunday uzviy bog'liqligini nazariy jihatdan Xeyk qonunidan batafsil o'rganish mumkin.

Investitsiyalar qanchalik tanqis bo'lib borar ekan, uning salbiy oqibatlarini ko'payib, kuchayib boradi. Jumladan, ishlab chiqarish pasayib, inflatsiya esa kuchayib boradi. Giperinflatsiya kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri ham o'z vaqtida xalq xo'jaligining yetakchi strukturalarini zarur investitsiyalar bilan ta'minlanmaganligi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirish chet el investitsiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanat.*
2. *Budjet-soliq siyosatining muvozanatli holatga intilishga ta'siri.*
3. *Davlat xarajatlarining multiplikatori.*
4. *Soliq multiplikatori.*
5. *Makroko'lamda investitsiya va jamg'armalar hamda ularning muvozanati (IS egri chizig'i).*

VIII BOB. PUL BOZORIDA MUVOZANAT

8.1. PULNING MOHIYATI, VAZIFALARI VA TURLARI.

8.2. PUL-KREDIT TIZIMI VA PUL MULTIPLIKATORI.

8.1. PULNING MOHIYATI, VAZIFALARI VA TURLARI

Pul – hamma tovarlar va xizmatlarni ayirboshlaydigan, umumiy ekvivalent bo'lgan maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining eng asosiy vositasi. Pul o'zida bozor iqtisodiyoti munosabatlarini gavdalantiradi va uning mahsulidir. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi bilan pulning ahamiyati ortadi. Pul o'z tabiatiga ko'ra uch xil xususiyatga ega: hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi; boylik tim-soli; mehnatning qiymat shaklidagi o'lchov vositasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul 5 vazifani bajaradi:

1) Qiymat o'lchovi sifatida mehnatni gavdalantirganidan tovarlar qiymat miqdori pul orqali o'lchanadi. Shu sababli qiymatning pul shakli mavjud. Pulning qiymat o'lchovi bo'lganligidan mamlakatlar, xalqlar va har bir kishining turmush darajasi aniqlanadi. Shu bilan birga, pul va tovar

narxlarini o'rtasida teskari bog'liqlik bor, ya'ni $P = \frac{I}{D}$.

Bu yerda **R** – tovarlarning narxi, **D** – aholining xarid qobiliyati;

2) Ayirboshlash vositasi. Pul yordamida tovarlar oldi-sotdi qilinadi, pulga tovar ayirboshlash bozor iqtisodiyotining muhim tomonidir;

3) Xazina to'plash va jamg'arish vositasi. Pul o'zida mehnatni gavdalantirgani uchun boylikning umumiy shakliga aylanadi, tovar ayirboshlash to'xtatilishi bilan pul xazina to'plash va jamg'arish vositasiga aylanadi (pul jamg'arish uchun pul qadrligining saqlanishi muhim ahamiyatga ega);

4) To'lov vositasi. Nasiyaga sotilgan tovarlar va xizmatlar haqi to'langanda, qarz qaytarilganda pul to'lov vositasi rolini bajaradi.

5) Dunyo bozoriga chiqqanda qiymatning baynalmilal o'lchoviga, xalqaro xarid vositasiga va xalqaro to'lov vositasiga aylanadi. Bunday vazifani milliy pul emas, balki pulning beshinchi (5) vazifasi hisoblangan jahon puli bajaradi.

Pul o'z xizmati, mazmuni va miqyosiga qarab turli toifaga bo'linadi:

1) Xazina biletleri. Bu pul oddiy muomalada ishlatiladi.

2) Banknot - kredit pullari. Bunday pullar qarz olish va berish jarayonlarida qo'llaniladi.

Pulning vazifalaridan foydalanish yo'li bilan bozor iqtisodiyoti tartibga solinadi, pul muomalasini boshqarish orqali mazkur iqtisodiyotning sog'lomligi ta'minlanadi.

Pul tovar sifatida qiymatga ega. Hozirgi davrda pulning qiymatidan foydalanib uning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi. Shulardan biri qog'oz pullardir. Qog'oz pullarga tovar va pulli xizmatlar ekvivalent almashinadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda bank cheklaridan foydalaniladi. Cheklardan foydalanilganda naqd pulga ehtiyoj kamayadi. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ham keyingi yillarda aholi jamg'arma banklarining cheklaridan foydalana boshladi. Pul muomalasining rivojlanishi natijasida kredit kartochkalaridan keng foydalanilmoqda. Kredit kartochkalari bo'yicha barcha xarajatlar va daromadlar quyi bo'g'indagi bank EHM lari bilan bog'langan bo'ladi. Kartochkalardan foydalanib do'konlardan tovarlar xarid qilish zarur bo'lganda avtomatlardan foydalanib kartochkadagi pullarning bir qismini naqd pulga almashtirish va hatto chet ellar bilan pul muomalasini qilish mumkin. Pul muomalasidagi eng asosiy masalalardan biri mamlakatga zarur bo'lgan pul massasini aniqlash va muomalaga chiqarish hisoblanadi. Bu esa

makroiqtisodiyotning asosiy muammosi sanaladi va davlat tomonidan tartibga solinadi.

Pul massasi – muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullar (xazina va bank biletleri)ning jami miqdori. Xo'jalik muomalasidagi pul vositalarining umumiy hajmiga naqd pullardan tashqari banklarning joriy hisobidagi pul vositalari ham kiradi. Pulning eng samarali miqdordagi massasini chiqarish pulning xarid qilish qobiliyati barqarorligini ta'minlashga olib keladi. Pulning xarid qilish qobiliyati barqarorligi tovar va xizmatlar narxining keskin o'zgarib ketishining oldini oladi, makroiqtisodiyot muvozanatini saqlaydi. Shu bilan birga, pulning xarid qilish qobiliyati aholining turmush darajasini oshirishga ta'sir etadi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda pul muomalasi ikki ko'rinishda yuritiladi: 1) naqd pul muomalasi; 2) naqd bo'lmagan pul muomalasi.

Naqd pul bankdan chiqqach korxonalar, tashkilotlar kasasiga va aholi qo'lga o'tadi. Oldi-sotdi va to'lov xarajatlari bajarilgach, yana pul bankka qaytadi.

Naqd bo'lmagan pul muomalasiga firma, korxonalar, tashkilotlarning bankdagi hisobida turgan pul harakati kiradi va muomala chek, kredit kartochkasi, veksel, obligatsiya, sertifikat va boshqa vositalar harakati shaklida olib boriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlashda «shartnoma tuzish uchun pul» – M_1 va «keng ma'nodagi pul» – M_2 ; M_3 ; M_4 miqdori hisoblanadi.

M_1 o'z ichiga quyidagi pullarni oladi: 1) tanga pullar; 2) qog'oz pullar; 3) joriy hisoblardagi pullar va yo'l cheklari.

Joriy hisoblarda tanga va qog'oz pullarda bajariladigan funksiyalar bajariladi. Joriy hisoblardagi pullar xohlagan vaqtda naqd pullarga aylantirilishi mumkin.

M_2 o'z ichiga M_1 va tezkor jamg'arma hisoblarini oladi. Ba'zi mamlakatlarda banklar yana ba'zi noan'anaviy xiz-

mat turlarini hamda yangi hisoblarni qo'llaydi va M_3 pullari massasini ham aniqlaydi.

M_3 ning tarkibiga quyidagilar kiradi:

$$| \quad M_3 = M_2 + LQQ + BTM + KMM$$

Bu yerda:

LQQ – likvid qimmatbaho qog'ozlar (obligatsiyalar, sertifikat, xazina majburiyatlari va shu kabilar);

BTM – jamoat va budjet tashkilotlarining hisoblaridagi mablag'lari;

KMM – kapital mablag'larni moliyalashtiruvchi mablag'lar.

Eng umumlashgan formadagi «keng ma'nodagi pul» bo'lib M_4 hisoblanadi:

$$| \quad M_4 = M_3 + NLM$$

bu yerda:

NLM – pul bo'lmagan likvid mablag'lar (oltin, brilliant, kumush, platina va shu kabi qimmatbaho pul bo'lmagan mablag'lar).

Likvid yordamida ba'zi aktivlar boshqa biriga o'zgartiriladi. Pulning bir qismi naqd pul sifatida, boshqa qismi shu kabi boshqa qiymat formasida saqlanadi. Ular qimmatbaho qog'ozlar, moddiy qimmatbaho buyumlar, uy-joy va hokazolar bo'lishi mumkin.

Jami pulning taklifi deb, ma'lum vaqt birligida iqtisodiyotga xizmat qilayotgan pullarga (M_1, M_2, M_3, M_4) aytiladi. Pul egasi pulini qanday formada saqlash samarali bo'lsa xuddi shu ko'rinishdan foydalanadi. Eng asosiysi, pul taklifi davlat tomonidan tartibga solinadi.

8.2. PUL-KREDIT TIZIMI VA PUL MULTIPLIKATORI

Kredit to'lab (qaytarib) berish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berish ma'nosini bildiradi. Kredit ssuda kapitali harakat shakli bo'lib, bank va tijorat krediti ko'rinishida amalga oshiriladi. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor, ya'ni kredit beruvchi; ssuda oluvchi tomon esa qarzdor, ya'ni kredit oluvchi deyiladi. Hozirgi vaqtda kredit asosan pul shaklida, to'g'ridan-to'g'ri bank orqali beriladi.

Bank kreditlarining asosiy qoidalari quyidagilardir: muddatlilik, aniq maqsadga yo'naltirilganlik, foiz to'lash, moddiy ta'minlanganlik va boshqalar.

Kredit uzoq va qisqa muddatli (1 yilgacha) bo'ladi. Qisqa muddatli kredit korxonalar va tashkilotlarning aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag'lar ajratish manbai bo'lib hisoblanadi.

Kredit-pul tizimining asosini banklar tashkil etadi. Bank faoliyatining muvaffaqiyati uning foydasiga bog'liq.

Banklar faoliyati va kredit munosabatlarining mohiyatini ko'rib chiqamiz. Misol uchun, korxonalar o'zlarining 10 mln. so'm pulini banklarga jamg'arma sifatida qo'ydi, deylik. Banklar 10 mln. so'mdan foydalanib boshqa korxonalarga qarz berishga harakat qiladi. Banklarga qo'yilgan pulning asosiy qismi naqd bo'lmagan pul sifatida saqlanadi. Turli banklarda naqd pulning salmog'i 3% dan 15% gacha to'g'ri keladi. Pul qo'ygan korxonalarga (shaxslarga) beriladigan naqd pul zaxira pullar deyiladi.

Zaxira pullarning salmog'i bizning misolimizda 10% ga teng bo'lsin. U holda banklardagi balans hisobi quyidagicha bo'ladi.

8.1-jadval. Banklarning balans hisobi

Aktivlar	Passivlar
Zaxira – 1 mln. so‘m	Jamg‘arma – 10 mln. so‘m
Ssudalar – 9 mln. so‘m	
Jami – 10 mln. so‘m	Jami – 10 mln. so‘m

Shunday qilib, pulning miqdori 10 mln. so‘mdan 19 mln. so‘mgacha ko‘payadi. 9 mln. so‘m banklarda yaratilgan puldir. Bu bilan pulni banklarda yaratish tugallanmaydi. Ssuda olgan firmalar o‘ziga zarur bo‘lgan mahsulotni xarid qiladi, mahsulot sotgan firmalar esa olgan daromadi (foy-dasi)ni yana bankka qo‘yadi. Banklar ikkinchi marta yana o‘zi uchun zarur bo‘lgan zaxira mablag‘larini banklarda olib qoladilar va qolgan mablag‘lardan ssuda beradi. Shu tartib takrorlanaveradi. Pulning bunday harakati birinchi qo‘yilgan pulning hammasi zaxira sifatida ishlatilguncha davom etadi.

Demak, misolimizda zaxiradagi har bir so‘m pul 10 so‘m pulni yaratgan ekan. Banklarda yaratilgan yangi pulning zaxira salmog‘iga nisbati pul taklifining multiplikatori deyiladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$| \quad \text{MDP} = \frac{1}{\text{Zaxira salmog‘i}}$$

$$\text{Misolimizdagi } \text{MDP} = \frac{1}{1/10} = 10$$

Albatta, barcha korxonalar va aholi har doim ham pulini banklarda saqlayvermaydi.

Pullarni saqlashning boshqa shakllari ham mavjud. Banklar uchun aholi va korxonalar mablag‘lari banklarda saqlanishi ma‘qul va zarur. Shundagina ular banklarda yangi pullarni yaratishlari mumkin va shunga mos foyda oladilar. Agarda pul banklarga saqlash uchun kam qo‘yilsa, ular shuncha miqdorda zaxiralarini ko‘paytirishlari lozim.

O'zbekistondan biror korxonaga 10 mln. so'm pulni olib chiqib Rossiyaning aksiyalarini sotib oladigan bo'lsa, O'zbekistondagi banklarda pul massasi kamayadi, ya'ni 10 mln. so'mning kamayishi barcha banklar tizimida 100 mln. so'mning kamayishiga olib keladi. Bu kabi munosabatlarni tartibga solish makroiqtisodagi monetarizm siyosati nazariyasining amaliy masalalaridan hisoblanadi.

Kredit (qarz) beruvchi korxonalarning foydasi ular bergan mablag'larning (%) foizidan jamg'arma qo'ygan korxonaga (shaxs)larning (%) foizini ayirib topiladi. Bank foydasini **marja** deb ham yuritiladi.

Kredit tizimiga avvallari faqat banklar kirgan bo'lsa, bozor iqtisodi munosabatlarining rivojlanishi bilan yana boshqa tashkilotlar ham qo'shiladi.

Kredit tizimini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Markaziy bank.
2. Tijorat banklari.
3. Maxsus banklar va moliya kredit institutlari.

AQShda kredit tizimi o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

1. Federal zaxira banki.
2. Tijorat banklari.
3. Ssuda - jamg'arma banklari assotsiatsiyasi.
4. Pul bozorlari fondlari.
5. O'zaro jamg'arma banklar.
6. Kredit uyushmalari.
7. Nafaqa fondlari.
8. Moliya va sug'urta kompaniyalari.
9. Tashqi faoliyat banklari.

Markaziy bank barcha banklarning asosiysi sanaladi. Uning eng muhim funksiyasi bo'lib pul emissiyasi hisoblanadi. U makroko'lamdagi pul siyosatini belgilaydi va yuritadi.

Tijorat banklari bevosita firmalar, korporatsiyalar, korxonalarga hamda aholiga xizmat ko'rsatadi. Fond birjalari-ning o'рни va roli bozor iqtisodiyoti sharoitida ayniqsa, kattadir. Fond birjalarining asosiy vazifasi – qimmatbaho qog'ozlarning samarali xarid qilinishi va sotilishini ta'minlashdir. Fond birjalaridagi aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdisi, asosan, banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy moliya-kredit tizimidan tashqari xalqaro moliya-kredit tizimi ham mavjud. Ulardan Xalqaro valuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabilarni eslab o'tish kifoyadir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Pulning mohiyati va vazifalari.*
2. *Pulning turlari.*
3. *Pul multiplikatori.*

IX BOB. DAVLAT BUDJETI VA SOLIQ SIYOSATI

9.1. *MOLIYA TIZIMI VA DAVLAT BUDJETI.*


9.2. *MAHALLIY BUDJET VA UNING AHAMIYATI.*

9.3. *SOLIQLAR VA ULARNING TURLARI. SOLIQ IMTIYOZLARI.*

9.4. *DAVLAT ZAYOMLARI. EMISSIYA. BUDJETDAN TASHQARI MOLIYA FONDRLARI.*

9.1. MOLIYA TIZIMI VA DAVLAT BUDJETI

Moliya tizimi deganda yalpi milliy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladigan va Davlat tomonidan umummamlakat vazifalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan pul mablag'larining majmuasi tushuniladi. U, asosan, uch bo'g'indan iborat (9.1-chizma).



9.1-chizma.

Davlat budjeti deganda umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar tushuniladi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilishdir.

Davlat budjeti daromad va xarajat qismlarining tarkibi quyidagichadir (9.1-jadval).

DAVLAT BUDJETI TARKIBI

DAROMADLAR	XARAJATLAR
<ul style="list-style-type: none"> • qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar; • davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar; • qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; • yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; • rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar; • qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar. 	<ul style="list-style-type: none"> • budjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari; • joriy budjet transfertlari shaklida; • Kapital xarajatlar shaklida. Ular: <ul style="list-style-type: none"> – asosiy fondlar va vositalarni davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga; – chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga; – davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga; – davlat zaxiralarini vujudga keltirishga yo'naltiriladi. • Kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari shaklida; • rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari shaklida; • davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari shaklida; • davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida; • qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar.

Har bir davlat budjetning daromad qismi bilan xarajat qismining teng bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi. Ammo amalda har doim xarajat daromadga nisbatan ko'proq bo'ladi. Natijada budjet taqchilligi hosil bo'ladi. Uning paydo bo'lishi qator sabablarga bog'liq:

- ishlab chiqarishning pasayishi;
- ijtimoiy dasturlarga ko'zlangan xarajatlardan ko'proq sarflab qo'yish;

- mudofaaga xarajatning oshib ketishi;
- ko'lankali (pinhoni) iqtisodiyotning o'sishi.

Bularning eng xatarlisi ishlab chiqarishning pasayishi bilan pinhoni iqtisodiyotning avj olishidir. Chunki bunday holat davlat budjetiga soliq tushishini keskin kamaytiradi.

Ammo budjetdagi har qanday taqchillikni xatarli deb bo'lmaydi. Agar taqchillik hajmi yalpi ichki mahsulot qiymatining 3 – 5 foiziga teng bo'lib, undan oshib ketmasa, bu iqtisodiyot uchun normal hol hisoblanadi. 2016-yilda O'zbekiston davlat budjeti "...yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi"¹. Hattoki taraqqiy etgan davlatlar budjetida ham taqchillik darajasi 10 foizdan 30 foizgacha bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda davlat budjeti taqchilligiga hamisha ham yo'l qo'yib bo'lmaydigan salbiy hodisa tarzida qaralmaydi. Bundan tashqari, keynschilik nuqtayi nazaridan taqchil moliyalashtirish siyosati ijobiy baholanadi. Barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitlarida YaIMning 2 – 3% doirasida budjet taqchilligiga yo'l qo'yish mumkin deb qaraladi. Cheklangan budjet taqchilligi iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin. Budjet taqchilligini boshqarish deganda uning ta'sirini yalpi talabni oshirish va ishlab chiqarishni jonlantirish o'zaniga burib yuborishga erishishni tushunmoq lozim. Agar inflatsiya jarayonlari ustunlik qila boshlasa, moliya siyosatiga o'zgarishlar kiritish zaruriyati yuzaga keladi. Pul qo'yilishi mumkin bo'lgan taqchillik chegaralari iqtisodiy vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Budjet taqchilligining xatarli yoki xatarli emasligi undan xarajatlarning qaysi yo'nalishlarga sarflanganligiga bog'liq.

¹ И.А.Каримов. Бош мақсадимиз – иқтисодиётимизда олиб бораётган ислохотларни ва таркибий ўзгаришларни кескин чуқурлаштириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка кенг йўл очиб беришдир: Мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза. Тошкент: Ўзбекистон, 2016., Б.21.

Agar xarajatlar iqtisodiyotdagi ustuvor yo'nalishlarni rivojlantirishga sarflangan bo'lsa, u holda bu xarajatlar foydasi bilan qaytadi. Agar aksincha bo'lsa, ya'ni xarajatlar noren-tabel sohalarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalarga ajratilsa, bunday hol budjet taqchilligining keskinlashuviga va inflatsion jarayonlarning kuchayishiga olib keladi.

Budjet taqchilligini qoplash uchun davlat:

- Markaziy bank kreditlaridan foydalanadi;
- davlat obligatsiyalarini aholiga sotishni amalga oshiradi.
- Davlat budjetiga soliq tushumlarini ko'paytiradi.

Natijada davlat qarzi yuzaga keladi. Qarz esa o'z vaqti-da to'lov bilan qadrlidir. Aks holda, davlat qarzi osha borib davlat bankrotga uchrashi hech gap emas. Bunday hol davlatning keyingi avlod taqdiri to'g'risida g'amxo'rlik qilmasligidan dalolat beradi. Chunki bu qarzlarni to'lash o'shalar zimmasiga tushadi. AQShda budjet taqchilligining iqtisodiyot uchun og'irligiga turli nuqtayi nazardan qarab chiqamiz:

1. *AQSh aholisiga qarz bo'lishi.* Bu qarzlarning to'lanishi daromadlarning qayta taqsimlanishiga va natijada YaMMning hajmiga ta'sir etadi.

2. *Chet ellik fuqaro va korxonalariga qarz bo'lishi.* Qarzning bu qismi mamlakatning sof boyligi qisqarishiga olib kelishi mumkin.

3. *Investitsiyalarni siqib chiqish samarasi.* Zayomlar hisobiga budjet taqchilligini qoplashni moliyalashtirish foiz stavkasini oshiradi va oqibatda investitsiyalarning qisqarishiga, o'z navbatida, bu esa asosiy kapitalning qisqari-shi va uzoq muddatda iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish unumdorligi masalalarida qator muammolarga olib keladi.

4. *Tashqi savdo taqchilligining iqtisodiyotga ta'siri.* Budjet taqchilligi iqtisodchilarning fikriga ko'ra mamlakatning xalqaro raqobatiga va iqtisodiy rivojlanishini cheklashga olib keldi. 80-yillarda yaponiyalik tadbirkorlar AQSh budjet taqchilligining 1/3 qismini moliyaviy ta'minladilar.

Dollarga bo'lgan talabning oshishi eksport raqobatini pasaytirdi va import tovarlarga bo'lgan talabni oshirdi.

5. *Foizlarni to'lash xarajatlarining ko'payishi.* Budget taqchilligida zayomlar bo'yicha foiz to'lovlari xarajati salmog'i yildan yilga oshib bormoqda.

Budget ortiqchaligini kamaytirish usullari

1. Muomaladagi pul mablag'larini olib qo'yish;
2. Davlat qarzlarini zayomlar orqali to'lash.

9.2. MAHALLIY BUDJET VA UNING AHAMIYATI

Mahalliy moliya negizini mahalliy budget tashkil etadi. U mahalliy hokimiyat tasarrufida bo'lgan xo'jalik subyektlarining daromad va xarajatlarini o'z ichiga oladi. Odatda mahalliy budget davlat budgetining ajralmas qismi bo'lsa-da, u nisbatan mustaqildir. Mahalliy budgetning umumiy moliya tizimidagi salmog'i 30 foizdan 60 foizgacha bo'lishi mumkin. Masalan, AQSh, Germaniya va Yaponiyada 50 – 60 foizni, Angliya, Fransiyada esa 30 foizdan ko'prog'ini tashkil qiladi.

Ko'p mamlakatlarda mahalliy transport, suv va gaz ta'minoti, maktab, kasalxona va uy-joy qurilishi shaharlarni ta'minlash, kommunal xo'jalik, militsiya va hokazolar mahalliy budgetdan mablag' bilan ta'minlanadi. Mahalliy rayonlar, shaharlar va viloyatlar budgeti daromadlari quyidagi mablag'lardan hosil bo'ladi:

- mahalliy hokimiyat tasarrufidagi korxonalar foydasidan ajratilgan mablag'lar;
- soliqlar:
- jismoniy shaxslarning mulk solig'i;
- yer solig'i;
- kurort zonasi ishlab chiqarish obyektlari qurish uchun olinadigan soliq;
- reklama solig'i;
- transport vositalari egalaridan olinadigan soliq;

- kurort yig'imi;
- savdo huquqi yig'imi;
- vino-arog mahsulotlari bilan savdo qilish huquqini beradigan litsenziya yig'imi;
- mahalliy auksionlar va lotereyalar o'tkazish huquqini beradigan litsenziya yig'imi;
- tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish (gerb) yig'imi;
- davlat budjetidan ajratiladigan subsidiya va subvensiyalar;
- mahalliy zayomlarni chiqarishdan tushgan daromadlar.

Mahalliy budjetning daromad qismi odatda mahalliy ehtiyojni to'la qondirishga qodir emas. Chunki ularning faoliyati nafaqat mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan ishlar, shu bilan birga, umumdavlat dasturlarini bajarish bilan ham bog'liq. Shu sababli davlat markaziy budjetdan ularga subsidiya va subvensiya ko'rinishida moliyaviy yordam ko'rsatadi. Bu yordam mahalliy budjet daromad qismining 20 foizidan 40 foizigacha bo'lishi mumkin.

Subsiya ham, subvensiya ham mahalliy budjetga davlat tomonidan dotatsiya ko'rinishidagi moliyaviy yordamdir.

Dotatsiya – bu iqtisodiyotga budjet orqali ta'sir etish vositalaridan biri bo'lib, qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratishdir. Faoliyati umumdavlat ahamiyatiga molik, lekin o'z daromadi bilan xarajatlarini qoplay olmaydigan korxonalar va tashkilotlarga davlat dotatsiya bilan madad beradi.

Subsiya – bu umumiy dotatsiya bo'lib u mahalliy budjetlarga davlat budjetidan ajratiladi. Uni ishlatish mahalliy hokimiyat ixtiyorida bo'lib, markaz unga aralashmaydi.

Subvensiya – bu maqsadli dotatsiya bo'lib, u mahalliy budjetlarga davlat budjetidan ajratiladi. Uni mo'ljallangan maqsad uchun sarflash majburiy va buni davlat nazorat

qiladi. Agar subvensiya boshqa maqsadda ishlatilgan bo'lsa, u qaytarib olinadi.

Mahalliy budjet xarajatlari quyidagicha sarflanadi:

- mahalliy infrastrukturani rivojlantirishga;
- mahalliy hududni obodonlashtirishga;
- mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy-texnik ishlarga;
- sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiyaga;
- mahalliy hokimiyatni boshqarishga;
- kam ta'minlangan oilalar, qariyalarga moddiy yordam ko'rsatishga;
- oziq-ovqat mahsulotlariga qo'yilgan chakana narxlarning dotatsiyalar qismini qoplashga;
- mahalliy hududda ishlab chiqarishni rag'batlantirishga;
- zaxira fondlarini tashkil qilishga va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy budjetning o'sish sur'ati davlat budjetining o'sishiga nisbatan ilgarilab borishi kuzatiladi. Bu, o'z navbatida, mahalliy hokimiyat rolining oshib borishidan dalolat beradi.

9.3. SOLIQLAR VA ULARNING TURLARI. SOLIQ IMTIYOZLARI

Davlat moliyasi daromadlar va xarajatlarning yaxlitligidan iborat. Davlat daromadlari – bu milliy daromadni va boyligni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning davlatga tekkan qismidir. U bevosita davlat ixtiyoridagi va davlat korxonalari qo'lidagi daromaddan iborat bo'ladi. Davlat daromadlari ichki va tashqi manbalardan tushadi, ammo asosiysi ichki manbadir. Ichki manbaning uch shakli mavjud: soliqlar, zayomlar va emissiya.

Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq budjet va budjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Soliqlarning mohiyatini yanada chuqur o'rganish uchun ularni to'g'ri va egri soliqlarga bo'lib o'rganish zarur.

To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri korxonalar yoki yollanma ishchi daromadidan olinadi. Bunday soliqlar guruhiga korxonalar va tashkilotlardan olinadigan daromad solig'i, mulk solig'i, fuqarolarning daromad solig'i, qishloq xo'jalik solig'i, mahalliy soliqlar kiradi. Bu soliqlarning muhim belgisi shundaki, soliq manbai sifatida korxonalar yoki fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri daromadi va mulki hisoblanadi.

Egri soliqlar korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga solingan bo'lsa-da, u asosan iste'molchilar hisobidan to'lanadi. Bu soliqlar tovarlarga yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarga ustama haq qo'yish orqali undiriladi. Egri soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, chetga chiqariladigan tovarlarga qo'yilgan soliq va boshqalar kiradi.

Soliqlarning vazifalari. Birinchidan, soliqlar **xazina** yoki **fiskal** vazifani bajaradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, soliqlar davlat va jamiyatning moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida davlat xazinasini ixtiyoriga jismoniy va huquqiy shaxslar tomonidan to'langan majburiy to'lovlardir. Davlat budjeti daromadining qariyb 80% soliqlardan tashkil topgan. Soliqlarning xazina vazifasi qayta taqsimlashdan kelib chiqadi. Chunki soliqlar korxonalar, birlashma, tashkilotlar va aholining turli guruhlari daromadlarini qayta taqsimlashning iqtisodiy vositasi bo'lib hisoblanadi. Xazinaga kelib tushishdan oldin soliqlar dastlab korxonalar va aholi daromadini qayta taqsimlashda qatnashib, so'ngra budjetni to'ldiradi.

Ikkinchidan, soliqlar ishlab chiqarishda **rag'batlantirish** vazifasini bajaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning bir me'yorda o'sishini ta'minlashga, mehnat unumdorligini o'stirishga moliyaviy sharoit yaratadi. Soliqlar taqsimlash toifasi sifatida korxonalar moliyaviy sharoit yaratib beradi, ularni moliyaviy tomondan qiziqtiradi. Agar korxonalar keng xalq iste'moli mollari, qishloq xo'jalik mahsulotlari va boshqa bir qator mahsulotlarni ishlab chiqarib, bozorni boyitsa, ularga imtiyozlar, yengilliklar beriladi. Soliqlar har xil mulkchilik shaklidagi korxonalar va

tashkilotlarga teng munosabatda bo'lib, ularning bozorda raqobatlashuviga imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan, soliqlar iqtisodiy munosabatlarni **boshqarish** vazifasini bajaradi. Bunda erkin narxlar orqali katta foyda ko'rayotgan korxonalarining daromadlariga biroz yuqoriroq soliq stavkalari belgilanib budjetga olib qo'yiladi. Soliqlarning bu vazifasi bilan yakka hokim mahsulot ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy tomondan jazolash mumkin. Soliqlarning yana bir muhim vazifalaridan biri – bu nazorat qilishdir. Bunda daromadlardan olinayotgan soliqlar to'liq va o'z vaqtida budjetga tushayotganligi kuzatiladi.

Soliq obyekti soliq olinadigan daromad, mol-mulk yoki iqtisodiy faoliyat bo'ladi. Unga foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, yer, eksport summasi, transport vositasi kabilar kiradi. Agar soliq yerga nisbatan solinsa, u holda mazkur yer maydoni soliq obyekt bo'ladi, foyda yoki daromadga solinsa, soliq obyekt bo'lib, foyda yoki daromad, transport vositasiga soliq solinsa, u holda transportning quvati soliq obyekt bo'lib hisoblanadi. Soliqqa tortilgan obyekt, asosan, soliq nomini ifoda etadi va ba'zi hollarda soliq manbasiga mos keladi. Masalan, daromadga soliq solishda soliq obyekt ham daromad manbai, ham daromadning o'zi bo'lib hisoblanadi. Soliq obyekt juda ham xilma-xil bo'lib, u bevosita davlatning siyosatiga bog'liqdir.

Soliq subyektlari. Soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlar soliq subyektlari hisoblanadi. Bunday tomonlarga, asosan, soliq undiruvchilar va soliq to'lovchilar kiradi. Amaliyotda esa soliq subyekti deganda, asosan, soliq to'lovchilar tushuniladi. Soliq to'lovchilar ikkiga bo'linadi: 1) huquqiy (yuridik) shaxslar, ya'ni korxonalar, firma, kompaniya, tashkilot, birlashmalar va h.k. 2) aholi, ya'ni ayrim jismoniy shaxslar. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz yoki foydaga soliq subyekti bo'lib huquqiy shaxslar hisoblanasa, yer, mol-mulk va transport vositalariga soliq solish-

da esa nafaqat huquqiy shaxslar, shu bilan birga jismoniy shaxslar ham soliq subyekti hisoblanadi.

Soliqlar miqdori belgilangan soliq stavkalariga bog'liqdir. **Soliq stavkasi** deb solinayotgan soliq miqdoriga aytiladi va u asosan foiz(kvota)lar tariqasida belgilanadi. Soliq stavkalari ishlab chiqarish hajmining o'sishi yoki pasayishiga bog'liq bo'ladi.

Undirilgan soliq summasining soliq obyektiga nisbatan hajmi **soliq normasi** deb yuritiladi. Soliq normasi daromad summasi, mol-mulk qiymati yoki uning moddiy miqdoriga qarab belgilanadi. Masalan, daromad solig'i uning ma'lum ulushiga teng bo'ladi (5%, 10%, 15% va h.k.). Soliq normasi oldindan qat'iy, ya'ni o'zgarmas miqdorda yoki progressiv, ya'ni soliq objekti miqdoriga qarab ortib boruvchi shakllarda belgilanadi.

Moliya **soliq imtiyozlarini** ham o'z ichiga oladi, unga soliqdan ozod etish, soliq miqdorini kamaytirish, soliq to'lash shartini yengillashtirish kabilar kiradi. Soliq imtiyozlari uning rag'batlantirish funksiyasini kuchaytirishga qaratiladi. Soliq to'lash xo'jalik subyekti bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqaning asosiy shakli, daromadni xo'jalik subyekti bilan davlat o'rtasida taqsimlash vositasi hisoblanadi. Soliqlar moliya resurslari miqdoriga ta'sir etadi. Agar davlatning moliya resurslarini oshirishga zaruriyati bo'lsa, soliqlar ko'paytiriladi va aksincha, korxonalar, tashkilotlarning faolligini oshirish kerak bo'lsa, soliq imtiyozlari beriladi. Shu sababdan, soliqlarning milliy daromaddagi hissasi o'zgarib turadi. Soliqlar xilma-xil bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda quyidagi asosiy soliqlar kiritilgan: qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq, aksiz solig'i, eksport va import solig'i, respublika hududidan olib chiqib ketilayotgan xomashyo resurslari va mahsulotlarga solinadigan soliq, jamoa xo'jaligi a'zolarining mehnat haqi fondidan olinadigan soliq, korxonaning mol-mulkiga solinadigan soliq, aholidan olinadigan daromad solig'i, yer solig'i va h.k.

Soliq siyosati – bu davlatning soliq borasidagi qonun, farmon va qarorlari ijrosini ta'minlash borasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va faoliyatlar yig'indisidir. Bu siyosatni Davlat soliq qo'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari amalga oshiradi. Soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas va bozor iqtisodiyoti sharoitida zaruriy qismidir. Davlat tomonidan yuritiladigan soliq siyosati to'g'ri va aniq bo'lishi uchun u ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi lozim. Ya'ni soliq tizimi dastlab to'liq o'rganilib, so'ngra undan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilishi mumkin. Aks holda, soliq siyosati ko'zlangan maqsadga erishmaydi.

9.4. DAVLAT ZAYOMLARI. EMISSIYA. BUDJETDAN TASHQARI MOLIYA FONDLARI

Davlat zayomlari davlatning aholi, korxonalar, firma va tashkilotlardan qarz olishi hisobiga o'z moliya resursini hosil etish vositasidir. Davlat xarajati daromadidan oshib ketgan sharoitda oradagi kamomad zayom bilan to'ldiriladi. Davlat markaziy va mahalliy zayomlar chiqarib, ularni sotadi va zayom hisobidan foiz, ya'ni qarz haqi to'lashni zimmasiga oladi. Zayomlar muddati kelgach, davlat uni qayta sotib oladi yoki yangi zayomlarga almashtiradi.

Emissiya davlat tomonidan qo'shimcha qog'oz pullarni chiqarish va qo'shimcha kreditni uyushtirishdir. Shu sababli pul va kredit emissiyasi mavjud bo'ladi. Davlat soliq-lar va zayomlar hisobidan o'z xarajatlarini qoplay olmagan sharoitda emissiyaga qo'l uradi. Zayomlarni sotib turish qulay usul, ammo zayomlar o'tmay qolib, moliyaviy ahvol tanglashishi mumkin. Shunda emissiya najot yo'li deb qaraladi, ammo u inflatsiyani chuqurlashtiruvchi omil hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan tushumlardan tashqari davlat sotib olgan aksiyadan kelgan dividend, davlat pulini bankka qo'yishdan tushgan foiz, davlat mol-mulkidan kelgan ijara haqi, davlat mol-mulkini sotishdan kelgan pul kabilar ham

moliya resursiga kiradi. Daromadlar davlat xarajatlarini qoplash manbai hisoblanadi.

Davlatning xarajatlari davlat ixtiyoridagi moliya resurslarining davlat faoliyati bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanishini bildiradi.

Budjetdan tashqari moliya fondlari ham makromoliya tarkibiga kiradi. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot o'ta markazlashmagan va davlat tomonidan qat'iy chegaralanmagan sharoitda qayta taqsimlanishi oson bo'lgan, ammo makrodarajada (umumjamiyat yoki hududiy darajada) ishlatiluvchi moliya fondlari talab qilinadi. Bu budjetdan tashqari fondlar bo'lib, ular ma'lum maqsad uchun, lekin mustaqil ishlatiladi. MDH mamlakatlarida bu fondga Sotsial sug'urtalash fondi, Pensiya fondi, Davlatning aholini ish bilan ta'minlash fondlari kiradi. Boshqa mamlakatlarda Yo'l qurilish fondi, Tabiatni muhofaza qilish fondi, Tarixiy yodgorliklarni saqlash fondi, Fermerlarga ko'mak berish fondi, Korxonalariga moliyaviy yordam (sanatsiya) fondi, Innovatsiya fondi va boshqalar mavjud. Bu fondlar ayrim dasturlarni amalga oshirish uchun maxsus tashkil etiladi.

NAZORAT SAVOLLARI


1. *Moliya tizimi deganda nima tushuniladi?*
2. *Davlat budjeti nima?*
3. *Davlat budjetining tarkibi qanday?*
4. *Mahalliy budjet va uning ahamiyati.*
5. *Soliqlar va ularning turlari.*
6. *Soliq imtiyozlari.*
7. *Davlat zayomlari. Emissiya.*
8. *Budjetdan tashqari moliya fondlari.*

10.1. PUL BOZORI VA UNI TARTIBGA SOLISH.

10.2. PULNING TALAB VA TAKLIFI (LM EGRI CHIZIG'I). IS VA LM EGRI CHIZIQLARINING MUVOZANATI.


10.1. PUL BOZORI VA UNI TARTIBGA SOLISH

Pul bozorini o'rganishda pulga bo'lgan talab, taklif va uni tartibga solish asoslarini ko'rib chiqamiz.




10.1-chizma.

Pulning taklif chizig'i



10.2-chizma.

Pulning talab chizig'i



10.3-chizma.

Pul bozorida pulga bo'lgan talab va taklif muvozanati

Pul bozorida pul taklifini **mS** bilan belgilaymiz. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, makroko'lamda pul emissiyasi bilan Markaziy bank va davlat shug'ullanadi. Shu sababli pulning taklifi vertikal qonuniyatga ega. Grafikda **R** banklarning foiz stavkalari, qarzga qo'shimcha to'lash salmoqlarini ifodalaydi.

Pulga bo'lgan talab esa umuman tovar talab egri chizig'ining qonuniyatlariga ega. Uning grafikdagi ifodasi quyidagi ko'rinishga ega (10.2-chizma).

Pul bozorida talab va taklifni birgalikda ifodalasak, quyidagi grafik kelib chiqadi (10.3-chizma).

Grafikdan ko'rinib turibdiki, banklarning foiz stavkalari qancha ko'paysa, shuncha unga bo'lgan talab kamayib

boradi. Misol uchun, bankning foiz stavkasi R_n dan R_k miqdorga ko'paytirilsa, mos ravishda pulga bo'lgan talab Q_2m dan Q_1m ga kamayadi yoki:

$$| \quad \Delta Q_m = OQ_2m - OQ_1m$$

$$| \quad \Delta R = OR_k - OR_n$$


Demak, bank foiz stavkasi bilan pulga bo'lgan talab o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud ekan. Bu bog'liqlik aksincha mutanosiblik yo'nalishiga ega.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, pulga bo'lgan talab va taklif egri chiziqlari N nuqtada kesishgan. N nuqtada $mS = mD$, ya'ni pulga bo'lgan talab va taklif muvozanatlashadi. Misolimizda R_n miqdorda bank foiz stavkasi belgilanganda unga Q_2m miqdordagi pul xaridorlar tomonidan olinishi mumkin. Demak, muvozanat nuqta deb ushbu holda N nuqtasiga aytiladi.


Shuni aytish kerakki, pulga bo'lgan talab va taklif bozor iqtisodiyotining talab va taklif qonuni asosida aniq iqtisodiy mexanizm ko'rinishida ishlaydi. Biroq bu mexanizmni davr talabiga moslashtirib turish zarur. Masalan, banklarning foiz stavkalari muvozanat foiz stavkalaridan ko'paytirilsa, unga bo'lgan talab kamayadi va mos ravishda xaridorlar kamayadi. Pul egalari (banklar ham) o'z mablag'larini qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilishga sarflaydi. Natijada, qimmatbaho qog'ozlarga bo'lgan talab oshadi. Qimmatbaho qog'ozlarga bo'lgan talabning oshishi ularning bahosini oshirib yuboradi, bu esa bank foiz stavkalarining nisbatan pasayishiga olib keladi. Pulga bo'lgan talab funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$| \quad mD = f \left(\frac{1}{h} P, YL \right) \quad \text{bu yerda:}$$

mD – pulga bo'lgan talab hajmi; P – pul miqdori; Y – yalpi milliy mahsulot; L – pulning likvidligi; $\frac{1}{h}$ – pulning aylanma (oboroti) tezligi.



10.4-chizma. Pulning talab egri chizig'ining siljishi.



10.5-chizma. Pulga bo'lgan talab ko'payishi bilan bank foiz stavkasining ko'payishi.


Puldan erkin tadbirkorlar, huquqiy va jismoniy shaxslar erkin foydalanadilar. Shuning uchun ham, uning harakati, talab va taklifi erkindir va vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi. Demak, talab egri chizig'i ham mos ravishda talab hajmiga qarab o'ngga, chapga, yuqoriga, pastga suriladi. Agar pulga talab ko'paysa yoki bank foiz stavkasi nisbatan kamaysa, pulning talab egri chizig'i yuqoriga, o'ngga suriladi va aksincha (10.4-chizma) bo'ladi.

Talab egri chizig'i qanchalik yuqoriga, o'ngga surilar ekan, mos ravishda banklarning foiz stavkasi ham ko'payib boradi. Bu holni grafikda aniq ko'rish mumkin (10.5-chizma).

10.5-chizmadan ko'rinib turibdiki, mD talab egri chizig'i mD'' talab egri chizig'i darajasiga ko'tarilishi bilan bank foiz stavkasi R_2 dan R_3 ga ko'payadi. Qanchalik pulga talab ko'payib borar ekan, shunchalik bank foiz stavkalarining ko'payib borishini ko'rish qiyin emas.

Agar biz talab va taklif egri chiziqlari kesishgan muvozanat nuqtalarini aniqlab, ularning barchasini umumlashtirsak (kesishtirsak ham bo'ladi), **LM** egri chizig'i hosil bo'ladi. Buning grafikdagi ifodasi quyidagi ko'rinishga ega (10.6-chizma).

10.6-chizmadagi ixtiyoriy nuqta uchun $mD=mS$ tengligi bajariladi. Demak, **LM** egri chizig'idagi ixtiyoriy nuqta pul bozoridagi ma'lum vaqtdagi muvozanatni ifodalaydi.




10.6-chizma. Muvozanat nuqtalar egri chizig'i.

LM egri chizig'i pul bozorining muvozanati, ya'ni real pulga bo'lgan talab real pul taklifiga teng bo'lgan holatidagi foiz stavkasi va daromadlar darajasi kombinatsiyasini ifoda etadi. **LM** egri chizig'ining holatiga real pul taklifi ta'sir etadi. Agar pul taklifi oshsa, **LM** egri chizig'i o'ngga siljiydi, agar Markaziy bank pul taklifini kamaytirsas **LM** egri chizig'i chapga siljiydi.

10.2. PULNING TALAB VA TAKLIFI (LM EGRI CHIZIG'I). IS VA LM EGRI CHIZIQLARINING MUVOZANATI

Makroko'lamdagi pulga bo'lgan talab (mD) va taklif (mS) davlat tomonidan hamda markaziy bank tomonidan tartibga solinadi. Agar pulga bo'lgan talab ko'paysa, talab egri chizig'i koordinata nuqtasidan uzoqlashadi va o'ngga, yuqoriga suriladi (10.7-chizma).




10.7-chizma. Pulning talab egri chizig'i o'zgarishi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, talab egri chizig'i mos ravishda mD' dan, mD'' ga, so'ngra mD''' ga va hokazo, shu tartibda, surilib boradi. Talab va taklif muvozanat nuqtalarining bir-biri bilan kesishgan nuqtalaridan **LM** egri chizig'i kelib chiqadi. **LM** egri chizig'i uchun va uning ixtiyoriy har bir nuqtasi uchun $MD=MS$ tengligi bajariladi. **LM** egri chizig'i umumiy holda grafikdagi 10.8-chizmada keltirilgan.


Biz **IS** va **LM** egri chiziqlarini yagona grafikda umumlashtirib ifodalasak, makroko'lamdagi tovar va pul muvozanatini hosil qilamiz (10.9-chizma).

Makroiqtisodiyotdagi ushbu model **IS** va **LM** modeli deyiladi.

Bu modelda bir tomondan investitsiya va jamg'armalarning, ikkinchi tomondan likvid va pullarning muvozanatlari umumlashtirilib, muvofiqlashtirilib ifodalanadi.



10.8-chizma. Pulning talabi va taklifi, muvozanat nuqtalarining umumiy **LM** egri chizig'i.



10.9-chizma. Tovar va pul bozorlarining umumiy muvozanati.

Shuni aytish kerakki, **IS** va **LM** modelining mohiyatidan bozor iqtisodiyoti ta'limotining turli oqimlari foydalanadilar. Bu model yordamida muvozanatni tashkil yetish, tartibga solish va eng samarali muvozanat nuqtasini aniqlash va vujudga keltirish mumkin. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, pulning talabini, taklifini Markaziy bank va davlat tartibga soladi. Umumiy model **IS** va **LM** esa davlat tovar ishlab chiqarishini ham ma'lum darajada tartibga solishi mumkin. **IS** va **LM** modeli yordamida, shuningdek, stagflatsiya va inflatsiyani ham ma'lum darajada taxmin qilish mumkin.

Shu sababli bo'lsa kerak, keynschilar ham, monetaristlar ham **IS** va **LM** modeliga murojaat qiladilar va o'zlarining nazariyalarini asoslaydilar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pul bozori va uni tartibga solish.
2. Pulning talab va taklifi (**LM** egri chizig'i).
3. **IS** va **LM** egri chiziqlarining muvozanati.

XI BOB. IQTISODIY O'SISH. IQTISODIYOTNING SIKLIK TEBRANISHI

- 11.1. *IQTISODIY O'SISHNING AHAMIYATI.*
- 11.2. *IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.*
- 11.3. *DAVLATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH IMKONIYATLARI*
- 11.4. *IQTISODIY O'SISH VA AHOLI FAROVONLIGI.*
- 11.5. *IQTISODIY SIKL. IQTISODIYOTNING SIKLIK RIVOJLANISHI.*
- 11.6. *IQTISODIY SIKL FAZALARI.*
- 11.7. *SANOAT VA YIRIK SIKLLAR KONYUNKTURASI. KONDRATYEV-FORRESTORLARNING YIRIK IQTISODIY SIKLLARI.*

11.1. IQTISODIY O'SISHNING AHAMIYATI

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga erishish uchun intiladi va uni davlat siyosatining asosiy maqsadi deb biladi.

Chunki iqtisodiy o'sish quyidagilarni bildiradi:

- milliy mahsulot hajmi va daromadning muttasil ko'payishini, oqibatda esa aholi farovonligining o'sishini;
- ishlab chiqarish fondlari va ishchi kuchlarini xo'jalik oborotiga yanada to'laroq jalb qilishni, ya'ni jamiyatning chegaralangan resurslaridan to'g'ri foydalanishni;
- shaxsning rivojlanishiga olib keluvchi yangi ehtiyojlarni va shu bilan bir vaqtda, ularni qondirishning yangi imkoniyatlari paydo bo'lishini;
- dunyo bozorida davlat ishonchining o'sishi va o'zni mustahkamlanishini.

Bu esa xalqaro ayirboshlashning nisbatan ustunlik qonuniga muvofiq qo'shimcha xarajatsiz millatlar daromadini oshirishga olib keladi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish ayrim salbiy oqibatlarga ham ega. Ularning ichida eng ko'zga tashlanadigani atrof-muhitga ortiqcha zo'r berilishi va natijada uning ifloslanishi.

Barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoitlarni ta'minlash davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. U tartibga solish tayanchlaridan foydalanib, iqtisodiy o'sishning ijobiy tomonlarini kuchaytirish va salbiy tomonlarini tekislash imkoniga ega.

11.2. IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Iqtisodiy o'sish bir qator omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Ularning ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tabiiy resurslarning soni va sifati;
2. Mehnat resurslarining soni va sifati;
3. Asosiy kapital hajmi;
4. Texnologiyalar.

Ko'rinib turibdiki, bularning hammasi ishlab chiqarish omillaridir: kap ital (**K**), mehnat (**L**) va texnologik taraqqiyot (**A**). Bu esa *iqtisodiy o'sish istiqbolini* belgilash maqsadida ishlab chiqarish funksiyasini keng qo'llash imkonini beradi. U iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish omillari miqdorini qo'shimcha o'sish sur'atlari ($\Delta K/K$ va $\Delta L/L$) hamda texnika taraqqiyoti natijasida ularning umumiy unumdorligini qo'shimcha o'sish sur'atlariga ($\Delta A/A$) bog'liq holda mahsulot ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sish sur'atini ($\Delta Y/Y$) hisoblashga imkon beradi:

$$| \quad \frac{\Delta Y}{Y} = \alpha \frac{\Delta K}{K} + (1 - \alpha) \frac{\Delta L}{L} + \frac{\Delta A}{A} \text{ yoki}$$

Ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sish sur'ati	=	kapital his-sasi	+	mehnat hissasi	+	omillar umumiy unumdorligi-ning qo'shimcha o'sishi hissasi
--	---	------------------	---	----------------	---	--

Bu yerda:

$\frac{\Delta A}{A}$ – mehnat unumdorligining o'sish sur'ati;

$\frac{\Delta L}{L}$ – ish bilan bandlikning o'sish sur'ati;

$\frac{\Delta K}{K}$ – kapitallarning o'sish sur'ati.

Bunda koefitsient α ishlab chiqarilgan mahsulotda kapital hissasini, $(1-\alpha)$ – mehnatning hissasini ko'rsatadi. Faraz qilaylik, milliy mahsulotda kapital hissasi 0,3ni, mehnat hissasi esa $1-0,3=0,7$ ni tashkil etsa, unda kapitalning $(\Delta K/K)$ va mehnatning $(\Delta L/L)$ 10% ga qo'shimcha o'sishi ishlab chiqarish hajmining ham 10% ga qo'shimcha o'sishiga olib keladi ($0,3 \times 10\% + 0,7 \times 10\% = 3\% + 7\% = 10\%$). Mahsulotning bu qo'shimcha o'sishiga ekstensiv yo'l bilan, ya'ni kapital zaxiralari va ishchi kuchlari sonining miqdoran kengayishi hisobiga yerishilgan.

Ammo hozirgi sharoitda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi intensiv omillarning ahamiyati keskin oshib ketdi. Chunki bunda iqtisodiy o'sishga iqtisodiy resurslarning miqdoran o'zgarishi hisobiga emas, balki ulardan foydalanish samaradorligini oshirish, ya'ni omillar unumdorligi $(\Delta A/A)$ o'sishi hisobiga erishiladi. Ishlab chiqarish qo'shimcha o'sish sur'atining bu qismi ishlab chiqarish hajmi o'sishi hamda kapital va mehnat hissasi o'rtasidagi farq sifatida qoldiq qoidasi bo'yicha hisoblanadi. Omillar umumiy unumdorligining $(\Delta A/A)$ ulushi Robert Solou tomonidan hisoblab chiqilgan va ishlab chiqarish funksiyasiga kiritilgan. Shuning uchun ham, bu tenglamani ba'zan *Solou modeli* deb atashadi.

Shuningdek, *Solou modelini* makroiqtisodiyotda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlaydigan modellardan biri deb ham yuritishadi. Albatta, bu model AQSh iqtisodiyoti uchun ma'lum davrda kuchga ega bo'lgan. O'zbekiston uchun ham xuddi shu yo'nalishdagi tadqiqotlarni olib borish zarur.

11.3. DAVLATNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH IMKONIYATLARI

Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishni belgilovchi asosiy omillarga fan-texnika taraqqiyoti, ishchi kuchining sifati va ishlab chiqarishni rag'batlantirish kiradi. Shu sababli davlat iqtisodiy o'sishga quyidagi vositalar yordamida ta'sir etishi mumkin:

- fan va texnikaning istiqbolli yo'nalishlari rivojlantirishini qo'llab-quvvatlash;
- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda qatnashish;
- soliq tizimini ixcham qayta qurish.

Fan-texnika taraqqiyotining iqtisodiyotga ta'sir etish ko'lamini hisobga olib, hozirda rivojlangan mamlakatlarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) ga bo'lgan xarajatlar ulushi oshib bormoqda. Shuningdek, ta'lim sohasiga sarflanadigan davlat xarajatlari hissasi ham ortib bormoqda – iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda u o'rtacha 12,6%ni tashkil etadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risidagi ma'ruzalarida shunday deyiladi: "...ta'lim-tarbiya sohasiga har yili sarflanayotgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10-12 foizni tashkil etmoqda. Bu YUNESKONing mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yicha tegishli tavsiyalaridan, ya'ni 6-7 foizdan qariyb 2 barobar ko'pdir".¹

¹ И.А.Каримов. Бош мақсадимиз – иқтисодийимизда олиб бораётган ислохотларни ва таркибий ўзгаришларни кескин чуқурлаштириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка кенг йўл очиб беришдир: Мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза. Тошкент: Ўзбекистон, 2016, Б.25.

Iqtisodiy o'sishga mamlakatning soliq tizimi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Uning soliqqa tortish stavkalarini kamaytirish, shuningdek, amortizatsiyaga ajratmalarning o'sish tomon o'zgarishi investitsiyalar hajmini ko'paytiradi hamda shu orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

11.4. IQTISODIY O'SISH VA AHOLI FAROVONLIGI

So'nggi o'n yilliklarda ijtimoiy va ekologik muammolarning kuchayishi bilan deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga, eng avvalo, aholi farovonligini ta'minlashning sharti sifatida qaralmoqda. 50–60-yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o'sishning miqdoriy nazariyasi o'z o'rnini iqtisodiy o'sishning sifat nazariyasiga bo'shatib berdi. 70-yillar oxirlaridan boshlab jahonda muqim rivojlanish g'oyasi tobora tarqalib bormoqda. Uning asosiy tavsifi kelajak avlodlar ehtiyojini hisobga olishdir. Bunda ekologiya jihatdan cheklashlar va aholining kambag'al qatlamlari ehtiyojlari hisobga olinadi.

Deyarli barcha mamlakatlarda davlat siyosati iqtisodiy o'sishning quyidagi muammolarini hal yetishga yo'naltirilgan:

- iste'mol darajasi yuqori bo'lgan iqtisodiyotning barqaror holatini ta'minlashga qaratilgan omonat jamg'arish me'yorlarini tanlash;
- aholi o'sishini tartibga solish;
- fan-texnika taraqqiyotining ekologiya jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriy yetish va mehnat unumdorligini oshirish.

Iqtisodiy o'sishning ijtimoiy yo'naltirilganligi kuchayib borishi bilan iqtisodiy nazariya va amaliyotda xalq farovonligi tushunchasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada aniqlashtirilmoqda va kengaytirilmoqda.

Ilgarilari u aholi moddiy ta'minlanganligining miqdoriy ko'rsatkichlarini (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mil-

liy mahsulot va daromad, oziq-ovqat mahsulotlari, asosiy noishlab chiqarish tovarlari, xizmatlar, turar-joy va boshqalar iste'moli) aks ettirgan bo'lsa, hozirda birinchi o'ringa o'rtacha umr ko'rish darajasi, o'lim darajasi, shu jumladan, bolalar o'limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta'lim darajasi, atrof-muhitning ahvoli va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar qo'yilmoqda. Ya'ni iqtisodiy o'sish shaxsning rivojlanib borishi uchun sharoit yaratib berishi lozim.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar strategiyasi barqaror rivojlanish g'oyasiga to'la muvofiq keladi. U aholining kambag'al qatlamlarini qo'llab-quvvatlovchi kuchli mexanizm asosida sezilarli ijtimoiy yo'qotishlarsiz iqtisodiyotning yangi sifat holatiga bosqichma-bosqich o'tishni ko'zda tutadi.

11.5. IQTISODIY SIKL. IQTISODIYOTNING SIKLIK RIVOJLANISHI

Iqtisod bir maromda rivojlanmaydi, unga notekis taraqqiyot ham xos. Tarixda har doim iqtisodiy o'sish o'rniga turg'unlik va hatto tushkunlik kelgan, so'ngra yana iqtisodiy o'sish bo'lgan. Iqtisoddagi shunday tebranma harakat ma'lum davrlarda takrorlanib turgan. Iqtisodiy dinamikadagi ko'tarilish va pasayish hodisalarini o'z ichiga oluvchi, iqtisodning tebranib turishi bilan xarakterlanuvchi davr iqtisodiy o'sish sikli deyiladi. Iqtisodiy nazariyalarda sikllar har xil talqin etilgan. Marksizm nazariyasida siklli rivojlanish faqat kapitalizm belgisi deb qaralgan, sikl inqirozdan inqirozgacha bo'lgan davr sifatida baholangan, unda krizis, turg'unlik, jonlanish va yuksalish fazalari mavjudligi qayd yetilgan. Bu nazariyada krizis siklning boshlang'ich nuqtasi deb olingan. Mazkur nazariya XIX asrdagi siklli rivojlanishga xos hodisalarni umumlishtirgan, ammo sikllarning umumiy hodisa ekanligini e'tibordan qochirgan. Hozirgi zamon nazariyalarida iqtisodiy sikllarning mavjudligi tan olinadi, sikl iqtisodiy o'sishga xos tebranma harakat deb talqin yetiladi, ammo uning sabablari har xil izohlanadi.

Sikllar azaldan mavjud. Ular iqtisodiyotning hamma turlariga xos bo'lgan, ammo iqtisoddagi tebranma harakat turli davrda va turli shaklda namoyon bo'lgan. Qadimgi Dunyo va O'rta asrlar iqtisodiyotidagi tebranma harakat asrlar davomida yuz bergan, chunki iqtisodiy o'sish omillari kuchsiz bo'lganidan ulardagi sifat o'zgarishi sekin borgan va bu omillar iqtisodiyotga faol ta'sir eta olmagan. Iqtisodiyot qoloq bo'lgan va uni rivojlantirish uchun investitsiya yetishmagan. Buning ustiga investitsiyalar yangi texnologiyani joriy etish bilan bog'liq bo'lmagan, chunki uning o'zi asrlar davomida kamdan-kam o'zgartirgan. Kishilar tabiiy kuchlardan (masalan, shamol, suv kuchi) foydalanishni o'rganishlari uchun ko'p asrlar kerak bo'lgan. Taraqqiyot sust borganidan sikl o'ta uzun bo'lgan. Iqtisodiyotning ko'tarilishi va pasayishi o'qtin-o'qtin bo'ladigan kashfiyotlar, tabiiy ofatlar va urushlar bilan bog'liq bo'lib kelgan. O'rta asrlardagi iqtisodiy jonlanishlar yelkanli kema-ning kashf etilishi va savdo yo'llarining ochilishi, Amerika qit'asining ochilishi kabi voqealar bilan izohlangan.


Iqtisodiy taraqqiyot sust joyda siklli rivojlanish aniq namoyon bo'lmaydi. Mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish munosabati bilan iqtisodiy o'sishning intensiv usullari harakatga kelgach, iqtisodiyotdagi tebranma harakat ochiq-oydin namoyon bo'ladi va tez-tez takrorlanib turadi. Mashinalar tizimi paydo bo'lgandan so'ng, siklli rivojlanish qonuniy hodisaga aylanadi. Ayniqsa, bu hozirgi fan-texnika revolutsiyasi zamonida kuchayadi. Qoloq va rivojlangan jamiyatdagi iqtisodiy tebranishlar sababi aynan bir xil emas. Qoloqlik davrida bu ko'pincha tabiiy omillar va falokatlar natijasi bo'lgan, chunki iqtisodiy faoliyatga tasodiflar kuchli ta'sir ko'rsata olgan. Iqtisodiy quvvati kuchli jamiyatda ishlab chiqarish tabiiy va boshqa tasodifiy hodisalar ta'sirini kuchsizlantira oladi. Shu sababli tebranishlar iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ularni, asosan, ikki narsa keltirib chiqaradi. Birinchisi, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq investitsiyalar; ikkinchisi, mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab-ehtiyojning

o'zgarishi. Ular birgalikda iqtisodiy o'sishga ta'sir etadi. Mahsulotga talabning ortishi yoki kamayishi ishlab chiqarishni kengaytirishni yoki qisqartirishni taqozo etadi. Bu, o'z navbatida, investitsiyalarni o'zgartiradi. Talab ketidan investitsiyaning ko'payishi ishlab chiqarishdagi texnika va texnologiyani yangilaydi. Ammo ishlab chiqarish haddan tashqari ko'paysa, mahsulot turib qoladi, uni ko'proq ishlab chiqarish zarurati bo'lmaydi, natijada, uni qisqartirishga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarishning texnikaviy yangilanishi vaqti-vaqti bilan bo'lib turadi, shu sababli iqtisodiy o'sish notekis yuz beradi. Iqtisodiy o'sish o'rniga turg'unlik yoki tushkunlik keladi, so'ng ishlab chiqarish yana o'nglanib ketadi. Texnika taraqqiyotining shiddatiga qarab texnikaviy yangilanish muddati qisqaradi. Agar XIX asrning 1-yarmida texnikaning yangilanishi, ya'ni mavjud texnikaning to'zib bo'lishi natijasida uning yangisi bilan almashtirilishi 12 – 15 yilda bo'lsa, XX asrning oxiriga kelib bu muddat 3 – 5 yilga tushib qoldi. Buning ustiga talab-ehtiyoj ham tez yangilanadi. Shu boisdan, o'sish va pasayishdan iborat tebranma harakat sikli (davri) qisqaradi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy siklga jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi ham ta'sir etadi. Bir iqtisodiy tizim (totalitar tizim) inqirozga uchrab, iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmagan holda, unga qodir bo'lgan yangi tizim (bozor tizimi) shakllanib ulgurmagan sharoitda ishlab chiqarishning o'sishi uning tushkunligi bilan o'rin almashadi. Natijada ishlab chiqarishning kamayib ketishi bilan bog'liq iqtisodiy krizis kelib chiqadi. Tushkunlikning davomiyligi, undan chiqish muddati yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga bog'liq. Iqtisodiy tizimlarning o'rin almashuvi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy o'sishdagi o'zgarishlar o'tkinchi, binobarin, vaqtincha bo'ladi. Yangi tizimga o'tilgach, iqtisodiy sikl o'zining qonuniy holatiga qaytadi.

11.6. IQTISODIY SIKL FAZALARI

Iqtisodiy sikl hozirgi nazariyalarga ko'ra to'rt fazadan iborat: 1) o'sish cho'qqisi; 2) pasayish; 3) turg'unlik (depressiya); 4) jonlanish. Shu fazalar ketma-ket o'rin almashib turishi natijasida to'liqsimon harakat yuz beradi. To'liqinning kelib-qaytishi, ko'tarilishi-tushishi kabi harakat iqtisodiyotda yuz beradi, lekin bu iqtisodning ilgari lab borishiga xos. To'liqsimon harakatlar quyidagicha ko'rinishda bo'ladi (11.1-chizma).



Y – Iqtisodiy faollik darajasi

T – Vaqt

11.1-chizma. Iqtisodiy sikl fazalari.

Rasmdan ko'rinadiki, yuqorilashib boradigan to'g'ri chiziq iqtisodiy o'sishni bildiradi. Ammo shu o'sish jaryonida iqtisodiyotning ko'tarilib-pasayib, yana ko'tarilib-pasayib turishidan iborat harakat yuz beradi. Bu harakat ma'lum davrda takrorlanadi. Rasmda to'liqsimon harakatning uch bor takrorlanganini ko'ramiz, chunki iqtisodiyot uch marta o'z cho'qqisiga chiqqan.

Iqtisodiyotning bir faza uzra harakati o'z xususiyatiga ega. O'sish cho'qqisidan iborat faza ishlab chiqarishning yuksalishidan dalolat beradi. Bu fazada iqtisodiy faollik


kuchayadi, buni G'arbda "bum" deb atashadi. Ishlab chiqarish pasaya boradi va quyi nuqtaga tushadi, ishsizlik orta boradi, ishlab chiqarish quvvatlari bo'shab qoladi, tovarlar ham turib qolib, bozor kasodlashadi. Mana shunday tushkunlikni iqtisodiy krizis deb atashadi. Shundan so'ng, depressiya (turg'unlik) fazasi keladi. Bu fazada iqtisodiyot pasaymay, o'smay bir holatda qalqib turadi. Ishsizlik ham bir me'yorda turadi, narxlar o'zgarmaydi, ammo investitsion faollik boshlanadi. Investitsiya ko'payib, ishlab chiqarish yangilanadi, investitsiya kasal iqtisodiyotni davolash uchun berilgan inyektsiya muolaja vazifasini o'taydi. Ishlab chiqarish texnikasi yangilanadi, yangi xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish boshlanadi. Buning natijasida iqtisodiyotda jonlanish kuzatiladi, u sekin-asta yuqoriga ko'tarila boshlaydi, talab o'sadi, narx oshadi, ish bilan band bo'lish ortadi, ishlab chiqarish quvvatlari tobora to'la ishlay boshlaydi. Natijada, ishlab chiqarish yana cho'qqiga chiqib oladi. Shunday harakat qayta-qayta yuz beradi va hodisalar zanjiri bu siklli rivojlanishni bildiradi. Iqtisodiy o'sishning siklli rivojlanish orqali borishi uning muammolari mavjudligidan darak beradi. Iqtisodiy o'sish muammolarini hal etish ijtimoiy taraqqiyotga yo'l ochadi.

11.7. SANOAT VA YIRIK SIKLLAR KONYUNKTURASI. KONDRATYEV-FORRESTORLARNING YIRIK IQTISODIY SIKLLARI

Makroko'lamdagi iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish katta murakkab muammodir. Uning o'sish sur'atlarini jadallashtirish ham, inqirozni to'xtatish ham uzoq va ko'p mehnat, bilim hamda tajriba talab etadi. Makroiqtisodni rivojlantirishning har bir mamlakat uchun o'z andozasi mavjud. Lekin har bir mamlakat makroiqtisodiyotini rivojlantirish uchun asoslaniladigan nazariyalar ishlab chiqilgan. Shunday nazariyalardan biri Kondratyev-Forrestorlar tadqiq etgan sanoat va yirik sikllar konyunkturasi nazariyasidir. Sanoat sikli bu iqtisodiyotda 7–10 (yoki 8 – 12) yilda takrorlanib turadigan iqtisodiyotning pasayishi va jonlanishi-

dir. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarida bo'lgan mamlakatda bu hollarning takrorlanib turishi aniqlangan. Sanoat siklining bunday o'zgarishi bevosita bozor konyunkturasi-ga, talab va taklifning shu yillarda son va sifat jihatdan o'zgarishlariga bog'liqdir. Sanoat sikli adabiyotlarda biznes sikli deb ham ataladi.

Sanoatning rivojlanishi bozor konyunkturasi asosida ma'lum yillarda pasayib boradi. Iqtisodiyotning islohot qilinishi, bozor mexanizmlarining takomillashishi, tashqi faoliyatning takomillashtirilishi natijasida yana sanoatda ma'lum barqarorlik vujudga keladi, so'ngra o'sish sur'atlari jadallashadi. Bu jarayonning davom etishi iqtisodiyotni tartibga solish mahoratiga bog'liqdir.



11.2-chizma. Kondratyev-Forrestorlarning yirik iqtisodiy sikllari

Kondratyev-Forrestorlar nazariyasida yirik sikllar ham tadqiq etilgan. Yirik iqtisodiy sikllar uzoq yillar davomida qaytarilib turadi, lekin muttasil bir xil tartibda qaytarilmaydi. Yirik iqtisodiy sikllarga ham iqtisodiyotning jonlanishi va pasayishi xosdir. Ularning yaxlit to'rt sikli mamlakatlarda 40–50 yilda takrorlanib turadi. Kondratyev-Forrestorlar yirik iqtisodiy sikllarni to'rt fazaga bo'lib tadqiq qilishgan. Buni 11.2-chizmadan yaqqol ko'rish mumkin.

11.2-chizmadan ko'rinib turibdiki, yirik sikllarning birinchi fazasida iqtisodiyotdagi ziddiyatlar hal qilinmasa, u

tez pasayib ketadi. Buning amaliyotdagi yaqqol ifodasi sifatida sobiq sovet ittifoqida o'z vaqtida samarali islohotning o'tkazilmaganligi, sobiq ittifoqdosh respublikalarning bozor iqtisodiyotiga o'tishida samarali makromodelning yaratilmaganligi va shu kabi juda ko'p makroiqtisodiy ziddiyatlarning hal qilinmaganligidan XX asrning 80-yillari oxirida kelib chiqqan inqiroz holatlarini olishimiz mumkin.

Shuning uchun 1990 yildan boshlab iqtisodiyotimizda avval o'sish sur'atlari keskin pasaydi, keyinchalik umuman pasayish kuchayib ketdi. Natijada krizisning keskin kuchayishi bizdan milliy iqtisodiyotni tezlik bilan barqarorlashtirish, so'ngra rivojlantirish modelini yaratishni taqozo etdi. Demak, tarixan qisqa vaqtda juda qiyinchilik bilan ko'tarilgan iqtisodiyot keskin pasayishi mumkin. Birinchi fazada iqtisodiyotning pasayishi iqtisodiy islohot qilinishini taqozo qilar ekan, xuddi shu fazada keng ko'lamda islohot loyihalari, modellari, huquqiy-iqtisodiy normalar, iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqiladi va joriy etiladi. Uning joriy etilishi, avvalo, iqtisodiyotni barqarorlashtiradi, so'ngra rivojlantirishga iqtisodiy bosim beradi. Shuning uchun ikkinchi fazadan boshlab iqtisodiyot jonlana boshlaydi, o'sish sur'atlari ko'payib boradi. Uchinchi va to'rtinchi fazalarda ham xuddi shu tendensiya davom etadi. O'sish sur'atlari **V** nuqtaga kelganda talab va taklif muvozanatlashadi, lekin iqtisodiyotga berilgan rag'batlantiruvchi omillar taklif hajmini vaqt o'tishi bilan talabga nisbatan yanada oshirib yuboradi. To'rtinchi fazada taklif talabdan ko'payib ketadi va tovarlarga talab kamayadi, xarajatlarning qoplanishi qiyinlashadi, hatto korxonalar inqirozga birin-кетин uchray boshlaydi. Natijada yana ishlab chiqarish pasayadi. Ishlab chiqarishning pasayishi yana talab va taklifni muvozanat nuqtasiga (**C**) olib keladi. Lekin u yana inersiya bo'yicha pasayib boradi. Xuddi shu tartibda mamlakatlarda yirik iqtisodiy sikllar takrorlanib turadi.

Demak, birinchi fazada **AS > AD**, ya'ni tovar va xizmatlarning yalpi taklif hajmi yalpi talab hajmidan katta bo'lganligi uchun iqtisodiyot keskin pasayadi, ular muvozanatga intiladi: **AS > AD** yoki **AS = AD**.

O'z inersiyasi bilan pasayayotgan taklif muvozanat nuqta(A)dan ham tushib ketadi va **AS < AD** tengsizligi kelib chiqadi. **AS < AD** inflatsiya, ishsizlik, tovar ishlab chiqarishning pasayishi, iqtisodiy mexanizmlarning samarasizligiga olib keladi. Bu esa milliy iqtisodiyotda islohot o'tkazilishini taqozo etadi. Iqtisodiy tadqiqotlar mahsuli sifatida milliy iqtisodiyotning yangi boshqaruv modeli yaratiladi. Yangi modeldagi iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga iqtisodiy bosim beradi, makroiqtisodiyot rivojlanadi. Yirik iqtisodiy sikllar shu tartibda 40 – 50 yilda bir takrorlanib turadi.

AQShning antisiklik dasturi Xansen tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning mazmuni quyidagicha:

1. Egiluvchan mexanizmlarning o'rnatilganligi (o'rnatilgan stabilizatorlar);
2. Kompensatsiyalovchi qarshi choralarning avtomatik harakati;
3. Kompensatsiyalovchi, boshqaruvchi dasturlar.

Birinchi chora o'z ichiga progressiv daromad solig'i, ishsizlikdan himoyalovchi sug'urta tizimi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini qo'llab-quvvatlovchi tizimni oladi. Bu chora siklik tebranishlar amplitudasini kamaytiradi, lekin daromadning o'sishi va bandlikni ta'minlovchi holatga o'tish uchun ikkinchi chora zarur bo'ladi.

Ikkinchi chora foiz me'yorini kamaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish, federal rezerv tizimi orqali ochiq bozor davlat obligatsiyalarini sotib olish, rezervlar me'yorini pasaytirish, ssudalar miqdorini oshirishdan (kafolatlari bilan birga) iborat.

Uchinchi chora hukumat va kongress o'rtasidagi, xususan, budjetning ishlatilishi masalalari yuzasidan o'zaro kelishuvni o'z ichiga oladi.

Ammo iqtisodiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, 70-yillar-dan keyin bu choralar yetarli bo'lmay qoldi va ularning salbiy ta'sirlari iqtisodiyotga kuchliroq ziyon keltira boshladi.

M.Fridmen fikriga ko'ra davlat miqyosidagi antisiklik dasturlar fan-texnika taraqqiyoti jarayonlari tezligiga mos ravishda harakat qila olmasligi natijasida ularning samarasiz ekanligiga sabab bo'lishini ko'rsatdi.

Bunday markazlashgan choralar o'rniga bozor o'z-o'zini boshqarishi mexanizmlari imkoniyatlaridan foydalaniladigan samarali yo'llarni (reyganomika, tetcherizm) taklif yetdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunasiz?*
2. *Iqtisodiy o'sish qanday usullar bilan aniqlanadi?*
3. *Iqtisodiy davrlarning xususiyatlarini tushuntiring.*
4. *Iqtisodiy o'sishning ahamiyati nimada?*
5. *Iqtisodiy o'sishga qanday omillar ta'sir yetadi?*
6. *Davlat iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir yetadi?*
7. *Iqtisodiy o'sish va aholi farovonligi o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?*
8. *Iqtisodiy sikl deganda nimani tushunasiz?*
9. *Iqtisodiy siklning qanday fazalari mavjud?*
10. *Yirik iqtisodiy sikllar deganda nimani tushunasiz?*

XII BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYALARI

12.1. TASHQI IQTISODIY MUNOSABATLAR STRATEGIYASI.

12.2. TASHQI SAVDO NAZARIYALARI.

12.3. JAHON BOZORI VA TASHQI SAVDONING RIVOJLANISHIGA SABAB BO'LGAN OMILLAR.

12.4. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI VA XORIJIY INVESTITSIYALAR.

12.1. TASHQI IQTISODIY MUNOSABATLAR STRATEGIYASI

Ko'p mamlakatlarda tadbirkorlar xorijiy raqiblarning o'z milliy bozorlariga kirib kelishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilishadi. Ularning maqsadi ravshan: xorijiy raqobat xotirjamlikka yo'l qo'ymaydi, ishlab chiqarishni muntazam yangilashga, xarajatlarni kamaytirish va sifatni yaxshilashga majbur qiladi.

Iste'molchilarni esa yaxshi, sifatli va arzon tovarlar ko'proq bo'lishi qiziqtiradi; tovarning qayerdan keltirilgani, uni ishlab chiqarishdan kim foyda olayotgani ularni unchalik qiziqtirmaydi.

Bu vaziyat dunyodagi ko'p mamlakatlarda yuz berayotgan iqtisodiy va siyosiy nizolarning doimiy manbaidir. Hukumat o'z iqtisodiy siyosatini mamlakat bozorida import tovarlar paydo bo'lishidan yutqazmaydigan, balki yutadigan qilib amalga oshirishi kerak.

Davlat mamlakatga tovarlar olib kelinishini (olib chiqib ketilishini) chegaralashi yoki aksincha, rag'batlantirishiga qarab, uning *tashqi iqtisodiy strategiyasining to'rt asosiy turi farqlanadi*.

1. Qisman ajralish strategiyasi ichki bozorga tovarlarning ayrim turlari kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, mamlakat aholisi turmush tarziga, mafkurasiga mos kelmaydigan kino, video mahsulotlar, matbaa nashrlari.

2. Proteksionizm strategiyasi – ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilish strategiyasi. Odatda, bu strategiyada eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish import mahsulotlari o'rnini qisman qoplash bilan qo'shib olib boriladi. Agar milliy ishlab chiqarish raqobatbardosh bo'lmasa, davlat bunday strategiyani tadbirkorlik tuzilmalarining tazyiqi bilan qabul qiladi. Proteksionizm - mamlakat tadbirkorlari uchun alohida imtiyozli sharoit yaratishdir. Bunday sharoit milliy iqtisodiyotga turlicha ta'sir qiladi.

Bir tomondan, importning cheklab qo'yilishi iste'molchilarga va umuman mamlakatga zarar yetkazadi, chunki xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanilmaydi. Ikkinchi tomondan, mahalliy tadbirkor uchun xorijiy raqobatchilarga qarshi proteksionistik tarzda «homiylilik» choralarini milliy kompaniyalar va firmalar qaddini rostlayotgan paytda juda zarur. Bu choralar xo'jalik yuritishning yangi shakllariga omon qolib, kuch to'plash imkonini beradi.

Masalan, Yaponiya avtomobilsozligi tez rivojlanganining sababi hozir jahonga mashhur bo'lgan firmalar («Mazda», «Nissan», «Toyota») oyoqqa turayotgan sharoitda hukumat amalga oshirgan proteksionizm siyosatidir. Hukumat 1932 yilda hali mustahkam oyoqqa turmagan bu avtokompaniyalarni Amerika avtomobil sanoatining ulkan korxonalaridan himoya qilish maqsadida xorijiy mashinalar va ehtiyot qismlarining import qilinishiga boj to'lovlarini keskin oshirdi.

Proteksionizm milliy iqtisodiyotga salbiy oqibatlar keltirishi ham mumkin. «Homiylilik» sharoiti texnologiyasi eskirgan ishlab chiqarishning saqlanib qolishiga (monopoliya – yakkahokimlik samarasi) olib kelishi mumkin.

Bu o'rinda biz *umuman mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlari bilan uning fuqarolari ayrim guruhlari o'rtasidagi ziddiyatning klassik namunasini ko'ramiz.*

Xalqaro savdo va xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishdan butun mamlakat deyarli hamisha foyda ko'rsa, mamlakat fuqarolarining ayrim guruhlari bundan zarar ko'rish va «milliy iqtisodiyot»ni himoya etishni talab qilishi mumkin.

Bu muammo MDH mamlakatlarida, ayniqsa, keskin bo'lib turibdi, chunki bu mamlakatlarda bozor darvozalari xorijning arzon va sifatli mahsulotlariga ochib qo'yilsa, ko'pgina tarmoqlarning mahsulotlari ichki bozorda import tovarlar bilan raqobatga bardosh bera olmaydi.

Bunday holda ko'p korxonalar sinadi (bankrot bo'ladi) va yopilib qoladi, ularning sobiq xodimlari esa ish qidirishga majbur bo'ladi. Masalan, 1992 yilda shunday vaziyat vujudga keldiki, Rossiyaga chet mamlakatdan (misol uchun Estoniyadan) keltirilgan go'sht (ayniqsa Estoniyaga qo'shni Pskov viloyatidagi) mahalliy firmalarning mahsulotidan arzon bo'lib chiqdi. Rossiya shaharlarida yashovchilar uchun chetdan keltirilgan go'shtni xarid qilish foydali edi, ammo bunday vaziyatda Rossiya chorvachiligi bozordan mahrum bo'lardi va mahsulot narxini arzonlashtirish imkoni yo'qligi sababli (pulning qadrsizlanishidan) o'z sarf-xarajatlarini tezda kamaytirib xonavayron bo'lishardi. Yengil va oziq-ovqat sanoatida, ro'zg'or elektronikasi ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda ham xuddi shunday holat vujudga kelishi mumkin. Davlat yo'li bilan boshqarish va avvalo boj to'lovlari (tariflar) yordamida MDH mamlakatlari bozori- ni chetdan keltiriladigan tovarlar egallab olishidan uzoq vaqtgacha himoya qilishga to'g'ri kelsa kerak.

Proteksionizm siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, mashhur bo'ladi. Ular tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, import o'rnini qoplash maqsadida milliy sanoatni qo'llab-quvvatlash uchun proteksionizm siyosatidan foydalanadi.

Importning o'rnini mamlakatning o'zidagi ishlab chiqarish bilan qoplashda arzon va erkin bozor axborotidan

foydalanilishi ham muhimdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda minglab bir xil tovarlardan qaysinisini xorijda bema'lof sota olishini aniqlashda yetarli tajriba bo'lmagligi mumkin. Ammo markaziy rejalashtirish organlari (xususiyl tadbirkorlar ham) qanday mahsulot o'z bozorida xaridorgir bo'lishini osongina aniqlay oladi. Buning uchun ular import ro'yxatiga ko'z tashlashlari kifoya, bozorda sotilishiga kafolat bo'lgan tovarlar ro'yxati tezda tayyor bo'ladi. Agar mamlakatdagi yangi tovar ishlab chiqaruvchilar sarf-xarajat va sifat muammolarini hal etishga qodir bo'lsa, ularni bojxonalar yordamida muhofaza qilishni ta'minlash uchun hamma asos bor.

3. Erkin savdo strategiyasi («fritreyderlik») – tashqi savdodagi cheklashlarni mumkin qadar kamaytirish strategiyasi. Odatda, bu strategiyani bozorda yetakchi o'rinni egallab turgan, o'z tovarlarining raqobatbardoshligiga putur yetishidan xavfsirashga asos bo'lmagan mamlakatlar qo'llaydi.

Siyosat, ko'p jihatdan, keltirilayotgan mahsulot ichki ishlab chiqarish bilan raqobat qilmaydigan yoki muhim tarmoqlar uchun xomashyo bo'ladigan mamlakatlarda ham erkin savdo qilishga qaratilgan. Agar import ichki ishlab chiqarish bilan raqobat kurashi boshlamasa, mamlakat siyosiy kuchlarining bu mahsulot xaridorga mumkin qadar arzon tushishi kerak degan xulosaga kelishi osonroq bo'ladi. Himoya qiladigan hech narsa bo'lmasa, proteksionizm ishonarli emas. Xorijiy ishlab chiqarish bilan raqobatlashayotgan tarmoqlarga nisbatan yirik tarmoq uchun xomashyo hisoblangan bunday tovar, odatda, boj to'lovidan ozod qilinadi (yoki bu to'lov juda kam), ammo istisnolar ham bo'lishi mumkin.

4. Taqchil bozorni to'ldirish strategiyasi «teskari proteksionizm»dir. Bu strategiya milliy bozorda taqchillik katta bo'lsa, unda hamma uchun joy topilsagina samarali bo'ladi.

O'zbekistonda 1980-yillar oxiri va 1990-yillar boshida xorijiy tovarlarni jalb etish maqsadida shu strategiya unsurlaridan foydalanildi. Sobiq ittifoq respublikalari o'rtasida reja asosida belgilangan eski aloqalarning uzilishi, yangi mustaqil davlatlarda boshlangan iqtisodiy tanlik deyarli barcha tovar bozorlarida taqchillikning avj olishiga sabab bo'ldi. Import mahsulotlaridan olinadigan boj to'lovlarining bekor qilinishi, imtiyozli kredit berish va boshqa choralar 1995-yilning o'rtalariga kelganda taqchillik muammosining tugatilishiga olib keldi.

Davlat tomonidan tanlab olingan u yoki bu strategiya barcha tovarlar va bozorlar bo'yicha amalga oshirilsa, uni joriy etish shartlari juda og'ir kechishi mumkin. Agar bu ayrim tovarlar va bozorlar bo'yicha amal qilsa, shartlari yengil bo'lishi mumkin.

Bu yengillik ko'p davlatlarga o'z faoliyatida bir necha tashqi iqtisodiy strategiyani birga amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, «Umumiy bozor» mamlakatlari qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan o'zaro savdo-sotiqda proteksionizmga amal qiladi, ayni paytda mahsulotlarning ko'p turlari bo'yicha jamoa asosida erkin savdo strategiyasi tanlangan. AQSh Yaponiyaga nisbatan ko'p tovarlar bo'yicha erkin savdo qoidalariga amal qilmoqda, ammo avtomobilsozlikda ikkala mamlakat o'rtasida proteksionizm mavjud bo'lib, u ko'pincha «savdo urushi»ni keltirib chiqaradi. «Savdo urushi» – xalqaro savdo yo'lidagi cheklashlarning eng so'nggi shakli hisoblanadi. «Savdo urushi» ikki mamlakat hukumatlarining ichki bozorga bir-birining mahsulotlari kirib kelishini cheklaydigan o'zaro qarorlar qabul qilishidir. Bunday «urush»larda hozir o'q otilmaydi, qon to'kilmaydi, albatta, lekin busiz ham ehtiroslar avj oladi.

Masalan, 1992-yilning sentabrida AQSh bilan Xitoy ana shunday urush yoqasiga kelib qoldi. Bunga Xitoyning AQShdan import qilinadigan tovarlar yo'lidagi bevosita taqiqlashlar, kvotalar, litsenziyalar, sifat andozalariga rioya

qilishga ortiqcha talablardan iborat g'ovlarni olib tashlashdan bosh tortgani sabab bo'ldi. Xitoy ma'murlari AQSh bilan savdoda katta ustunlikka erishmaganda edi, ularning bosh tortishiga ancha beparvolik bilan qaralgan bo'lardi. O'zaro savdodagi ahvol XRX foydasiga edi; 1991-yilda Xitoy amerikaliklarga o'zi sotib olganidan 12,7 milliard dollarlik ko'p mahsulot sotgan edi. Ayni shu ahvol AQSh hukumatining rasmiy vakillaridan birining «Xitoy xalqaro savdo tizimida juda tez muhim mamlakatga aylanmoqda. Biz savdoning bunday darajasiga ega mamlakatga o'z qoidalari bo'yicha ish tutishiga yo'l qo'ya olmaymiz. Ular eksportdan foyda olishni xohlashsa, importga ham ruxsat etishlari kerak» deyishga majbur qildi.

AQSh shu nuqtayi nazar bilan Xitoydan import qilina-yotgan tovarlarga (yiliga sal kam 4 milliard dollarlik) yuqori boj to'lovlarini joriy etib, Amerika bozorida ularning narxini ikki baravar oshirish bilan do'q qildi. Bunga javoban Xitoy ma'murlari ham, agar, AQSh boj to'lovlarini oshiradigan bo'lsa, Amerika tovarlariga, jumladan, kompyuterlar, samolyotlar, avtomashinalar va boshqalarga xuddi o'shancha, ya'ni 4 mlrd. dollarlik jazo boj to'lovlarini joriy qilishini aytdi.

«Savdo urushi»ning ko'p yillik tajribasi yaxshi rivojlangan mamlakatlarga bunday ahvolda ikkala tomon ham yutqazishini, yaxshisi «jangovar harakatlar» boshlanishiga yo'l qo'ymaslik lozimligini ko'rsatdi. Natijada xalqaro savdoda eksportni ixtiyoriy ravishda cheklash boshlandi.

Yaponiyaning arzon avtomashinalari eksporti tufayli AQSh bilan Yaponiya hamisha «savdo urushi» yoqasida turadi. AQSh iqtisodiyotida avtomobil sanoati alohida o'rinda turishi (AQSh xalqi folkloriga Genri Fordning «Ford uchun nima yaxshi bo'lsa, Amerika uchun ham shu narsa yaxshi» degan gapining kirganligi bejiz emas) hisobga olinsa, bu borada qanday ehtiroslar g'ujg'on o'ynayotganini tasavvur qilish qiyin emas. Yaponiya avtomobilsozlari AQShda o'z

mashinalari savdosi butunlay taqiqlab qo'yilmasligi uchun o'z mahsulotini Amerikaga eksport qilishni cheklashga rozi bo'ldi, Yaponiya hukumati esa Amerika tovarlari importiga cheklashlarni kamaytirdi.

Muvaffaqiyatli rivojlanishda xalqaro savdoning ahamiyati muhimligini hamda bu sohada mojaro chiqishi ehtimoli kattaligini anglash, shuningdek, «savdo urushi»ning og'ir jarohatlari XX asrda ko'p mamlakatlarni jahon bozorini tashkil etishning yangi usullarini izlashga majbur qildi.

12.2. TASHQI SAVDO NAZARIYALARI

Hozirgi davrda xo'jalik aloqalarini baynalmilallashtirish jarayoni kuchaymoqda va har bir alohida davlat iqtisodiyotini rivojlantirish hamda mustahkamlashda tashqi iqtisodiy omil muhim rol o'ynaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning xususiyatlari va ularning samaradorligi milliy iqtisodiyot barqarorligini va uning rivojlanish harakatini aniqlaydi. Shunga ko'ra rivojlangan mamlakatlar xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga va chuqurlashtirishga katta e'tibor bermoqda. Davlatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada kengaytirishga alohida ahamiyat berishiga asosiy sabab har qanday ayirboshlashning ahamiyati, uning samaradorligi, shu jumladan, xalqaro miqyosda ham, kelishilgan bitimlardan tomonlar oladigan afzalliklar bilan belgilanishi, xoh tovar va xizmatlar savdosi bo'lsin, xoh axborotlar, kapital, ishchi kuchi savdosi bo'lsin, ayirboshlashdan olinadigan afzallikka har bir qatnashuvchi mamlakat ega bo'ladi va natijada butun jahon xo'jaligi yutadi.

Adam Smit birinchi bo'lib qaysi mamlakat o'z mahsulotini boshqa mamlakatlarga qaraganda kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqarsa, shu mamlakat xalqaro ayirboshlashda qatnashishi mumkin, deb tushuntiradi. U iqtisodiy nazariyaga mutloq afzallik tushunchasini kiritadi. Ayirboshlashdagi mutloq afzallik tushunchasini quyidagi misolda

tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik, dunyoda faqat ayirboshlashning 2 qatnashuvchisi yoki 2 guruh mamlakatlar – Amerika va Osiyo mavjud hamda ular faqat 2 xil mahsulot – kompyuter va qog‘oz ishlab chiqaradilar. Bunda ishlab chiqarish sharoitlaridagi farqni hisobga olgan holda mahsulot tayyorlashga ketgan sarflar turlicha. Bu sarflar mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan ish soatlarida ifodalanadi. (Bir birlik mahsulotlarga sarflangan zarur vaqt, soatlarda).

12.1-jadval. *Ayirboshlash va mutloq afzallik*

	Amerika	Osiyo
Kompyuterlar	3	10
Qog‘ozlar	6	4

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Amerika kompyuterlar ishlab chiqarishda mutloq afzallikka ega. Chunki u bu tovarlarni ishlab chiqarishga kamroq mehnat sarflaydi. Ammo tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘lmasa, mamlakatlar o‘zlarining mutloq afzalliklaridan foydalana olmaydilar va natijada ularning har biri sarflangan xarajatlari bo‘yicha bir donadan kompyuterga, bir birlik qog‘ozga, butun jahon 2 dona kompyuter va 2 birlik qog‘ozga ega bo‘ladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar sharoitida vaziyat butunlay o‘zgaradi. Amerika bir birlik qog‘oz ishlab chiqarish o‘rniga, unga sarf bo‘ladigan mehnatni (6 soatni) qo‘shimcha 2 dona kompyuter ishlab chiqarishga, Osiyo 1 dona kompyuter ishlab chiqarish o‘rniga unga sarf bo‘ladigan mehnatni (10 soatni) qo‘shimcha 2,5 birlik qog‘oz ishlab chiqarishga sarflaydi. Shu taxlit tashqi iqtisodiy aloqalar natijasida, masalan, 1 dona Amerika kompyuteriga Osiyodan 1 birlik qog‘oz ayirboshlashdan har ikki tomon va butun jahon ishlab chiqarishi yutadi. Chunki keltirilgan mehnat sarflari bo‘yicha Amerika 2 dona kompyuter va 1 birlik qog‘ozga, Osiyo bir dona kompyuter va 2,5 birlik qog‘ozga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, misolimizda mamlakatlarning kamroq xarajatlar bilan biron bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi shu mamlakat uchun qo'shimcha foyda manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mamlakat qandaydir mahsulot ishlab chiqarishda mutloq afzallikka ega bo'lmagan holatlar ham keng tarqalgan. Bunday vaziyatda mamlakat xalqaro aloqalardan, ya'ni ayirboshlashdan manfaatdorligi, jahon xo'jaligi muammosi doirasidan chiqib ketmaydimi, degan savol tug'uladi. Bu savolga David Rikardo nisbiy afzallik qonuni bilan javob beradi. Nisbiy afzallik qonuni mamlakatda barcha kuchni shu yerda nisbatan ko'proq samaradorlikka ega tovarlarni ishlab chiqarishga qaratish va ularni eksport qilib, o'rniga-o'rin o'zi juda kam ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni olib kelish foydalir-oq ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu qonun ayirboshlashda qanday amal qilishini yana yuqoridagiga o'xshash misol yordamida tushuntirish mumkin.

12.2-jadval. *Ayirboshlash va nisbiy afzallik (bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga zarur vaqt, soatlarda).*

	Amerika	Osiyo
Kompyuter	3	10
Qog'oz	6	8
1 dona kompyuter qiymati qog'ozlar sonida ifodalanadi	0,5	1,25
1 birlik qog'oz qiymati kompyuterlar sonida ifodalanadi	2	0,8

Jadvaldagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, Osiyo hech qaysi bir mahsulot bo'yicha mutloq afzallikka ega emas. Biroq nisbiy afzallik qonuniga muvofiq bunday holat Amerikani Osiyo bilan foydali savdo munosabatlariga kirishi uchun to'siq bo'la olmaydi. Chunki buning uchun qandaydir mahsulot bo'yicha mutloq emas, balki nisbatan ko'proq qiymatga ega bo'lishi yetarlidir. Misolimiz-

da 1 dona kompyuterni Amerikaning ichki bozorida 0,5 birlik qog'ozga, Osiyoning ichki bozorida esa 1,25 birlik qog'ozga almashtirishadi. Ya'ni Amerikada kompyuter nisbatan arzonroq. Qog'ozlar ayirboshlashni ko'rib chiqsak, yuqoridagi nisbatlar aksincha, Amerikada 1 birlik qog'oz 2 dona kompyuterga to'g'ri kelsa, Osiyoda bor yo'g'i 0,8 dona kompyuterga to'g'ri keladi. Ya'ni qog'ozlarning nisbiy qiymati Osiyoda bir muncha pastroq. Shu bois, Amerika uchun qog'ozlarni o'zining bozoridan ko'ra arzonroq bo'lgan Osiyo mamlakatlaridan xarid qilishi qulay, qachonki bu ularga arzonroq tushsa, ya'ni 1 birlik qog'ozga 2 donadan kamroq kompyuter sotib olish mumkin bo'lsa, o'z navbatida, Osiyo mamlakatlari 1 birlik qog'ozni berishga rozi bo'ladi, agarda buning evaziga ular 0,8 dona kompyuterdan ko'proq olsa, ya'ni o'z ichki bozoridan ko'proq.

Shunday qilib, ayirboshlashda qatnashuvchi ikki tomonni qondiruvchi mahsulotlarning xalqaro narxini ichki narxlarning ikki navbati o'rtasida belgilash lozim (qog'oz bo'yicha 0,8 va 2, kompyuter bo'yicha 0,5 va 1,25).

Agar almashuv nisbati 1 ga teng bo'lsa, ya'ni bir dona kompyuter 1 birlik qog'ozga o'zaro almashtirilsa, o'sha xarajatlar bilan 1 mamlakat 2 dona kompyuter va 1 birlik qog'ozga, ikkinchi mamlakat 1 dona kompyuter va 1,25 birlik qog'ozga, jahon xo'jaligi 3 dona kompyuter va 2,25 birlik qog'ozga ega bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bunda ayirboshlashdan hamma yutadi. Nisbiy afzallik qonuni har bir mamlakatni mavjud resurslaridan g'oyat oqilona foydalanishga imkon beradigan darajada o'z iqtisodiyotini o'zlashtirishga va boshqa mamlakatlar bilan tovar ayirboshlash natijasida o'z fuqarolarining farovonligini eng yuqori nuqtaga ko'tarishga undaydi. Ta'kidlab o'tish kerak-

ki, yuqoridagi misolda ishlab chiqarishning bir omili – mehnat omili ko'rib chiqildi.

XX asrning 1-choragida «nisbiy afzallik» nazariyasida o'zgarish-lar yuz berib, u D.Xeksher va B.Olinning ishlab chiqarishning omillari nisbatan yangi klassik modeliga aylanadi. Rikardoning nazariyasi faqat har bir mamlakat ishlab chiqarish chiqimlari boshqa mamlakatlarga qaraganda kamroq bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashganligiga asoslangan edi. Shved iqtisodchilari E.Xeksher bilan B.Olin faqat chiqimlar darajasinigina emas, balki tuzilishini ham hisobga olish zarurligini asoslab berdi. Chunki ishlab chiqarishning xususiyatiga bog'liq holda kapital, material va mehnat sarflari ham har xil bo'ladi. Ishlab chiqarishning sermehnat turlari arzon ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan mamlakatlarda, energiyani ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishlar hamda energiya resurslariga boy mamlakatlarda joylashtirilishi kerak va hokazolar. Xeksher-Olinning (X-O) xalqaro savdo modeli Rikardoning «nisbiy afzallik» nazariyasini inkor etmaydi, balki uni yanada mustahkam etadi va aniqlashtiradi. E.Xeksher va B.Olinning aytishicha, mamlakatlar ortiqcha ishlab chiqarish omillaridan unumli foydalanib ishlab chiqargan mahsulotlarni eksport qiladi va o'zlari uchun taqchil bo'ladigan omillardan foydalanib, ishlab chiqariladigan mahsulotni import qiladi.

Ortiqcha ishlab chiqarish omillari va ulardan unumli foydalanish deganda nimani tushunishimizni ko'rib chiqamiz. Agar mamlakatdagi ishchi miqdori bilan boshqa omillar o'rtasidagi nisbat dunyoning boshqa mamlakatlaridagiga qaraganda yuqori bo'lsa, bunday mamlakat ortiqcha kuchga ega deb hisoblanadi. Agar mahsulotning qiymatida ishchi kuchiga qilingan xarajatlar ulushi boshqa mahsulotlarning qiymatidagiga qaraganda ortiqcha bo'lsa, bu mahsulot, sermehnat mahsulot deb hisoblanadi. Bu na-

zariyani misolda ko'rib chiqamiz. Masalan, savdo aloqalari o'rnatilguncha Ukrainada 1 dona ko'ylakka 2 kg shakar, O'zbekistonda 1 dona ko'ylakka $\frac{2}{3}$ kg shakar to'g'ri keladi deb faraz qilaylik. Nima sababdan Ukrainada ko'ylak qimmat-u, O'zbekistonda bu qadar arzon?

Modomiki, Ukrainada 1 ko'ylak 2 kg shakarga tushar ekan, bu hol birinchi navbatda shu bilan izohlanishi kerakki, demak, Ukrainada shakar ishlab chiqarishda unumli foydalanadigan omillar, O'zbekistondagiga nisbatan ko'p va ko'ylak ishlab chiqarishda unumli foydalanadigan omillar nisbatan kam.

Aytaylik, «yer» shakar ishlab chiqarishda unumliroq foydalaniladigan omil, «mehnat» esa ko'ylak ishlab chiqarilishi uchun unumliroq foydalaniladigan omil. Shuningdek, hamma chiqimlarni yer va mehnat sarfidan iborat qilib qo'yishi mumkin, deb taxmin qilaylik (masalan, shakar uchun zarur o'g'itlarni ishlab chiqarishgacha, xuddi shuningdek, ko'ylak ishlab chiqarishga ham ma'lum miqdorda yer va mehnat sarflash kerak). Shunda, agar, Ukraina shakar eksport qilib, ko'ylaklar import qilsa, X-O nazariyasiga ko'ra, bu holda Ukrainada ishlov berishga yer ko'proq bo'lib, mehnat taklifi muayyan darajada taqchilligi tufayli yuz beradi. Bunday vaziyatda (boshqa shartlari teng bo'lganda) Ukrainada yerni ijaraga olish, O'zbekistondagiga qaraganda arzonroq tushishi, to'qimachilik sanoati xodimlari esa O'zbekistondagiga qaraganda bir muncha yuqoriroq ish haqi talab qilishi kerak bo'ladi. Yerning arzonligi dehqonchilikdagi chiqimlarni ko'ylak ishlab chiqarishdagiga qaraganda ko'proq kamaytiradi. Aksincha, ishchi kuchining taqchilligi Ukrainada ko'ylaklarni nisbatan qimmatlashtiradi. X-O nazariyasiga ko'ra xuddi shu narsa savdo aloqalari o'rnatilgunga qadar mavjud bo'lgan narxlar o'rtasidagi farqni tushuntirib beradi. Ana shu nazariyaga muvofiq ish-

lab chiqarish omillari bilan nisbatan ta'minlanishdagi hamda ulardan foydalanish tavsifidagi farqlar savdo aloqalari o'rnatilganidan keyin Ukrainada ko'ylak emas, balki shakar eksport qilishga (va shakar emas, balki ko'ylak import qilishga) sabab bo'ladi. X-Oning bu modelida mantiqqa to'g'ri kelmaydigan g'alati hodisalarni amerikalik iqtisodchi V.Leontyev bir muncha vaqt o'tgach aniqladi. «Leontyev paradoksi» shundan iborat ediki, ishchi kuchi eng qimmat turadigan AQSh g'oyat sermehnat mahsulotni eksport qiladi. Bu paradoks Xeksher-Olin modeli ishlab chiqarishning ko'p ish talab qilishi kabi omilni hisobga olmaganligi natijasida kelib chiqqan ediki, fan texnika revolyusiyasi sharoitida bunday ko'z yumish mutlaqo mumkin emas.

12.3. JAHON BOZORI VA TASHQI SAVDONING RIVOJLANISHIGA SABAB BO'LGAN OMILLAR

Jahon bozori deganda mamlakatlar o'rtasidagi ularning ijtimoiy mahsulotlarining bir qismini sotish bo'yicha o'zaro munosabatlar tizimi tushuniladi. Bu iqtisodiy munosabatlar yoki ayirboshlash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- xalqaro savdo;
- ishlab chiqarish kooperatsiyasi;
- kapital migratsiyasi;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- o'zaro to'lovlar va hisob valuta operatsiyalari.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning eng muhim shakli – xalqaro savdo yoki alohida mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar bilan ayirboshlash hisoblanadi hamda u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tovar bilan ayirboshlash;
 - fan texnika yutuqlari bilan ayirboshlash (litsenziyalar, nou-xau va boshqalar);
-

- asbob-uskunalar yetkazib berishni ko'zda tutadigan kapital qurilish obyektlari bilan savdo qilish, loyiha va qurilish ishlarini bajarish;

- xizmatlar savdosi.

Xalqaro ayirboshlashning barcha boshqa shakllari tashqi savdo rivojlanishi asosida paydo bo'lgan.

Ishlab chiqarish kooperatsiyasi deganda ikki yoki bir necha mamlakatlarning ma'lum bir ishni bajarish yoki qandaydir bir pirovard mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi. Masalan, hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot ishlanmalari, hamkorlikda avtomobillar va boshqa murakkab asbob-uskunalarni ishlab chiqarish.

Hozirgi paytda xalqaro ayirboshlashning tez rivojlanib borayotgan shakllari kapital migratsiyasi, ya'ni kapitalning yuqori foyda ketidan bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib yurishi, shuningdek, ishchi kuchlarining migratsiyasi hisoblanadi. Modomiki, mamlakatlar o'rtasidagi har qanday munosabatlar qiymat jihatidan baholanishga va ma'lum tartibdagi to'lovlarga muhtoj bo'lar ekan, shunga muvofiq tez sur'atlar bilan valuta munosabatlari ham taraqqiy etadi.

Mamlakatni jahon bozorida tutgan o'rni uning tabiiy geografik sharoitlari, fan-texnika va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot darajasi, xalqaro mehnat taqsimotida o'ynaydigan roli bilan aniqlanadi.

O'zbekiston o'zida boy tabiiy resurslar zaxirasiga, sanoat, qishloq xo'jaligi, infrastruktura rivojlangan tarmoqlariga, shuningdek, tayyorlangan ishchi kuchlariga ega bo'lgani holda dunyo bozorida sezilarli rol o'ynashi mumkin va zarur.

Tashqi savdo tovar va xizmatlarni olib kelish (import) va olib chiqish (eksport) dan tashkil topib, o'zida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shaklini namoyon etadi. Uning kengayishi va chuqurlashuvi oqibatida kapitalni olib

kelish, olib chiqish hamda u bilan bog'liq bo'lgan xalqaro moliya, valuta va kredit munosabatlari rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Tashqi savdoning paydo bo'lishi ikki eng muhim sharoit bilan bog'langan. Birinchidan, mamlakatlararo tabiiy, xomashyo resurslarining notekis taqsimlanganligidir. Masalan, Yaqin Sharq mamlakatlari hissasiga jahon neft zaxiralarning 66%i to'g'ri kelgan, rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy gaz, boksitlar va boshqa nodir resurslarning 70 – 80%i joylashgan. G'arb mamlakatlarining ko'pchiligi esa bu resurslarga g'oyat muhtojlik sezadi. Tashqi savdo zarurligini belgilovchi ikkinchi muhim omil – turli mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning notekis rivojlanganligidir. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish samaradorligidagi farq narxlardagi farqqa olib keladi. Shu orqali ularni olib kelish yoki olib chiqish evaziga qo'shimcha foyda olish imkoniyatini beradi. Bu ikki omil har qanday mamlakatning takror ishlab chiqarish jarayonida tashqi savdoning ahamiyatini asoslab beradi. Tashqi savdoni ifodalash uchun eksport va import hajmi, ya'ni tashqi savdo oboroti, ularning harakati, shuningdek, YaIMdagi ulushi, tovarlar tarkibi va boshqa ko'rsatkichlar ishlatiladi.

Masalan, hozirgi paytda xalqaro savdoning hajmi AQShda yalpi ichki mahsulotning 16 – 18%i ni, Germaniyada 36 – 40% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2014 yilda O'zbekistonda 46% atrofida bo'lgan.¹

¹ Муаллифлар томонидан қуйидагилар асосида ҳисоблаб чиқилган: Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистикаси Қўмитаси. Тошкент 2015. Б.23, 314; <http://old.cbu.uz/uzc/section/rates/2014-12-31>

12.4. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI VA XORIJIY INVESTITSIYALAR

Kapitalning harakati yoki uning yuqoriroq foyda olish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib yurishi, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning markazlashuvi va moliya kapitalining vujudga kelishi oqibatida yuzaga keldi. Tadbirkorlar va hukumatlar, xorijiy sheriklariga qarzlari berib, xorijda o'z ishlarini tashkil etib va chet el banklarida o'z banklarining muxbirlik hisoblarini ochib, o'zga boshqa mamlakatda qimmatbaho qog'ozlarni va ko'chmas mulk sotib olib kapitalni mamlakatdan olib chiqib ketilishini amalga oshiradi. Shu bilan bir vaqtda, kapitalni mamlakatga olib kelish jarayoni ham kechadi.

Shunday qilib, kapital harakatining mohiyati shundan iboratki, bir mamlakatning qarz beruvchilari yoki mulk egalari xorijiy qarz oluvchilarga, o'zlarining xorijda joylashgan shoxobchalariga ayni shu vaqtda foydalanish uchun pul yoki investitsiya tovarlarini beradi. Buning evaziga kelajakda foiz yoki dividend keltiradigan majburiyatlarni yoki aksiyalarni oladi.

Yuqorida aytib o'tilgan shartlarga muvofiq kapital harakatining bir necha shakllari ajratiladi:

1. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra – ssuda kapitali harakati va tadbirkorlik kapitali harakati;
2. Kapital egasiga ko'ra – xususiy va davlat, xalqaro tashkilot kapitali harakati;
3. Ko'rinishi bo'yicha – kapitalning pul va tovar shaklidagi harakati;
4. Muddati bo'yicha – kapitalning qisqa, o'rta va uzoq muddatli harakati.

Bularning ichida kapitalning ssuda (qarz) va tadbirkorlik kapitaliga bo'linishi eng muhimdir. Ssuda kapitali harakati bir mamlakat qarz beruvchisi, ikkinchi bir mamlakatning qarz oluvchisiga qaytarilish va foizlar to'lash sharti bilan ma'lum bir muddatga qarz berganda sodir bo'ladi.

Agarda kapital egasi uni qarzga bermasdan, tadbirkorlik foydasini olish maqsadida xorijiy mamlakatlarda o'z korxonasi shoxobchalarini, qo'shimcha korxonalarni barpo etishga qo'ysa, bunday holatda tadbirkorlik kapitalining harakati yoki xorijga investitsiya sarflash harakati ro'y beradi. Investitsiyalar investitsiya sarflovchiga (investorga) xorijdagi korxonadan ustidan nazorat qilishni ta'minlasa, uni bevosita investitsiya sarflash deb ataladi. Agarda xorijiy investorning kompaniya aktivlaridagi ulushi shu mamlakatda o'rnatilgan ko'rsatkichdan past bo'lib, u korxonani bevosita boshqarishda ishtirok etolmasa, bunday investitsiya sarflash portfelli investitsiyalar deb ataladi.

Tadbirkorlik kapitalining harakati kapitalni olib kelish va olib chiqishning jadal rivojlanayotgan shakli hisoblanadi. Kreditdan farqli ravishda tadbirkorlik kapitali xorijiy mamlakatlarning ishlab chiqarish sohalarini kengaytirish va yangilashda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadi.

Xorijiy investitsiyalar deganda xorijiy mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga valuta-pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar hamda kreditlar ko'rinishidagi bir muddatli kapital qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy investorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan korxonalarni, ko'chmas mulkni, qimmatbaho qog'ozlarni, shuningdek, zayomlar va kreditlarni olish.

Xorijiy investitsiyalar tushunchasi ta'rifi shundan dalolat beradiki, u xalqaro kredit tushunchasi bilan birlashib ketadi. Bu asosan moliyaviy investitsiyalarga, shu jumladan, uning tarkibiy qismi hisoblangan portfelli investitsiyalarga taalluqlidir. Ko'pincha chet el investitsiyalari deganda uning tor ma'nodagi tushunchasi, ya'ni investorga korxonadan faoliyati ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi bevosita qo'yilmalar tushuniladi. Bevosita investitsiya sarflashning

bunday xususiyati kapital chiqaruvchi va uni qabul qiluvchi mamlakatlarning unga bo'lgan ikki tomonlama munosabatlarini asoslaydi. Bu holatni shunday tushunish mumkin.

Chiqaruvchi mamlakat uchun kapital oqib ketishi, bir tomondan, yaratilishi mumkin bo'lgan ish joylari va xorijiy qo'yilmalar tortib olingan (ekspropriatsiya) hollarda kapitalning o'zi ham yo'qotilishi, boshqa tomondan esa jahon bozorida o'z ishtirokining kengayishini va yuqoriroq foyda olishini bildiradi.

Qabul qiluvchi mamlakat uchun xorijiy investitsiyalar, bir tomondan, milliy iqtisodiy resurslarning ishlatilishidan xavfsirashni va iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari ustidan nazorat yo'qotilishini keltirib chiqaradi, boshqa tomondan esa yangi texnologiyalar va boshqarish usullariga yetishish sifatida yuqori qiziqishni aks ettiradi. Bevosita investitsiyalash jarayonlarining ko'tarilishi va pasayishi shu bilan izohlanadi.

O'zbekistonda tadbirkorlik kapitalini olib kelish uchun huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslar yaratilgan.

O'zbekistonda tashqi savdoni liberallashtirishda va jahon xo'jalik aloqalarini intensivlashtirishda ustuvor yo'nalishlar quyidagilar:

- iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarishning o'sishi;
- tashqi savdoda xususiy biznes ulushining ortishi;
- investitsiya mablag'lari tarkibida xususiy investitsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ko'payishi;
- makroiqtisodiy darajada samaradorlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi;
- tayyor mahsulotlar eksport qilinishining ustuvor darajada o'sishi.

12.3-jadval. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari¹ (mln.AQSh doll.)

Ko'rsatkichlar	2005	2007	2009	2011	2013	2014
Tashqi savdo ayfanishi	9500,1	15719,6	21209,6	26365,9	28269,6	28093,3
MDH davlatlari	3403,4	7679,1	8010,4	11345,7	11921,5	12412,8
Xorijiy davlatlar	6096,7	8040,5	13199,2	15020,2	16348,1	15680,5
Eksport	5408,8	8991,5	11771,3	15021,3	14322,7	14109,0
MDH davlatlari	1722,6	4273,0	3921,3	6720,1	6644,7	7092,7
Xorijiy davlatlar	3686,2	4718,5	7850,0	8301,2	7678,0	7016,3
Import	4091,3	6728,1	9438,3	11344,6	13946,9	13984,3
MDH davlatlari	1680,8	3406,1	4089,1	4625,6	5276,8	5320,1
Xorijiy davlatlar	2410,5	3322,0	5349,2	6719,0	8670,1	8664,2

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini topishi va eksport salohiyatini yanada rivojlantirishi uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- respublikaning eksport imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga sharoit yaratish, eksportga yo'naltirilgan milliy iqtisodni shakllantirish;
- mablag'larni eksportga mo'ljallangan, raqobatbardosh, fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoatning ustuvor yo'nalishlarida jamlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat tarmoqlari majmuini – ixtisoslashtirilgan savdo uylari, lizing, konsalting, franchayzing va sug'urta firmalarini; bank, transport, kommunikatsiya tizimini yanada takomillashtirish;
- mahsulotlarni standartlash va sertifikatlash xalqaro tizimiga jadallik bilan o'tishni ta'minlash;
- texnopark yoki texnopolislar tashkil qilish asosida ilmiy tadqiqot va tajriba-loyiha ishlarini bevosita ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish;
- milliy litsenziyalash va patentlash tizimini bugun-ning talabi asosida tashkil qilish va boshqalar

¹ Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўғлам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистикаси Қўмитаси. Тошкент 2015. Б.314.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *Tashqi iqtisodiy munosabatlar strategiyasi nima?*
2. *Tashqi iqtisodiy munosabatlar strategiyasining qanday turlari mavjud?*
3. *Qanday tashqi savdo nazariyalari mavjud?*
4. *Jahon bozori va tashqi savdoning rivojlanishiga qanday omillar sabab bo'lgan?*
5. *Xalqaro kapital migratsiyasi nima?*
6. *Xorijiy investitsiyalar.*

XIII BOB. TO'LOV BALANSI VA VALUTA KURSI

- 13.1. TO'LOV BALANSI.
- 13.2. JAHON VALUTA TIZIMI.
- 13.3. VALUTA KONVERTIRLASHUVI.
- 13.4. VALUTA KURSI.

13.1. TO'LOV BALANSI

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va ularning butun bog'lanishlarining holatini tahlil qilish imkonini beradigan umumlashtiruvchi ko'rsatkich *to'lov balansidir*. U mamlakatning rezidentlari bilan tashqi dunyo o'rtasida muayyan davrdagi barcha savdo va moliyaviy oqimlarni qamrab oladigan statistika hisobotidir. To'lov balansini mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonida amalga oshirilgan amaldagi to'lovlari bilan unga kelgan tushumlarning qiymatda ifodalangan o'zaro nisbatidir.

Binobarin, to'lov balansini o'z tarkibida tashqi iqtisodiy aloqalarning hamma shakllarini aks ettirishi kerak.

Haqiqatan ham, mamlakatlarning bir-birlari bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlarining tuzilishi murakkab bo'lganligi tufayli to'lov balansini tarkibiy qismlar sifatida savdo balansini, xizmatlar va notijorat to'lovlari balansini, kapital va kreditlar harakati balansini o'z ichiga oladi. Ko'pincha savdo balansini bilan xizmatlar va notijorat to'lovlar balansini joriy operatsiyalar balansiga birlashtiriladi.

Mamlakatning savdo balansini tovarlar import qilinganida undan chiqib ketadigan mablag'lar bilan tovarlarni chet elga eksport qilganda keladigan mablag'lar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. To'lov balansining shu tarkibiy qismi mamlakatning tashqi iqtisodiy ahvoriga baho berishda eng muhim ko'rsatkichdir. Agar mamlakatning eksporti ma'lum davrda chet eldan import qilishdan ortiq bo'lsa, savdo balansini aktiv bo'lishi (musbat saldo balansiga ega bo'lishi) mumkin. Agar import eksportdan ortiq bo'lsa, savdo balansini shunga muvofiq (manfiy saldo) bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar

O'zbekiston muayyan yilda manfiy savdo balansi saldosiga ega bo'lsa, o'sha yili iste'mol qilinganiga qaraganda kamroq ishlab chiqarilgan bo'ladi. Va aksincha, savdo balansining musbat saldosi O'zbekistonda tegishli yilda iste'mol qilinganiga qaraganda ko'proq tovarlar ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi. Savdo balansining musbat yoki manfiy bo'lishi ko'pgina tashqi va ichki omillarga bog'liq. Agar jahondagi konyunktura natijasida jahon bozorlarida narxlarning sezilarli darajada ko'tarilishi barqaror tursa, biz eksportda O'zbekistonning savdo balansi musbat saldogaga ega bo'ladi, deb taxmin qilishimiz mumkin.

13.1-jadval

Tushumlar (+)	To'lovlar (-)
I. Joriy operatsiyalar balansi	
IA. Savdo balansi.	
I. Tovarlar eksporti	I. Tovarlar importi
IV. Xizmatlar va notijorat to'lovlar balansi	
Nofaktor xizmatlar bo'yicha tushumlar	Nofaktor xizmatlar bo'yicha to'lovlar
Yuk tashish va sug'urta	Yuk tashish va sug'urta
Safarlar	Safarlar
Boshqa nofaktor xizmatlar	Boshqa nofaktor xizmatlar
Faktor daromadlar tushumlar	Faktor daromadlar to'lovi
Transfert tushumlari	Transfert to'lovlar
II. Kapitallar va kreditlar harakati balansi	
Bevosita investitsiyalar kelishi	Bevosita investitsiyalar ketishi
Majmua investitsiyalar kelishi	Majmua investitsiyalar ketishi
Ssuda kapitalining kelishi	Ssuda kapitalining ketishi
III. Mamlakat oltin va valuta zaxiralaridagi I va II balanslar o'rini to'ldiruvchi o'zgarishlar	
Oltin va valuta zaxiralarining kamayishi (sof chiqib ketishning o'rini to'ldirish (-))	Oltin va valuta zaxiralarining ko'payishi (sof mablag' kelishining yutilib ketishi (-))

Xizmatlar va nosavdo operatsiyalar balansi mamlakatning boshqa mamlakatlarga ko'rsatadigan xizmatlari bo'yicha kelgan pul bilan shu mamlakatga boshqa mamlakatlar ko'rsatadigan xizmatlar bo'yicha chiqib ketgan pul o'rtasidagi nisbatdan iboratdir. Iqtisodchilar faktor va nofaktor xizmatlarni farqlaydi. Faktor xizmatlar mamlakat-

ning chet elga tabdirkorlik yoki ssuda kapitali shaklidagi investitsiyalaridan tushgan pullarni o'z ichiga oladi. Bunga dividendlar shaklidagi pul tushumlari, mamlakat firmalari va kompaniyalarining foyda repatriatsiyasi, chet elliklarning mamlakat patentlari, litsenziyalari va menejmentidan foydalanganlik uchun to'lovlari va hokazolar kiradi. Nofaktor xizmatlar oqimiga sayyohlik, transportda yo'lovchilar va yuklar tashish, sug'urta, teleradiokommunikatsiyalar uchun tushumlar va to'lovlar kiradi.

Mamlakatlar o'rtasida mavjud bo'lgan, ammo savdo bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlar bo'yicha to'lovlar va tushumlar nosavdo oqimlar va operatsiyalar deb ataladi. Ular jumlasiga pul mablag'larini rasman o'tkazish (masalan, tabiiy ofatlar, urush, epidemiyalar va boshqalarni boshdan kechirayotgan mamlakatlarga chet eldan yordam ko'rsatish), qarindoshlar va yaqin kishilarga shaxsiy pul o'tkazmalari va shu kabilar kiradi. Xizmatlar balansining moddalari bo'yicha harakatni ko'pincha «ko'rinmas operatsiyalar» deb atashadi.

Mamlakatimizdagi va chet ellik iqtisodchilar O'zbekistonning jahonshumul miqyosdagi diniy va madaniy-tarixiy boyluklarini hisobga olib, uni sayyohlik faollashishi kutilayotgan mamlakat deyishmoqda. Shuni aytishimiz mumkinki, ushbu omil kelajakda xizmatlar balansi bo'yicha chet el valutasini chiqib ketishining o'rnini to'ldiradi.

Kapital va kreditlar harakati balansi xalqaro kapital va kredit shaklida valuta mablag'lari kelishi va chiqib ketishining nisbatini aks yettiradi. Kapitalning harakati tabdirkorlik va ssuda investitsiyalari shaklida yuz berishi mumkin. U rezidentlar hamda norezidentlarning chet el va mamlakatning moliyaviy aktivlari – obligatsiyalar, korxonalar qarashli aksiyalar, boshqa qarz majburiyatlari, shu jumladan, kreditlar va qarzlarni olish-sotish jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekistonda yashovchilarning Rossiyaning yirik kompaniyalari aksiyalarini sotib olishi valuta mablag'larining chiqib ketishini anglatadi. Agar O'zbekistonning davlat aksiyalari chet mamlakatlardagi investorlar tomonidan sotib olinsa, chet el kapitali kelgan bo'ladi. To'lov balansining

kapital bilan bog'liq moddalarining harakati rezidentlar va nerezidentlar chet el moddiy aktivlari – ko'chmas mulk hamda kompaniyalarini olgan yoki sotgan paytda yuz beradi. Agar ishi yurishgan o'zbekistonlik bizneschi Italiyada tomat pastasi ishlab chiqaradigan firmani yoki shahar tashqarisidagi villani sotib olsa, kapital chiqib ketgan bo'ladi. Shunday qilib, kapitallar harakatining balansi moddiy va moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar qilishdan keladigan sof tushumlarni ko'rsatadi. Agar ularni sotishdan kelgan tushumlar sotib olinadigan chet el aktivlari bo'yicha to'lovlardan ortiq bo'lsa, unda kapitallar harakati balansining musbat saldosi bo'linadi va biz kapitalning sof kelishi yuz berganini ko'ramiz. Aksincha, biz chet elliklarga o'z aktivlarimizni sotishga qaraganda chet el aktivlarini ko'proq sotib olsak, kapitallar harakati balansining manfiy saldosi, kapitalning mamlakatdan sof chiqib ketishi kuzatiladi.

Kapitallar harakati hisob varag'i ko'pincha savdo balansi va xizmatlar balansi taqchilliklariga nisbatan o'rnini to'ldiruvchi hisob varaq vazifasini o'taydi. Mamlakat ma'lum vaqt davomida ishlab chiqarganiga qaraganda ko'proq tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilsa, unda chet el davlat va xususiy qarzlari hamda kreditlari, chet el kapitalining boshqa oqimlari kundalik iste'molning kundalik ishlab chiqarishdan ortiq bo'lishini, ya'ni manfiy sof eksportni pul bilan ta'minlashga yordam beradi.

Asosan joriy operatsiyalar balansi va kapitallar harakati balansi jami taqchilligining o'rnini to'ldiruvchi yana bir muhim tarkibiy qism – *mamlakat oltin va valuta zaxiralari hisob varag'idir*. Agar to'lov balansining aktiv saldosi kundalik operatsiyalar balansining manfiy saldosi qoplamasa yoki aksincha, kundalik operatsiyalar balansining aktiv saldosi kapital mablag'lar harakati hisob varag'i bo'yicha manfiy saldoni qoplamasa va nihoyat, mazkur balanslarning ikkalasi ham manfiy sof qoldiqqa ega bo'lsa, mamlakatda ilgari jamlab qo'yilgan valuta zaxiralari tashqi qarzni qoplash uchun ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi.

13.2. JAHON VALUTA TIZIMINING MOHIYATI VA ZARURATI

Har qanday xalqaro iqtisodiy bitim o'zaro hisob-kitoblar bilan olib boriladi va bunda birinchi navbatda shunday savol tug'iladi: "Uni qanday pul birliklarida amalga oshirish kerak?" Har bir mamlakat o'zining pul birligidan foydalanadi. Shu sababli bitim ishtirokchilari jahon bozorida tovar va xizmatlarni sotar yoki sotib olar ekan, ular o'zlarining milliy valutasini chet el pul birliklari bilan qanday nisbatda ekanligini, shuningdek, zarur bo'lgan valuta zaxiralarini yaratish uchun ulardan qaysilari barqaror va jahonda yuqori talabga egaligini bilishi lozim.

Mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko'paygan sari ularning pul vositalarini ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblar murakkablashadi, milliy iqtisodiyotning tashqi dunyo bilan hisob-kitoblaridagi nomutanosiblik muammolari yuzaga keladi. Bularning barchasi jahon valuta tizimi barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Uning maqsadi mamlakatlar o'rtasidagi barcha turdagi bitimlarning amalga oshirilishini tartibga solishdan, tezlashtirishdan iborat.

Shunday qilib, jahon valuta tizimi – bu xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan mamlakatlar o'rtasidagi valuta munosabatlarining yig'indisidir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida u quyidagilarni o'z ichiga oladidi:

1. Xalqaro bitimlarda foydalaniladigan to'lov-hisob va kredit vositalarini (oltin, eng rivojlangan mamlakatlarning milliy valutilari, xalqaro pul birliklari);
2. Valuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmini;
3. Valuta bozorini ishlash tartibini;
4. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartib va qoidalarini;
5. Valuta yordamida tartiblash va nazorat qilish tizimini;

6. Valuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jahon valuta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimini (Xalqaro Valuta Fondi, Umum-jahon Banki).

Hozirgi zamonda xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda uch ko'rinishdagi pul vositalari ishlatiladi:

- oltin, hozirda o'zining asosiy to'lov, hisob-kitob vosita xususiyatini yo'qotgan bo'lsada, ammo ko'pchilik mamlakatlar valuta rezervlarining sezilarli qismini tashkil etadi va muhim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat qilish va kreditlarni kafolatlash uchun ishlatiladi;

- jahon savdosida asosiy o'rin tutuvchi rivojlangan mamlakatlarning milliy valutalari: AQSh dollari, ingliz funt sterlingi, nemis markasi, shveysariya franki, yaponiya yenasi va boshqalar;

- xalqaro pul birliklari (SDR, EKYU, EVRO), ular milliy valutalardan farqli ravishda banknotalar ko'rinishidagi moddiy shaklga ega emas va naqd pulsiz hisob-kitoblar uchun ishlatiladi. Uni ishlatish sharti – shu pul vositalarini muomalaga chiqargan tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar Markaziy banklarning maxsus hisoblarga yozib qo'yish yo'li bilan.

Bu pul birliklari jahon valutalari deb hisoblanadi va barcha mamlakatlar tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda, xorijga kreditlash va investitsiyalashda, chet ellik ishchi kuchi mehnatiga haq to'lashda, shuningdek, mamlakat valuta rezervlarini yaratishda qo'llaniladi.

13.3. VALUTA KONVERTIRLASHUVI

Xalqaro valuta yoki xalqaro to'lov-hisob va kredit vositalari javob berishi kerak bo'lgan asosiy talab ularning konvertirlashuvi hisoblanadi.

Valuta konvertirlashuvi deganda uni boshqa xorijiy valutalariga almashish qobiliyati tushuniladi. Hozirgi paytda ular erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valutalariga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valuta – bu amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valutadir. Xorijiy valutani erkin sotib olish va sotish joriy operatsiyalar (tashqi savdo ayirboshlashi, xalqaro turizm) hamda kreditlar va investitsiyalar harakatlari operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar bo'yicha amalga oshiriladi. Erkin konvertirlanadigan valutalariga AQSh dollari, Kanada dollari, Yevropa hamjamiyati mamlakatlari, Shveytsariya, Shvetsiya, Yaponiya milliy valutarini kiritish mumkin. Ulardan valuta narxini aniqlashda foydalaniladi. Masalan, o'ta muhim mahsulotlardan hisoblangan neft va boshqa energiya tashuvchilar, bir qator metallar narxlar AQSh dollarida qayd etiladi.

Qisman konvertirlanadigan valuta – bu faqat ba'zi bir xorijiy valutalariga almashtiriladigan va xalqaro to'lov obro-tini qisman qamrab olgan milliy valutadir (masalan, faqat joriy tovar operatsiyalarni qamrab olgan operatsiyalar bo'yicha).

Konvertirlanmaydigan valuta – bu faqatgina ichki to'lovlarga xizmat qiladigan va xorijiy valutalariga ayirboshlanmaydigan milliy valutadir.

Konvertirlashni ichki va tashqi konvertirlashga ham ajratadilar. Ichki konvertirlash rezidentlarning (ya'ni shu mamlakatda yashash joyi bo'lgan shaxslarning) mamlakat ichkarisida xorijiy valutani sotib olish, uni ushlab turish va u bilan ayrim operatsiyalarni olib borishga qonunlashtirilgan huquqni aks ettiradi.

Tashqi konvertirlashda xorijda to'lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat beriladi.

Valutalarning konvertirlanishi ko'pchilik mamlakatlar uchun ular olib borayotgan iqtisodiy siyosatning muhim maqsadi hisoblanadi.

13.4. VALUTA KURSI

Barcha xalqaro bitimlar valutalarni ayirboshlash bilan olib boriladi. Har qanday ayirboshlashda bo'lgani kabi valuta narxini yoki valuta kursini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi.

Shunday qilib, valuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan narxidir. Valuta kursini o'rnatish kotirovkalash deb ataladi. U to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar xorijiy valuta birligining narxi milliy valutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri kotirovkalash deyiladi. Masalan, 1 AQSh dollari 3239,62 so'mga, 1 Rossiya rubli 53,41 so'mga teng¹ va hokazo. Teskari kotirovkalashda milliy valutaning bir birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valutaning miqdori o'rnatiladi. Masalan, 1000 o'zbek so'mi 0,31 AQSh dollariga² to'g'ri keldi va hokazo. Dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan.

Valutalarni almashtirish kurslari ularni olish-sotish jara-yonida o'rnatiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari – banklar, moliya-kredit muassasalari, korxonalar va jismoniy shaxslar tashqi savdo hisob-kitoblarini olib borish, kapital, ishchi kuchlari migratsiyasini amalga oshirish, valuta rezervlarini to'ldirish, valuta xavf-xatarlarini sug'urtalash, shuningdek, valuta kurslari o'zgarishidan foyda olish uchun xorijiy valutani sotadi va sotib oladi.

Valuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valutaning narxi yoki kursi aniqlanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchi-

¹ <http://www.cbu.uz/uzc/> (2017 йил 7 январь)

² Ўша ерда

lari bo'lib valuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan banklar hisoblanadi.

Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valuta kurslarini o'rnatish jarayoniga bozor kuchlarining ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'liq holda kurslar erkin suzib yuruvchi, cheklangan suzib yuruvchi va qayd etilgan valuta kurslariga ajratiladi.

Erkin suzib yuruvchi valuta kursi shu valutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ostida erkin o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSh dollari, yapon yeni, ingliz funt sterlingi kurslari. Shu bois, bu valutarlar jahon valuta ayirboshlashida ko'proq ishlatiladi.

Cheklangan suzib yuruvchi valuta kursi uning o'zgarishini ayrim xorijiy valutarlar yoki valutarlar to'plami (valuta savati) kurslari o'zgarishiga bog'liq bo'lishini ko'zda tutadi. Misol uchun, ko'pchilik uchinchi dunyo mamlakatlari o'z valutarlarini AQSh dollariga, Fransuz frankiga va boshqa xorijiy pul birliklariga bog'laydi, Yevropa hamjamiyatining pul birligi hisoblangan EVRO kursi esa yetakchi Yevropa mamlakatlari milliy valutarlaridan tashkil topgan valuta «savatiga» nisbatan hisoblab chiqiladi.

Qayd etilgan valuta kursi bu xorijiy valutada ifodalangan davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining narxi bo'lib, unga valuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi. Hozirgi vaqtda qayd etilgan valuta kursi, asosan, sust rivojlangan yoki tashqi duryoga yetarli darajada ochiq bo'lmagan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarda milliy moliyasi va ishlab chiqarishi kuchli bo'lgan xorijiy raqobatchilardan himoya qilish hamda quvvatlash maqsadida qo'llaniladi.

Valuta kursi tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarining mamlakatlararo harakatini o'ziga xos boshqarib turuvchisi hisoblanib, uning o'zgarib turishi mamlakatning tashqi iqtisodiy oborotiga hamda butun makroiqtisodiy vaziyatga kuchli ta'sir qiladi.

Bu ta'sirni shunday vaziyat misolida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, o'zbek so'mining kursi 1000 Rossiya rubliga

nisbatan 7,2 so'mdan 10 so'mgacha pasaygan bo'lsin, ya'ni so'm Rossiya rubliga nisbatan arzonlashgan va aksincha, rubl so'mga nisbatan qimmatlashgan bo'lsin. Bunday holatda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 720 so'mlik qiymatga ega bo'lgan tovar Rossiya bozorida arzonlashib boradi va endi bu tovar 100 ming Rossiya rubliga ($720/7,2 \times 1000$) emas, balki 72 ming rubl turadi ($720/10 \times 1000$). Natijada tovarning raqobatga chidamliligi orta boradi va unga bo'lgan talab oshadi, eksport rag'batlantiriladi. Biroq milliy valutani Rossiyaga chiqarish O'zbekiston uchun foydali bo'lmay qoladi. Rossiyada ishlab chiqarilgan 2000 rubllik mahsulot endi o'zbek so'mi kursining pasayishi va Rossiya rubli kursining qimmatlashuvi natijasida o'zbek bozorida 14,4 so'm ($2000 \times 7,2/1000$) emas, balki 20 so'm ($2000 \times 10/1000$) turadi. Ko'rinib turibdiki, mahsulot narxi qimmatlashdi va shu sababli uni olib kelish (mahsulot importi) qisqarib boradi. Va aksincha, o'zbek so'mining kursi oshib borishi bilan Rossiyadan tovar olib kelish va kapitalni chetga chiqarish foydali bo'ladi.

Shunday qilib, milliy valuta kursining pasayishi bilan narxlar ham pasayadi va jahon bozorida mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligi ko'tariladi, eksport va chet el kapitalining oqib kelishi rag'batlantiriladi. Va aksincha, valutaning ko'tarilgan kursida mamlakat uchun import va kapitalni chetga chiqarish foydaliroq bo'lib qoladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. *To'lov balansi nima?*
2. *Savdo balansi nima?*
3. *Jahon valuta tizimining mohiyati va zarurati.*
4. *Valuta konvertirlashuvi tushunchasi.*
5. *Erkin konvertirlanadigan valuta qanday valuta?*
6. *Qisman konvertirlanadigan valuta qanday valuta?*
7. *Konvertirlanmaydigan valuta qanday valuta?*
8. *Valuta kursi nima va u qanday belgilanadi?*

Balans – bu ikki qismdan iborat bo'lgan iqtisodiy hisob-kitob.

Baho indeksi – haqiqatdagi bahoning bazis bahoga nisbati.

Davlat budjeti – umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar.

Davlat zayomlari – davlatning aholi, korxonalar, firma va tashkilotlardan qarz olishi hisobiga o'z moliya resursini hosil etish vositasidir.

Dotatsiya – iqtisodiyotga budget orqali ta'sir etish vositalaridan biri bo'lib, qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratishdir. Faoliyati umumdavlat ahamiyatiga molik, lekin o'z daromadi bilan xarajatlarini qoplay olmaydigan korxonalar va tashkilotlarga davlat dotatsiya bilan madad beradi.

Egri soliqlar – korxonalar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga solingan bo'lsa-da, u asosan, iste'molchilar hisobidan to'lanadigan soliq turi.

Emissiya – davlat tomonidan qo'shimcha qog'oz pullarni chiqarish va qo'shimcha kreditni uyushtirishdir.

Erkin konvertirlanadigan valuta – bu amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valutadir.

Erkin savdo strategiyasi – tashqi savdodagi cheklashlarni mumkin qadar kamaytirish strategiyasi. Odatda, bu strategiyani bozorda yetakchi o'rinni egallab turgan, o'z tovarlarining raqobatbardoshligiga putur yetishidan xavfsirashga asos bo'lmagan mamlakatlar qo'llaydi.

Foiz stavkasi – tadbirkorning haqiqiy kapitalni qarzga foydalanishga olish hisobiga to'laydigan bahosi (pul qiymati).

Friksion ishsizlik – ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchlari.

Ijtimoiy boylik – tovar va xizmatlarning juda katta birliklardan tashkil topgan turlari bo'lib, ularni bozor tizimi ishlab chiqarishga xohishi bo'lmaydi. Ijtimoiy boylik bo'linmaslik xususiyatiga ega hamda ularda chetlashtirish prinsipi amal qilmaydi. Ijtimoiy boylikdan hamma foydalanishi mumkin.

Inflatsiya – bu tovar va xizmatlar bahosining ko'payishidir. Inflatsiya makroiqtisodiy beqarorlikning eng murakkab aspekti bo'lib, uni tartibga solish ulkan iqtisodiy muammo hisoblanadi.

Iqtisodiy davr – iqtisodiy o'sish holatida ishlab chiqarish real hajmining vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan kengayish yoki qisqarish davrlari.

Iqtisodiy o'sish – jamiyat taraqqiyotini ifodalovchi asosiy mezondir. Bu obyektiv qonuniyat bo'lib, aholi o'sishi va fan-texnika jarayonlari bilan bog'langan. U milliy iqtisodiyot rivojlanishi harakatini ko'rsatadi va shu sababli vaqtning ma'lum davrlariga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslash yo'li bilan o'lchanadi.

Iqtisodiy o'sish sikli – iqtisodiy dinamikadagi ko'tarilish va pasayish hodisalarini o'z ichiga oluvchi, iqtisodning tebranib turishi bilan xarakterlanuvchi davr.

Iste'mol narxlari indeksi (INI) – bazis davrga nisbatan iste'mol savatining narxi o'zgarishini hisoblovchi ko'rsatkich.

Iste'mol bozori – aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni ayirboshlash makonidir. Iste'mol bozori turli-tuman savdo shoxobchalarini: davlat, kooperativ savdosi, dehqon bozori va chayqov bozorini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish kooperatsiyasi – ikki yoki bir necha mamlakatlarning ma'lum bir ishni bajarish yoki qandaydir bir pirovard mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha birgalikdagi faoliyatlari.

Ishsizlik darajasi – ish kuchining ishsiz yurganlar salmog'iga nisbati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi – to'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik.

Jahon bozori – mamlakatlar o'rtasida ularning yalpi mahsulotlarining bir qismini sotish bo'yicha o'zaro munosabatlari tizimi.

Jahon valuta tizimi – bu xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishga va ularning samarali rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan mamlakatlar o'rtasidagi valuta munosabatlarining yig'indisi.

Jami taklif – bu muayyan narxlar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan iste'mol hamda investitsiya tovarlari va xizmatlarning umumiy miqdoridir.

Jami taklif egri chizig'i – ishlab chiqarish darajasi va narxlar darajasi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq.

Jami taklifning kamayishidan kelib chiqadigan inflatsiya – ortiqcha talab bo'lmagan holda ishlab chiqarish xarajatlari o'sishidan bahoning o'sishi natijasida kelib chiqqan inflatsiya.

Jami talab – uy xo'jaligi, firma, davlat hamda xorijiy xaridorlarning tovar va xizmatlarga talabidir.

Jami talab egri chizig'i – narxlar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq.

Jamg'arma – bu mamlakat yoki firmalar ixtiyoridagi turli majburiy to'lovlar chegirib tashlangandan qolgan daromadning bir qismi. Jamg'arma iste'mol maqsadida ishlatilmaydigan daromaddir. Jamg'arma funksiyasi daromadlar bilan jamg'arma xarajatlarning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Konvertirlanmaydigan valuta – bu faqatgina ichki to'lovlarga xizmat qiladigan va xorijiy valutilarga ayirboshlanmaydigan milliy valutadir.

Kredit – to'lab (qaytarib) berish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berilgan mablag'.

Makroiqtisodiyot – mamlakat iqtisodiyoti va uning yalpi ishlab chiqarishining o'sishi, pasayishi, turg'unlik davrlarini iqtisodiy tahlil qiladigan va uni tartibga solish iqtisodiy mexanizmlarini yaratadigan fan.

Mahalliy budjet – mahalliy hokimiyat tasarrufida bo'lgan xo'jalik subyektlarining daromad va xarajatlarini o'z ichiga olgan moliyaviy resurslar.

Milliy daromad (MD) – SMM dan egri soliqlarni ayirib tashlagandan qolgan qismidir.

Milliy schotlar tizimi (MST) o'zida ijtimoiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi balans jadvalari to'plamini mujassamlashtiradi. Ularda milliy iqtisodiyotning rivojlanish natijalarini aks ettiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanibgina qolmay shu natijalarga olib kelgan jarayonlar ham tahlil qilinadi.

Moliya tizimi – yalpi milliy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladigan va Davlat tomonidan umummamlakat vazifalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan pul mablag'larining majmuasi.

Moliyaviy investitsiya – aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishda qo'llaniladigan investitsiya turi.

Monopoliya (sof monopoliya) – lotincha so'z bo'lib, yagona sotuvchi degan ma'noni anglatadi. Agar tarmoqda yagona ishlab chiqaruvchi bo'lsa, u taklifni va bahoni o'zi belgilaydi.

Narxlar darajasi – turli xil tovar va xizmatlarning alohida narxlarini umumlashtiruvchi jami narx tushuniladi.

Narxlarni muvozanatli darajasi – jami talab va jami taklif bir-biriga mos kelgan yoki bir-biriga teng bo'lgan holat tushunilib, unda ma'lum miqdordagi mahsulotni xaridorlar sotib olishga, ishlab chiqaruvchilar esa uni ishlab chiqarish va sotishga rozi bo'ladi.

Naqd pul – bankdan chiqqach korxonada, tashkilotlar kassasiga va aholi qo'liga o'tgan, oldi-sotdi va to'lov xarajatlari bajarilgach yana bankka qaytadigan pul.

Naqd bo'lmagan pul muomalasi – firma, korxonada, tashkilotlarning bankdagi hisobida turgan pul harakati bo'lib, muomala chek, kredit kartochkasi, veksel, obligatsiya, sertifikat va boshqa vositalar harakati shaklida olib boriladi.

Nominal YaMM – tovar va xizmatlarning soni joriy yil narxlarida hisoblangan ko'rsatkich.

Oligopoliya – tarmoqda bir necha ishlab chiqaruvchilar bo'lgan hol.

Oqib o'tish («qo'shimcha samara») – tovar ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish borasida foyda yoki xarajatlarning uchinchi bir subyektga, oldi-sotdida umuman qatnashmagan subyektga o'tishi.

Proteksionizm strategiyasi – ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoya qilish strategiyasi. Odatda, bu strategiyada eksport uchun mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish import mahsulotlar o'rnini qisman qoplash bilan qo'shib olib boriladi.

Pul massasi – muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullar (xazina va bank biletleri)ning jami miqdori.

Qisman konvertirlanadigan valuta – bu faqat ba'zi bir xorijiy valutilarga almashtiriladigan va xalqaro to'lov oborotini qisman qamrab olgan milliy valutadir (masalan, faqat joriy tovar operatsiyalarni qamrab olgan operatsiyalar bo'yicha).

Raqobat – mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda katta hajmda sotish uchun kurashish.

Real investitsiya – mamlakat ichkarisida va chet elda ishlab chiqarishga kapital qo'yish, shuningdek, boshqa davlatlarga qarz berish va subsidiya shakllarida amalga oshiriladigan investitsiya turi.

Real YaMM – tovar va xizmatlarning soni bazis yil narxlarida hisoblangan ko'rsatkich.

Real foiz stavkasi – bu nominal foiz stavkasidan inflatsiya chegirib tashlab topilgan foiz stavkasidir.

Siklik ishsizlik ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi va ishsizlarning paydo bo'lishidir.

Soliqlar – milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir. Soliq budjet va budjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Sof milliy mahsulot (SMM) – mazmunan va hajman YaMM ga juda yaqin ko'rsatkich bo'lib, faqatgina YaMMdan asosiy kapitalning yemirilgan qismi(amortizatsiya)ni ayirib tashlash zarur.

Strukturali ishsizlik – iste'mol bozori ma'lum mahsulot bilan to'ldirilganda va u mahsulotga ehtiyoj qolmagan taqdirda tashkil topadigan ishsizlik.

Subsidiya – bu umumiy dotatsiya bo'lib, u mahalliy budjetlarga davlat budjetidan ajratiladi. Uni ishlatish mahalliy hokimiyat ixtiyorida bo'lib, markaz unga aralashmaydi.

Subvensiya – bu maqsadli dotatsiya bo'lib, u mahalliy budjetlarga davlat budjetidan ajratiladi. Uni mo'ljallangan maqsad uchun sarflash majburiy va buni davlat nazorat qiladi. Agar subvensiya boshqa maqsadda ishlatilgan bo'lsa, u qaytarib olinadi.

Talab inflatsiyasi – iqtisodda jami talab mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlaridan ko'payib ketishi natijasida kelib chiqqan inflatsiya. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari jami o'sib borayotgan talabni qondira olmaydi → ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi → talab inflatsiyasi kelib chiqadi.

Taqchil bozor – tovarlar surunkasiga iste'molni qondirmaydigan, uning bahosi yuqori bo'lgan bozor.

Taqchil bozorni to'ldirish strategiyasi – "teskari proteksionizm"dir. Bu strategiya milliy bozorda taqchilik katta bo'lsa, unda hamma uchun joy topilsagina samarali bo'ladi.

«To'la ish bilan bandlik» – faqatgina friksion va strukturali ishsizlik mavjud bo'lgan holatdagi bandlik.

To'yingan bozor – xalq iste'moli tovarlari talabga yetarli sifatda va miqdorda bo'lgan bozor.

To'lov balansi – mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va ularning butun bog'lanishlari holatini tahlil qilish imkonini beradigan umumlashiruvchi ko'rsatkich.

To'g'ri soliq – to'g'ridan-to'g'ri korxonaga yoki yollanma ishchi daromadidan olinadigan soliq turi.

Umumiy muvozanat – iqtisodiy muvozanat usuli bo'lib, butun iqtisodiyot uning barcha iqtisodiy aloqalari bilan uzviy birlikda, keng ko'lamda tahlil qilinadi.

Valuta konvertirlashuvi – valutaning boshqa xorijiy valutilarga almashish qobiliyati.

Valuta kursi – bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir.

Xalq xo'jaligi balansi (XXB) – bu jadvallar tizimi bo'lib, unda milliy iqtisodning rivojlanish ko'rsatkichlari, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning hajmi va o'sish sur'atlari, jamg'arish va iste'mol fondlari, ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, aholining pul daromadlari va ularning mahsulotlar bilan ta'minlanishi va hokazolar o'rtasidagi asosiy nisbatlar o'rin olgan.

Xususiy muvozanat – iqtisodiy muvozanat usuli bo'lib, bir, ikki yoki bir necha bozorlar boshqa iqtisodiyotdan ajralgan holda iqtisodiy tahlil qilinadi.

Xorijiy investitsiyalar – xorijiy mamlakatlarning milliy iqtisodiyotga valuta-pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar hamda kreditlar ko'rinishidagi muddatli kapital qo'yilmalarning barcha shakllari.

YaIM – shu mamlakat hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning yig'indisi.

YaMM – ma'lum bir davr davomida jamiyatda pirovard natijada yaratilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatida hisoblangan miqdoridir.

YaMM deflatori – tovar va xizmatlarning hisobot yilidagi narxlarining bazis yildagiga nisbati.

«O'rgimchak uyasimon» model – vaqt bilan bog'liq holdagi bozorning eng sodda dinamik modellaridan biri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

1. *Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: «Ўзбекистон», 2014 йил.*
2. *Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 25.12.2007 й. ЎРҚ-136-сон қонуни билан тасдиқланган.*
3. *Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 20 январдаги ЎРҚ-400-сонли «Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодексини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қонуни билан тасдиқланган.*
4. *Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонуни 25.04.1996 йилдаги 216-1-сон.*
5. *Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки тўғрисида"ги Қонуни, 1995 йил 21 декабрь / Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами.Т.: Ўзбекистон, 2003., 7-29 б.б.*
6. *Ўзбекистон Республикасининг "Банklar ва банк фаолияти тўғрисида"ги Қонуни, 1996 йил. 25 апрель. / Ўзбекистон банк тизимини ислоҳ қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик ҳужжатлари тўплами.Т.: Ўзбекистон, 2003., 30-48 б.б.*
7. *Ўзбекистон Республикасининг "Инвестиция фаолияти тўғрисида"ги Қонуни 24.12.1998 йилдаги 719-1-сон.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI FARMONLARI VA QARORLARI

8. *Ўзбекистон Республикасининг 2016 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 22.12.2015 йилдаги ПҚ-2455-сон, кучга кириш санаси 31.12.2015*
9. *Ўзбекистон Республикасининг 2017 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 27.12.2016 йилдаги ПҚ-2699-сон, кучга кириш санаси 31.12.2016*
10. *Об инвестиционной программе Республики Узбекистан на 2016 г. Постановление Президента Республики Узбекистан от 25 декабря 2015 года № ПП-2458.*
11. *"Ўзбекистон Республикасининг 2006 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 27 декабрдаги ПҚ- 244 сон Қарори / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами., №52, 2005 й.- декабрь., 13-17 б.б.*
12. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори "Экспорт импорт операцияларини тартибга солиш борасидаги қўшимча чора тадбирлар тўғрисида" / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами., №40, 2005 й.- октябрь., 6-7 б.б.*
13. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Бозор ислохотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2005 йил 14 июндаги Фармони // Халқ сўзи, 2005 йил 15-июнь*
14. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишини рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2005 йил 11 апрелдаги Фармони // Халқ сўзи, 2005 й.- 12 апрель.*

**ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
QARORLARI**

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси мажлисининг қарори «2005 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш яқунлари ва 2006 йилда иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишлари тўғрисида "Халқ сўзи", 2006 й. 15 февраль
16. "Инвестиция лойиҳаларини тасдиқлаш ва амалга ошириш мониторинги механизмларини такмиллаштириш, мурувват ёрдами юкларини ва техник кўмаклашиш маблағларини ҳисобга олиш ва назорат қилиш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 15 ноябрь, 251-сон Қарори. / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами., № 46, 2005 й.- ноябрь., 22-52 б.б.
17. "Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги Фармонини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида" Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2005 йил 2 августдаги 180-сон Қарори. / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами., №30-31, 2005 й.- июль-август., 30-40 б.б.

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING BIRINCHI PREZIDENTI
I.A.KARIMOV ASARLARI**

18. Каримов И.А. "Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим" //Халқ сўзи.- 2006. -11 февраль.
19. Каримов И.А. "Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида".-Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2005., 528 б.
20. Каримов И. А. "Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида». Т.: «Ўзбекистон», 1995., 269 б.
21. И.А.Каримов. Бош мақсадимиз – иқтисодиётимизда олиб бораётган ислоҳотларни ва таркибий ўзгаришларни кескин чуқурлаштириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка кенг йўл очиб беришдир: Мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза. Тошкент: Ўзбекистон, 2016., 88 бет.

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING IKKINCHI PREZIDENTI
SH.M.MIRZIYOYEV ASARLARI**

22. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. (14.12.2016). <http://press-service.uz/uz/lists/view/111>

DARSLIKLAR VA O'QUV QO'LLANMALARI

23. Dornbush R. "Macroeconomics" - Boston. Mcgraw-Hill, 2001., - 574 p.
24. Ishmuhammedov A.E. «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» Darslik. – T.: TDIU, 2005 yil. 320 b.
25. Ishmuhammedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. -192 bet.
26. Абдурахманов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт): Дарслик. – Т.: Меҳнат, 2004., 670 б.
27. Абель Э., Бернанке Б. Макроэкономика. 5-е изд. – СПб.: Питер, 2010. – 768 с.
28. Агапова Т., Серёгина С. Макроэкономика. Учебное пособие.М., 1995.
29. Агапова Т.А. Макроэкономика для преподавателей. Выпуск 1-й. Учебно-методическое пособие. - М.: Изд-во Дело и сервис, 2003. - 128 с.
30. Агапова Т.А. Серёгина С.Ф. Макроэкономика. Тесты: Учебное пособие. – Киров: Изд. "Аса", 2003., 96 с.
31. Агапова Т.А., Серёгина С.Ф. Макроэкономика. Тесты: Учебное пособие. – 2-е изд. – М.: Издательство «Дело и Сервис», 2005. – 963с.
32. Агапова Т.А., Серёгина С.Ф. Макроэкономика: учебник / под общей ред. д.э.н., проф. А.В.Сидоровича; МГУ им. М.В.Ломоносова. – 7-е изд. перераб. и доп. – М.: Издательство «Дело и Сервис», 2005. – 464с.
33. Ахмедов Д.Д., Ишмухамедов А.Э., Жумаев К.Х., Джумаев З.А. Макроиктисодиёт. Ўқув қўлланма. Т.: «Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти», 2004. -240 бет.
34. Базылев Н.И., Гурко С.П., Базылева М.Н. Макроэкономика: Учебное пособие. – М.: ИНФРА – М, 2004. – 190с.
35. Варкуев Б.Л. Модели макроэкономики. - М.: Эконом. факульт. МГУ, ТЕИС, 2004. - 230 с.
36. Вечканов С.В., Вечканова Г.Р. Макроэкономика. Учебник для вузов. СПб.: Питер, 2010.-350с.
37. Вечканов С.В., Вечканова Г.Р. Макроэкономика. 7-е изд. -СПб.: Питер, 2006., 256 с.

38. Вечканов С.В., Вечканова Г.Р. Макроэкономика. Краткий курс: учебное пособие. СПб.: Питер, 2010. -288 с.
39. Джумаев З.А. "Макроиқтисодиёт" фанидан Ўқув-услугий мажмуа,-Тошкен: Икқтисодиёт.-2010 й. - 598 бет.
40. Замков О.О. Экономические методы в макроэкономическом анализе. Курс лекций. - М.: ГУ ВШЭ, 2001. - 122 с.
41. Ивашковский С.Н. Макроэкономика: Учебник. - 2-е издание. М.: Дело, 2002., 472 с.
42. Йўлдошев З., М.Қосимов. Макроиқтисодиёт асослари. Т.:Ўқитувчи, 1994.
43. Ишмухамедов А.Э.,Чепель С.В., Шибаршова Л.И. Сборник кейсов по дисциплинам "Макроэкономика и микроэкономика". Т., 2005., 139 б.
44. Ишмухаммедов А.Э. Асқарова М.Т. "Ўзбекистоннинг миллий иқтисодиёти» Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004., 225 б.
45. Киселева Е.А. Макроэкономика. Экспресс-курс: Учебное пособие / Е.А. Киселева. – М.: КОНКУРС, 2008. – 384 с.
46. Козырев В.М. Основы современной экономики: учебник. – 4-е изд., перераб. и доп. // М.: Финансы и статистика, 2007. – 544 с.: ил.
47. Курс экономической теории: учебник. 5-е изд., испр., доп. и дораб. / МГИМО (Университет) МИД России; под ред. М.Н. Чепурина, Е.А. Киселевой. // Киров: АСА, 2006.
48. Макаева Т.В. Макроэкономика. Ответы на экзаменационные вопросы. Учебное пособие. для вузов / Т.В. Макаева. - М.: Издательство «Экзамен», 2005, - 128 с.
49. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс.-М.,1992.-т.1.
50. Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс. 15-е изд. М.: ИНФРА-М, 2005. Ч. 2-4, 7, 9.
51. Макроэкономика. Курс лекций. Ахмедов Д. И др. ТашГЭУ, 1997.
52. Макроэкономика. Теория и Российская практика/ Под редакцией Грязновой А.Г. и Думной Н.Н. М., КНОРУС, 2006., 688 с.
53. Макроэкономика. Теория и российская практика: Учебник. - М.: КНОРУС, 2005. - 688с.
54. Макроэкономика. Шпаргалка. Экзаменационные ответы. – М., 2005. – 40 с.

55. *Макроэкономика: социально ориентированный подход: Учебник для студентов экон. Специальностей учреждений, обеспечивающих получение высшего образования / Э.А.Лутохина и др.; под ред. Э.А.Лутохиной. – Мн.: ИВЦ Минфина, 2005. – 400с.*
56. *Марыганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Экспресс курс: учебное пособие. М.: КНОРУС, 2010. –302 с.*
57. *Матеева Т.Ю. Введение в макроэкономике [Текст]: Учебное пособие. / Т.Ю. Матеева; Гос. Ун-т – Высшая школа экономики. – 3-е изд. – М.: Изд. Дом ГУ ВШЭ, 2005. – 510 [2] с.*
58. *Методическое пособие для преподавателей и студентов: Макроэкономика / Под редакцией К.А.Хубиева, Н.И.Титовой. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2003. – 76с.*
59. *Муминов Н.Г. "Макроиктисодиёт" курсидан маърузалар матни. Т.: "Университет" нашриёти. 2001 йил. 171 бет.*
60. *Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономики: Пер.с англ. – СПб., 2003., 576 с.*
61. *Мэнкью Н.Г. Принципы макроэкономикс. СПб.: Питер, 2004.*
62. *Обучение рынку. / Под. ред. Глазыва С.Ю. – М.: ЗАО "Издательство" Экономика, 2004. – 639с.*
63. *Саидова Г., Шадыбаев Т. Макроэкономика. Т.: "ШАРК", 2003., 112 с.*
64. *Сакс Дж.Д, Ларрен Ф.Б. Макроэкономика. Глобальный подход: Пер. с англ.-М.:Дело, 1996.*
65. *Тараевич Л.С., Гребенников П.И., Леусский А.И. Макроэкономика: Учебник. – 6-е изд., испр и доп. – М.: Высшее образование, 2006. – 656с.*
66. *Туманова Е. А., Шагас Н.Л. Макроэкономика. Элементы продвинутого подхода: Учебник. – М.: ИНФРА- М, 2004. – 400с.*
67. *Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика.-М.,1993.*
68. *Хакимова М. Макроиктисодиёт. Т.:Меҳнат, 1997.*
69. *Шагас Н.Л., Туманова Е.А. Долгосрочный аспект. - 3-е изд. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2004. – 122 с.*
70. *Экономическая теория: Учебник. В.Д.Камаев и др.- М.:Владос, 1999.*

ILMIY MONOGRAFIYALAR, MAQOLALAR

71. Tinbergen J. Verifikation statistique des therr des siclaseconomiques. Vol.1 une methode et son application au mouvement des investissements. Vol. 2.:Les cycles economiques aux Etat-Unis d'Amerique de 1912 a 1938. Societe des nations. Service d'Etudes Economiques. Geneve, 1939
72. Намозов О. ВВП или измерим национальное богатство страны. // Экономическое обозрение №8, 2005., 45-48 с.с.
73. Суяров Ф. Режим монетарной политики и перспективы инфляционного таргетирования в условиях переходной экономики // Обзор финансовых рынков Узбекистана, №3, 2004.- сентябрь., 18-26 с.с.
74. Холопов А.В. Валютный курс и макроэкономическая политика./ Монография- М., Научно-техническое общество., 2003., 160 с.
75. Чепель С. Макроэкономические тенденции в сфере бюджетного регулирования и их последствия для экономики в целом: эконометрический подход. // Экономика Узбекистана., 2005.- июнь., 82- 86 с.с.

AVTOREFERATLAR

76. Алексеев А.А. Макроэкономические аспекты обеспечения экономической безопасности в России. Спец. 08.00.05. //А/р. – к.э.н. – М., 2004. – 26 с.
77. Аникеев С.Д. Государственное регулирование доходов населения: методология и практика. Спец.08.00.07//А/р д.э.н. – М.,2000. – 43с.
78. Бадмаев С.С. Экономика республик РФ: кризис и трансформационные процессы в 80-90-е гг. XX века. Спец. 08.00.01. // А/р. д.э.н. – М., 2002. - 47с.
79. Баженова О.В. Мировой рынок труда в условиях глобализации.Спец.08.00.01. //А/р к.э.н. – М.,2005. – 24с.
80. Богославский В.Н. Институционализация теневой экономики в условиях глобализации. Спец.08.00.14, 08.00.01. // А/р. к. э. н. – Ростов-на-Дону, 2005. – 34с.
81. Воронин П.С. Структурные сдвиги в экономике России и перспективы экономического роста. Спец. 08.00.05. //А/р. к.э.н. – М., 2004. – 24 с.

82. Геронин Н.Н. Финансы домашних хозяйств в развитии инвестиционного процесса в России. Спец.08.00.10. – //А/р. к.э.н. – М.,2004. – 20с.
83. Голубничий А.С. Управление инвестиционной деятельностью естественной монополии. Спец.08.00.05//А/р к.э.н. – М.,2005. – 22с.
84. Данкин Д.М. Проблема политического доверия в международных отношениях. Специальность 23.00.04 // А/р. д.п.н. – М., 2000. – 39с.
85. Добычин Е.В. Утечка и репатриация российского капитала. Спец. 08.00.10. // А/р. к.э.н. – М., 2003. – 22с.
86. Дронов Р.В. Методические подходы к обеспечению экономической безопасности государства. Спец.08.00.05-//А/р к.э.н. – М.,2001. – 17с.
87. Друбецкая А.Я. Эффективность стратегии диверсификации в предпринимательской деятельности. Спец.08.00.05. – //А/р. к.э.н. – М.,2004. – 26с.
88. Енин Ю.И. Макроэкономическое регулирование национального хозяйства в условиях евразийской интеграции на постсоветском пространстве. Спец.08.00.14.//А/р. д.э.н. – М.,2004. – 52с.
89. Ефимов И.В. Макроэкономический анализ внешнеэкономической деятельности России.Спец.08.00.05. – //А/р. к.э.н. – М.,2004. – 22с.
90. Иванова Ю.Н. Государственное регулирование товарных рынков с применением современных технологий. Спец.08.00.05.//А/р к.э.н. – М.,2005. – 26с.
91. Клевцов М.Ю. Неопределенность предпринимательской деятельности в условиях кризиса открытой экономики. Спец.08.00.01//А/р.к.э.н. – М.,-2001. – 22 с.
92. Краснова Е.Е. Налоговые инструменты воспроизводства отношений собственности в условиях рыночной трансформации экономики. Спец. 08.00.01. // А/р. к.э.н. – Владикавказ, 2003. – 22с.
93. Курбатова Н.И. Методологические принципы оценки конкурентоспособности связи на рынке труда и регулирования его использования. Спец. 08.00.05. // А/р. к.э.н. – М., 2002. – 23с.

94. Лисицына Е.В. Формирование финансовой структуры капитала компаний реального сектора экономики России. Спец. 08.00.10 // А/р к.э.н. – М., 2004. – 42 с.
95. Магазинов Д.Н. Основные направления социальной трансформации либеральной рыночной экономики в конференции реформ Дж.С.Милля. Спец. 08.00.01 // А/р. – к.э.н. – М., 2004. – 23 с.
96. Мантаева Э.И. Институциональная динамика открытой экономической системы. Спец. 08.00.01. // А/р. д.э.н. – М., 2002. – 46 с.
97. Мартынов А.В. Становление и регулирование структуры национальной экономики России: концептуальный и методологический аспекты
98. Муртозаев Б.Ч. Методологические основы формирования рынков труда Российской Федерации и Республики Узбекистан: сопоставительный анализ. Спец. 08.00.05. // А/р д. э. н. – М., 2005. – 35с.
99. Мухин А.И. Денежное обращение при переходе к рыночной экономике (теория и практика). Спец. 08.00.01. // А/р. к. э. н. – М., 2000. – 25с.
100. Озеров А.В. Обеспечение эффективного управления инвестиционной деятельностью предприятия. Спец. 08.00.05. // А/р. к.э.н. – М., 2003. – 25с.
101. Осипов Д.В. Антимонопольное регулирование и развитие конкуренции на Российских товарных рынках. 08.00.05. // А/р. к.э.н. – М., – 2003. – 25 с.
102. Панков В.В. Экономический анализ в антикризисном управлении. Спец. 08.00.12. // А/р. к.э.н. – М., – 2003. – 46 с.
103. Подоян А.С. Функции государственного сектора в рыночном функционировании смешанной экономической системы. Спец. 08.00.01. // А/р. к.э.н. – Ростов н/Д., 2002. – 24 с.
104. Подшиваленко Д.В. Структура связей совокупного человеческого капитала в системе общественного воспроизводства. Спец. 08.00.01. // А/р к. э. н. – Ростов-на-Дону, 2003. – 27с.
105. Романович В. К. Институционально-экономическом содержании сферы услуг. Спец. 08.00.01- // Ар. док. э. н. – М., 2001. – 39с.
106. Рыжова А.В. Россия на международном рынке труда. Спец. 08.00.14. // А/р. к.э.н. – М., 2003. – 22 с.

107. Саввина О.В. Налоговое стимулирование инновационной деятельности в промышленности России. Спец. 08.00.10.// А/р. к.э.н. – М., 2003. – 26 с.
108. Савранский А.А. Налоговые методы регулирования экономической деятельности хозяйствующих субъектов. Спец. 08.00.10. – // А/р. – к.э.н. – М., 2004. – 26 с.
109. Сахаров Д.М. Бюджетная политика в механизме управления государственными финансами России. 08.00.10. // А/р. к. э. н. – М, 2003. – 22с.
110. Сахаров Д.М. Бюджетная политика в механизме управления государственными финансами России. 08.00.10. // А/р. к.э.н. - М, 2003. - 22с.
111. Синёв В.М. Внешнеэкономический либерализм и протекционизм в условиях глобализирующейся экономики. Спец. 08.00.01. // А/р. к.э.н. – М., 2003. - 29с. 2экз.
112. Скрыльникова Н.А. Информационная экономика: концепция и социально-экономические трансформации. Спец.08.00.01.// А/р. д.э.н. – М.,2005. – 18с.
113. Соколов М.В. Совершенствование механизма налогового регулирования в условиях развития рыночной экономической системы России. Спец:08.00.05.// А/р. к.э.н. – М, 2005. – 25с.
114. Старостин С.П. Система государственного прогнозирования развития Российского научно-технического комплекса в современных условиях. Спец. 08.00.05. // А/р. к.э.н. – М., 2002. - 24с.
115. Степанян А. Г. Механизмы совершенствования государственного регулирования экономического роста в промышленности. Спец. 08.00.05 // А/р. – к.э.н. – М., 2004. – 28с.
116. Столярова А.Н. Исследование национального потребительского рынка на основе макроэкономических пропорций спроса и предложения (на примере продовольственных товаров) Спец. 08.00.05.// А/р к.э.н. – М., 2005. – 24с.
117. Титов А.А. Альтернативные модели регулирования естественных монополий. Спец. 08.00.01. //А/р к. э. н. – М, 2005. – 25с.
118. Титов А.В. Регулирование развития национальной экономики на основе индикативного планирования. Спец. 08.00.05 //А/р. к. э. н. – М, 2005. – 24с.

119. Фёдоров И.Г. Трансфер технологий на современном этапе развития мирового хозяйства. Спец. 08.00.14. // А/р. д.э.н. – М., 2003. – 24с.
120. Филоненко А.В. Рыночная институционализация домашних хозяйств в переходной экономике. Спец. 08.00.01. // А/р. к.э.н. - Ростов-на-Дону, 2003. - 17с.
121. Хвинтелиани В.Г. Этапы и направления эволюции теории стоимости в экономической науке. Спец.08.00.01.// А/р к.э.н. – М.,-2006. – 42 с.
122. Хоанг Н.Х. Особенности современного этапа слияний и поглощение компаний в глобальной экономике. Спец.08.00.14.//А/р к.э.н. – М.,2005. – 28с.
123. Холопов А.В. Теоретические проблемы координации внутренней и внешней экономической политики в условиях открытой экономики.Спец.08.00.01// А/р к.э.н. – М.,-2005. -- 49 с.
124. Цепилова Е.С. Политэкономический анализ функций цены в транзитивной экономике. Спец. 08.00.01. 08.00.05. // А/р. к.э.н. - Ростов н/Д., 2003. - 29с.
125. Чой Ха Енг Моделирование экономического роста России. Спец.08.00.13// А/р. к.э.н. – М., 2004. – 21с.
126. Швец С.М. Анализ и моделирование макроэкономических процессов в условиях экономической нестабильности. Спец.08.00.05 //А/р к.э.н. – М., 2001. – 26 с.
127. Шibaев А.С. Управление государственной собственностью в корпоративном секторе российской экономики. Спец. 08.00.05 // А/р. к.э.н. – М.,2005-23с.
128. Шуба В.Б. Методология формирования и развития межбюджетных отношений Спец. 08.00.10 // А/р. д.э.н. – М., 2004. – 41с.
129. Щурина С.В. Институциональные возможности влияния государства на инвестиционные процессы. Спец 08.00.05 //А/р. к.э.н – М., 2004. – 24 с.
130. Яковлева Н.А. Финансовые методы противодействия теневому сектору экономики. Спец. – 08.00.10.//А/р. к.э.н. – М., 2005. – 26 с.
131. Янова Е.А. Власть и собственность в системе экономических отношений корпорации. Спец. 08.00.01.// А/р. к.э.н. – Владикавказ, 2005. – 29с.

STATISTIK MA'LUMOTLAR TO'PLAMLARI

132. *Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистикаси Қўмитаси. Тошкент 2015. 140 бет.*
133. *Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўғлам. Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистикаси Қўмитаси. Тошкент 2015. 344 бет*
134. *Ўзбекистон иқтисодиёти. Ахборот таҳлилий шарҳ, 2005 йил январ-сентябрь "Ўзбекистон", Тошкент.: 2006. №11. 110 б.*
135. *Ўзбекистон иқтисодиёти., 2004 йил учун таҳлилий шарҳ., №8, 2005. – март., 127 б.*
136. *Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2003 г. , Т., ГКРУ по статистике., 2004., 228 с.*

INTERNET SAYTLARI

137. <http://www.lex.uz>
138. <http://www.mineconomy.uz>
139. <http://www.mf.uz>
140. <http://www.stat.uz>
141. <http://www.soliq.uz>
142. <http://www.cbu.uz>
143. <http://www.wordbank.org>
144. <http://www.ebrd.org>
145. <http://www.imf.org>

Muminov N.G.
Egamberdiyev F.T.
Azizov R.K.

MAKROIQTISODIYOT

*Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2012-yil 14-martdagi 107-sonli buyrug'iga asosan
5230100-iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
yo'nalishining talabalari (o'quvchilari) uchun
tavsiya etilgan.*

Muharrir: Azizbek Ramazonov

Original maket, matbaa dizayni,
sahifalash ishlari va chop etishga tayyorlash
«Catrin Group» XKda bajarildi.

Nashriyot litsenziyasi: AI №280, 11.01.2016

Terishga berildi: 30.05.2017-y.

Bosishga ruxsat etildi: 08.09.2017-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 84x108 1/32.

Segoe UI garnituras. Ofset usulida bosildi.

Hisob-nashriyot t: 7,02. Shartli b.t.: 10,5.

Adadi: 100 nusxa.

Buyurtma № 281.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Tsentri innovatsionni texnologiy» nashriyotida
nashrga tayyorlandi.

100174, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Olmazor
tumani, Universitet ko'chasi, Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti binosi,
2-qavat, 207-xona.

Tel.: (99895) 198-80-87; e-mail: zamonaviyitalim@itm.uz

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44.